**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

“**Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi**”
**kafedrasi**

# “HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYA ASOSLARI” MODULI PAPKASI

60112100 - Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi 3-bosqich talabalari uchun

**Namangan – 2023**

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi tomonidan fan dasturi 2019-yil 29-iyunda BD-60112100-3.03 raqami bilan ro’yxatga olingan va tasdiqlangan.

Modul papka Oliy va o’rta maxsus, kasb hunar ta’limi vazirligi tomonidan 2019-yil 29-iyunda BD – 60112100 - 3.03 raqami bilan ro’yxatga olingan va tasdiqlangan “Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari” fani dasturi va Namangan davlat universiteti Kengashi tomonidan 2023-yil __ - __________ dagi 1-sonli kengash qarori bilan tasdiqlangan ishchi fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.


**Tuzuvchi:**

**E. G’apparov** Namangan davlat universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti

**Taqrizchilar:**

**T. Qozoqov** Namangan davlat universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

**T. Ismoilov** Namangan davlat universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti, DSc.


**NamDU Yuridik fakulteti dekani:**

2023 yil “____” __________________ ____________ **f.f.d., dots. B. Talapov**

**“Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasi mudiri:**

2023 yil “____” _______________ ______________ **PhD E. G’apparov**

Modul papka Namangan davlat universiteti Kengashining 2023-yil ___ - _______________ dagi 1- sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

| № | MUNDARIJA |
|---|---|
| 1. | Titul varog'i |
| 2. | Mundarija |
| 3. | Ma'ruza matnlari |
| 4. | Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi |
| 5. | Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari |
| 6. | Glossariy |
| 7. | Ilovalar:<br>- Sillabus;<br>-Tarqatma materiallar;<br>-Testlar;<br>-Baholash mezonlari; |

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**« Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi» kafedrasi**

**60112100 - Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi**
**3 - kurs talabalari uchun**

# “Huquqiy tarbiya va huquqiy tarbiya asoslari» fani bo’yicha

# *MA’RUZALAR MATNI*



**NAMANGAN - 2023**

**O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**
***Namangan Davlat universiteti***

60112100 - Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi 3 - kurs talabalari uchun “Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari” fani bo’yicha ma’ruzalar matni

**Tuzuvchi: PhD E.O.G’apparov**

**Taqrizchilar:** **p.f.d. dots. T. Ismoilov**
**katta o’qituvchi B.Tillayev**

Ma’ruzalar matni «Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi» kafedrasida ko’rib chiqilgan va tavsiya etilgan

Bayonnoma № 1 _______________ 2023 yil

“Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi”
kafedrasi mudiri: **PhD E.O.G’apparov**

**© Namangan Davlat Universiteti**

**Ma’ruza mavzulari va ular bo’yicha ajratilgan soatlarning taqsimoti.**

| № | Mavzular | Soati |
|---|---|---|
| **1** | Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining predmeti va vazifasi | 2 |
| **2** | Huquqiy madaniyat asosiy tushunchalari | 4 |
| **3** | Huquqiy madaniyatning tuzilishi | 2 |
| **4** | Huquqiy madaniyatni yuksaltirish- davlat siyosatining muhim yo’nalishi. | 2 |
| **5** | Huquqiy madaniyatning nazariy asoslari | 2 |
| **6** | Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanini o’qitishda davlat va huquq asoslari fani va huquqiy ta’limning ahamiyati. | 4 |
| **7** | Huquqiy tarbiyaning nazariy asoslari. | 2 |
| **8** | Huquqiy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari va huquqiy tarbiya texnologiyalarini joriy etish. | 4 |
| **9** | Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda huquqiy tarbiyaning o‘rni. | 2 |
| **10** | Huquqiy tarbiya amaliyoti. | 2 |
| **11** | O’zbekistonda huquqiy madaniyatning asosiy tamoyillari. | 4 |
| | Jami | 30 |

## 1-mavzu: Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining predmeti va vazifasi

**Reja:**

1. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining predmeti.
2. Huquqiy madaniyat nazariyasi fanining metodlari.
3. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining metodologiyasi.
4. Huquqiy madaniyat nazariyasining ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni.

Qadim zamonlar (eramizning I asri o‘rtalari)dan bizning davrimizgacha yetib kelgan “Ulug‘vorlik haqida”gi asarda shunday fikr bayon qilingan: “Odatda har bir olim uchun u amal qilishi kerak bo‘lgan ikkita talab qo‘yiladi: birinchidan, tadqiqotning predmetini aniqlash; ikkinchidan, bu mavzuni egallashga yordam beradigan me- todlarni topish va ularni ko‘rsatish. Bunda ikkinchi talab tartib bo‘yicha birinchisidan keyin tursa ham, ammo ahamiyati jihatidan juda muhimdir”. O‘tgan yuz yilliklar bu noma’lum muallif fikrlarining qanchalik dono va haqqoniy ekanligini to‘la tasdikdadi.

Har bir mustaqil o‘quv fani o‘z predmeti va metodiga ega bo‘lishi zarur. O‘quv fanining predmeti u o‘rganadigan masalalarning majmuidir. O‘quv fanining metodi ushbu fan mavzulari o‘rganiladigan usullardir.

Yuqori malakali huquqshunos bo‘lish uchun avvalambor davlat va huquq haqidagi asosiy tushunchalarni, tamoyillarni, ta’limotlarni bilish zarur. Umuman, davlat va huquq haqidagi bilimlar huquqshunoslik fanining turli sohalari yordamida o‘rganiladi. Huquqshunoslik fanlari ichida markaziy o‘rinni davlat va huquq nazariyasi egallaydi. Davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslik fanlarining metodologik nazariy poydevorini tashkil etadi.

Davlat va huquq nazariyasi tarkibida ham ilm, ham huquqiy ta’lim bo‘yicha turli mustaqil yo‘nalishlar mavjud. Bular jumlasidan davlat va huquq falsafasi, davlat va huquq sotsiologiyasi, qiyosiy huquqshunoslik, huquqiy mafkura asoslari va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. XX asrning so‘nggi choragida yana bir mustaqil yo‘nalish - huquqiy madaniyat nazariyasi shakllandi.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fani nimani o‘rganadi?

Har qanday nazariya kabi huquqiy madaniyat nazariyasi ham davlat va huquq nazariyasining tarkibiy qismi bo‘lib, amaliyot bilan chambarchas bog‘liqdir. Huquqiy madaniyat nazariyasi huquqiy amaliyot rivojining yo‘nalishini belgilab beradi. U huquqiy amaliyot xulosalari va tajribalarining sintezidir.

Huquqiy madaniyat nazariyasi huquqiy amaliyot qonuniyatlarini aks ettiruvchi tajribaning mantiqiy umumlashtirilishidir. Huquqiy madaniyat nazariyasi huquqiy amaliyot bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, amaliyotga xizmat qiladi va amaliyotdan kelib chiqadi.

Huquqiy madaniyat nazariyasi ham amaliy hayot bilan, ham huquqiy amaliyot va tajriba bilan mustahkam bog‘langandir. Tarixiy taraqqiyot jarayonida hayot ilgari surgan ulkan vazifalar negizida huquqiy madaniyat nazariyasi o‘z xulosa va takliflariga aniqliklar kiritadi, boyitadi va rivojlantiradi. Huquqiy madaniyat har bir jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichidir.

Demokratik huquqiy davlatni shakllantirishda shaxe, davlat va jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish ustun ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy madaniyat nazariyasi huquqiy madaniyatning asosiy tushunchalari va mohiyati, prinsnplari va qonuniyatlari, jamiyatdagi vazifasi va rivojlanishi haqidagi bilimlarning umumlashtirilgan tizimidir.

Har bir jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlar muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlarga jahon huquqiy taraqqiyoti tamoyillari nuqgai nazaridan qarash zarur. Bu, bir tomondan, O‘zbekistondagi huquqiy islohotlarning yo‘nalishlari va mezonlari, qadriyatlari va maqsadlarini aniq belgilashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, mamlakatimiz taraqqiyotida huquqiy madaniyatimiz qaerdan kelib, qayoqqa ketayapti, uning o‘ziga xos jihatlari, rivojlanishining shakl va ko‘rinishlari, mezonlari bormi yoki dunyodagi mavjud huquqiy taraqqiyot o‘zanidan ketadimi, degan savollarga javob topishga imkon yaratadi. Ana shu muammolar “Huquqiy va huquqiy tarbiya asoslari” o‘quv fanining qisqacha asosini, o‘zagini tashkil qiladi.

Demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishdek keng qamrovli ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Shu ma’noda huquqiy davlatning muhim belgisi - bu yuksak darajadagi huquqiy madaniyatdir. Ijtimoiy-iqgisodiy va demokratik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, zamonaviy bozor munosabatlari mexanizmini yaratish jamiyatimiz oldiga O‘zbekiston huquqiy tizimini hamda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini jahon andozalariga moslashtirishdek o‘ta dolzarb muammoni hal qilish masalasini qo‘ymoqda.

Huquqiy madaniyat, eng avvalo, jamiyat va shaxs umumiy madaniyatining ko‘rsatkichidir. Jamiyat madaniyatining yuksak darajasi huquqqa nisbatan chuqur ehtirom, hurmat va uni teran bilishni taqozo etadi. O‘z navbatida, huquq normalarining xalablarini bilish va ularga rioya etish fuqarolik jamiyati demokratikligining va madaniyatining shartlaridan biridir.

Avvalgi tuzum uchun jamiyatda yuksak huquqiy madaniyati bo‘lishining keragi yo‘q edi. Albatta, davlat hukumron kommunistik mafkura bilan sug‘orilgan huquq talablarini so‘zsiz bajaruvchi fuqarolarga ega bo‘lishdan manfaatdor edi va u bunga ko‘pincha erishardi ham. Biroq bunday tuzum, huquqni to‘la amalga oshirishga qaratilgan asl huquqiy madaniyatning, hatto u mafkuralashgan holda bo‘lsa ham, hukmron bo‘lishiga yo‘l qo‘ya olmas edi. Tuzum uchun o‘z huquqlari va erkinliklarini uncha tasavvur eta olmaydigan fuqaroga qaraganda huquqiy jihatdan savodli inson xavfliroq edi.

Demokratik huquqiy davlatni jamiyat va shaxsning kjsak ququqiy madaniyatisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Boz ustiga bunday jamiyat mazkur madaniyatni yuksaltirishdan manfaatdordir. Chunki madaniyat totalitarizm va o‘zboshimchalikka qo‘yilgan to‘siq hamda demokratik prinsiplar va normalarni hayotga joriy etishning asosidir.

Jamiyatimiz huquqiy davlatni barpo etmoqda. Bunday davlatning ko‘plab belgilari ko‘rinib turibdi, boshqalari uchun esa zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Xo‘sh, jamiyat huquqiy madaniyatining ahvoli qanday? U asl huquqiy davlat talablariga javob beradimi? Afsuski, keyingi savolga ijobiy javob bera olmaymiz.

Bu savollarga javob berish ushbu o‘quv fanining predmetini tashkil etadi.

Demak, huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan habardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo‘lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo‘lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz.

Ushbu masalalar bo‘yicha jamiyatda tashkil toptan g‘oya va fikrlar, nazariya va mafkura huquqiy madaniyat nazariyasi tushunchasini vujudga keltiradi.

Huquqiy madaniyatni tahlil qilganda, uning ko‘pqatlamli, ko‘rinish va tarkibiy qismlarining ko‘pqirrali ekanligini inobatga olish lozim.

Huquqiy madaniyat nazariyasi o‘quv fani quyidagi xususiyatlariga ega.

Birinchidan, huquqiy madaniyat nazariyasi - ijtimoiy fan. Chunki uning o‘rganadigan sohasi muhim ijtimoiy hodisalar - jamiyat va madaniyat, davlat va huquqdir.

Ikkinchidan, huquqiy madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida bevosita davlat va huquq hayoti bilan bog‘langan. Shuning uchun ham u yuridik fanlar turkumiga kiradi. Bundan tashqari, huquqiy madaniyat nazariyasi boshqa ijtimoiy fanlardan farqli o‘laroq, bevosita huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyat (psixologiya)ga oid masalalarni o‘rganadi.

Uchinchidan, huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari - nazariy fan, zero u huquqiy madaniyatning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi.

To‘rtinchidan, huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari - falsafiy xususiyatga ega fan. Chunki u huquqiy madaniyatning qonuniyatlarini yoritish bilan birga, falsafaning jamiyat va madaniyat, davlat va huquq haqidagi umumiy qonunlarini ham ochib beradi.

Beshinchidan, huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari - amaliyotga yo‘naltirilgan fan. Chunki u demokratik huquqiy islohotlarni amalga oshirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. U shaxs, jamiyat va davlat huquqiy madaniyatini yuksaltirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari - o‘quv-tarbiyaviy ahamiyatga molik fan. Chunki u kishilarning ijtimoiy hodisalar to‘g‘risidagi tasavvurini, bilimini kengaytiribgina qolmay, balki ularda huquqiy tafakkur va dunyoqarashini tarkib toptirishga, huquqiy madaniyatning mohiyati, rivojlanishi va istiqbolini tushunib olishga yordam beradi.

**2. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining metodlari**. Har qanday o‘quv fani muayyan metodga, usulga, ya’ni o‘rganilayotgan hodisalarni anglab yetish vositalariga ega bo‘ladi. Bunday metodlar ikki guruhga bo‘linadi:

- birinchisi barcha o‘quv fanlariga xos bo‘lgan metodlar bo‘lib, ularning asosida tabiat, jamiyat va tafakkurning eng umumiy qonuniyatlari yotadi;
- ikkinchisi maxsus metodlar bo‘lib, ularga sistemali, tarixiy, qiyosiy, sotsiologik va boshqa metodlar kiradi.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining metodlari - huquqiy madaniyat rivojlanishining qonuniyatlari, hozirgi ahvoli va mohiyati haqida bilim olishga yordam beruvchi usul va vositalar bir- ligidan iborat.

XXI asrda jahonda ro‘y berayotgan barcha jarayonlar “inson o‘lchovlari” orqali baholanadi. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining metodologik asoslarini huquqiy madaniyat masalasiga, birinchidan, insoniylik nuqtai nazaridan yondashish, insonga “barcha narsalarning o‘lchovi” sifatida qarash; ikkinchidan, shaxsga davlat mashinasining bir vinti sifatida qarashga asoslangan mustabid tushunchadan voz kechib, unga (shaxsga) ijtimoiy sub’ekt sifatida qarash tashkil etadi.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari o‘quv fanining metodlari huquqiy madaniyatni o‘rganish usullaridir. Har qanday fandagi kabi, huquqiy madaniyat nazariyasida ham turli yondashuvlar, har xil qarashlar mavjud. Huquqiy madaniyat nazariyasining metodlari huquqiy madaniyatning mohiyati, turli jihatlari va xususiyatlarini, rivojlanish qonuniyatlari va prinsiplarini, uni shakllantirish va yuksaltirishni ta’min etadi.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining metodlari huquqiy madaniyatning ko‘p qirralari va qatlamlarini ochib berishga yordam beradi. Ular huquqiy madaniyat to‘g‘risidagi bilimlarni o‘rganish, to‘plash va umumlashtirish kalitidir.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining metodlari huquqiy madaniyatni boshqa ijtimoiy hodisalar bilan uzriy aloqadorlikda, harakatda, mikdoriy va sifat o‘zgarishida o‘rganishni taqozo etadi. Huquqiy madaniyat real hodisa sifatida muayyan vaziyatda, muayyan vaqgda, muayyan jamiyat va davlatda mavjud deb o‘rganilishi lozim. Binobarin, huquqiy madaniyatni tushunish uchun u shakllanayotgan sharoitni, mavjud bo‘lgan tarixiy davrning xususiyatlarini bilmoq va e’tiborga olmoq kerak.

Fanning metodlari huquqiy madaniyat shakllanishi va rivojlanishining qonuniyatlarini bilishga xizmat qiladi. Ular huquqiy madaniyatning mohiyati va vazifalariga, funksiyalari va taraqqiyoti tamoyillariga ilmiy yondashish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining metodlari (usullari) - o‘zaro bog‘liq bo‘lgan muayyan bir tizimni tashkil qiladi. Bu tizimga quyidagi metodlarni kiritish mumkin: mantiqiy metod, qiyosiy metod, tarixiy metod, sotsiologik metod, sistemali metod, kibernetik metod. Albatta, huquqiy madaniyatning o‘rganilayotgan jihatlariga qarab, ilmiy bilishning boshqa usullaridan ham foydalanish mumkin.

**Mantiqiy metod** huquqiy madaniyatni o‘rganishda oqilona, to‘g‘ri xulosa chiqarishga imkon beradi. U ilmiy bilishning mavhum shaklidir. U huquqiy madaniyatni mantiqiy o‘rganishning usul va vositalarini ifodalaydi hamda tafakkur shakllariga, mantiq qonunlariga asoslanadi. Huquqiy madaniyatni o‘rganishda mantiqiy usuldan foydalanish huquqiy madaniyat bo‘yicha qonun hujjatlarini qo‘llashda ziddiyatlardan holi bo‘lish imkonini beradi.

**Qiyosiy metod** turli xil guruhlarning, davlatlarning huquqiy madaniyatidagi umumiy va o‘ziga xos tomonlarini bilish va shu asosda huquqiy madaniyat taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu metod huquqiy madaniyat haqidagi tushunchalar, hodisalar va jarayonlarni o‘zaro solishtirish va shu asosda ular o‘rtasida mavjud bo‘lgan o‘xshashlik va farqlarni aniqlashdan

iborat. Turli mamlakatlarning huquqiy madaniyati haqidagi qonun hujjatlari ham taqqoslab oʻrganiladi.

**Tarixiy metod** huquqiy madaniyat taraqqiyotini muayyan tarixiy izchillikda oʻrganishni taqozo etadi. Ushbu metod koʻllaniladigan huquqiy madaniyat nazariyasi fanida huquqiy madaniyatning qaror topishi, rivojlanishi tarixiy taraqqiyotning murakkab jarayonlari bilan bogʻliq holda oʻrganiladi. Bunda koʻpincha kishilik jamiyatining turli davrlarida roʻy bergan voqealar, hodisalar haqida bilim olish imkonini beradigan tarixiy manbalar, qonunlar, maxsus hujjatlarni tahlil qilish usuli qoʻllaniladi.

**Sotsiologik metod** huquqiy madaniyat darajasini aniqlashda keng qoʻllanilishi mumkin. Sotsiologik metod soʻroqlar orqali oʻrganishni, anketalar yordamida maʼlumotlar toʻplashni, huquqiy statistika natijalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bu usul huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan huquqiy taʼlim-tarbiya va tadbirlarning samaradorligini aniqlashda yordam beradi.

**Sistemali metod** huquqiy madaniyatni har tomonlama oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy madaniyatni turli ijtimoiy hodisalar tizimida oʻzaro bogʻliqlikda oʻrganish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fani inson huquqlari masalasiga sistemali yondashishni hisobga olgan holda ilmiy obʼektivlik, tarixiylik prinsiplari asosiga quriladi. Huquqiy madaniyat barcha ijtimoiy hamda davlat institutlarining bir butunligi sifatida tahlil etiladi. Huquqiy madaniyat huquq, huquqiy ong, yuridik tashkilotlar, huquqiy munosabatlar, huquqiy xulq-atvordan tashkil topgan yaxlit, bir butun holda harakterlanadi.

**Kibernetik metod** huquqiy madaniyat sohasida axborot-qidiruv tizimini yaratishda, matematik-statistik metodlarni qoʻllagan holda huquqiy statistika va axborotlarni kompyuterlar yordamida qayta ishlashda turli xil texnika vositalarini qoʻllashni oʻrganishga yordam beradi.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fani metodlarining butun bir majmui uning metodologiyasini tashkil etadi.

**3. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining metodologiyasi.** Huquqiy madaniyat betakror ijtimoiy voqelikdir. Bugungi kunda mustaqil Oʻzbekiston oʻz taraqqiyotining butun asosi boʻlmish huquqiy madaniyatni qaytadan tiklamoqda. Xalqimizning teran maʼnaviy-huquqiy merosi, uning boy tabiiy va aqliy imkoniyatlari, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalari huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun barcha shart- sharoitlarni yaratib bermoqda.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari oʻquv fanini oʻrganishning umumiy asosini, yaʼni metodologiyasini va xususiyatlarini quyidagilar tashkil etadi:

- birinchidan, huquqiy madaniyat, umuminsoniy qadriyatlar va jahon andozalari (talablar);
- ikkinchidan, huquqiy madaniyat boʻyicha Sharq falsafasi (islom taʼlimoti);
- uchinchidan, oʻzbek milliy mafkurasi;
- toʻrtinchidan, tarixiy-huquqiy meros va tajriba.

**Huquqiy madaniyat va umumbashariy qadriyatlar.** Huquqiy madaniyat, eng avvalo, umuminsoniy qadriyatlarga, umumjahon sivilizatsiyasiga, bu sohada boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, xalqaro huquqning hamma:e'tirof etgan prinsiplari va me'yorlariga asoslanadi.

Yuksak huquqiy madaniyatga asoslangan demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan prinsiplari bor. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat asosiy idoralarining saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, davlat va jamiyat boshkaruvida qonun ustunligi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat idoralarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Inson huquqlariga doir jahon andozalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1948 yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966 yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va unga qo'shimcha Fakultativ protokol hamda boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Inson huquqkari umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy g'oya va qoidalarini o'ziga singdirgan. Asosiy qonunimiz tarixda sinalgan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujdcsamlashtirgan, eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning huquqiy tajribasiga tayangan.

Jahonning ma'rifiy rivojlangan mamlakatlari e'tirof etgan huquqiy madaniyat va davlat suvereniteta, demokratiya va xalqaro huquqning ustunligi kabi umumbashariy qadriyatlar O'zbekiston davlatchilik manfaatlariga, xalqning o'ziga xosligiga, uning milliy an'ana va urf-odatlariga to'la mos keladi. Huquqiy madaniyat O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunlar bilangina emas, balki xalqning o'z ongi, uning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi va huquqiy tajribasi, mehr-shafqati bilan mustahkamlanadi.

**Huquqiy madaniyat bo'yicha Sharq falsafasi ta'limoti.** Huquqiy madaniyat o'z ob'ektiv qonuniyatlari asosida rivojlanadi. Sharqda huquqiy madaniyat va demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan xususiyatlari mavjud. Sharqda huquqiy madaniyat va demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu yerda huquqiy madaniyat va demokratiya tushunchalari hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustunligi zaminida shakllanadi.

G'arbda esa huquqiy madaniyat individualizm falsafasiga tayanadi va bu ommani haddan tashqari siyosatlashtirishga olib keladi. Sharqda axloqiy-ma'naviy qadriyatlar siyosiy munosabatlardan ustunligi bilan ajralib turadi. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviy adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islom dini ta'limotlari bilan uzviy ravishda rivojlangan. Shu bilan birga buyuk ajdodlarimiz - Sharqning mashhur mutafakkirlari Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Al-Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo va boshqalar jahon madaniyati, fani va sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shganlar.

O‘zbekistonda, butun Sharq sivilizatsiyasiga xos bo‘lganidek, oilani barcha choralar bilan qo‘llab-quvvatlash eng muhim insoniy qadriyatlardan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish makoni mahalladir. Chunki mahalla xalqimizning turmush tarzi, ota-bobolarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan tafakkur tarzidir.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirish, to‘liq amalga oshirish milliy davlatchiligimiz tajribasini va huquqiy madaniyatimizni boyitadi.

O‘zbek milliy mafkurasi. Huquqiy madaniyat o‘zbek millatining turmush tarzida, an’anaviy madaniyatida, milliy dunyoqarashi va mafkurasida muhim o‘rin tutadi. Huquqiy madaniyatni to‘la qaror toptirishda milliy, ma’naviy, diniy-axloqiy, davlat-huquqiy va tarixiy merosimizga, mafkuramiz g‘oyalariga tayanmoq kerak.

O‘zbek milliy mafkurasining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: birinchidan, mustaqillik his-tuyg‘usi va istiqlolni to‘la idrok etish; ikkinchidan, o‘zbekchilik; uchinchidan, ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining vatanparvarligi.

Milliy mafkura - ona zaminga bo‘lgan muhabbat, uni sevish, e’zozlash, ardoqlash va ravnaqi haqidagi g‘oyalar majmui Milliy mafkura - jamiyat ahlining ruhiyati ko‘rsatkichi, xohish-irodasining namoyon bo‘lishidir. Milliy mafkura har qanday mafkuradan yuqoridir. Milliy mafkura davlat taraqqiyotini belgilab beruvchi mafkuraviy mezonlarni ham qamrab oladi. Milliy mafkura adolatli huquqiy demokratik fuqarolik jamiyati haqidagi siyosiy-huquqiy g‘oyalardan ham tashkil topadi.

Yaqin-yaqinlarga qadar “milliy mafkura” iborasini ishlatish jinoyat hisoblanardi. O‘z millatini sevish, milliy yutuqlardan faxrlanish, millat yo‘lidagi sa’y-harakatlar “millatchilik” tamg‘alari bilan qoralanardi. Nahotki biror bir inson o‘z millatiga mansubligidan g‘ururlansa, millatchi bo‘lsa?!

Millatchi millat bo‘lmaydi. Milliylik, millatga mansublik umumjahon taraqqiyot qonuniyatidir. “Millatchilik”, “millatchi” deydiganlarni, o‘z nasl-nasabini bilmaydiganlarni achinish bilan buyuk davlatchilik, imperiyacha milliy siyosat manqurtlari deb baholash mumkin, xolos. O‘zbekman, millatimdan va ona yurtimdan faxrlanaman, o‘zbek davlatining fuqarosiman, deya olmaganlar haqida nima deyish mumkin?! O‘zbek xalqi qanchalik istibdod, qanchalik tazyiqu cheklashlarga duch kelmasin, hech qachon tili, dini, madaniyati, merosi ildizlaridan uzilib qolgan emas. Millatimizning ana shu teran, sog‘lom va boy ma’naviy tomirlari huquqiy madaniyat mustahkam poydevorining tayanch nuqtalarini tashkil etadi.

O‘zbek milliy mafkurasining negizini quyidagilar tashkil etadi: birinchidan, milliy g‘urur, ikkinchidan, o‘zbek millatining asosiy fazilatlari va nihoyat, uchinchidan, buyuk milliy-madaniy merosimiz.

**Milliy g‘urur.** O‘zbek millatining g‘ururi, milliy iftixori quyidagilarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

1) ona-Vatanimizning ko‘p ming yillik buyuk tarixiy o‘tmishida, uning Sharq ma’rifatparvarligi, umuman, jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga qo‘shgan beqiyos hissasida va unda tutgan mavqeida;

2) bizning vatandoshlarimiz, buyuk ajdodlarimiz bo‘lmish jahon miqyosida tan olingan madaniyat, fan, din, adabiyot, san’at daholarimizda, davlat va jamoat arboblarimizda;

3) diyorimizning madaniyat, san’at, me’morchilik, fan va huquq sohasidagi bebaho yodgorliklarida;

4) o‘zbek xalqining o‘z ona tili, milliy urf-odatlari, an’ana- udumlari bilan faxrlanishida;

5) o‘zbeklarning buyuk islom sivilizatsiyasi va madaniyatiga mansubligida;

6) o‘zbek davlatining tabiiy boyliklarida, serhosil yerlarida, buyuk daryolarida, qolaversa, mamlakatimizning iqtisodiy kuch- qudratida;

7) ko‘p millatli O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligida, uning fuqarolari va butun xalqining istiqlol va taraqqiyotga, buyuk kelajakka bo‘lgan ishonchida;

8) fuqarolarimizning jahon talablari darajasida bilim va malaka olishga, fan-texnikaga, bozor iqgisodiyoti tadbirkorligi madaniyatiga bo‘lgan ishtiyoq va intilishida;

9) O‘zbekistonning dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinishida, xalqaro nufuzining oshib borishida va nihoyat,

10) tinchlik, barqarorlik va o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlab olib sobitqadamlik bilan borayotganida.

Milliy g‘urursiz hech bir millat millat sifatida ravnaq topolmaydi.

**O‘zbekning asosiy fazilatlari.** O‘zbeklarning asosiy xislatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- o‘zbeklarning turkiy xalqlarga mansubligida, ular bilan yaqin qon-qarindoshligida, ularning tili va dini, madaniy va tarixiy ildizlarining birligida;
- o‘zbeklarning barcha Sharq xalqlari - qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik, afg‘on, eron, arab, xytoy, hind va boshqalar bilan yaqinligida, ular bilan o‘zaro ko‘p ming yillik yaqin etnik madaniy munosabatlarida;
- o‘zbeklarning o‘ziga xos sharqona mustaqil ma’naviy taraqqiyot yo‘lining boshqa qardosh madaniyatlar bilan uzviy rivojlanishida;
- o‘zbeklarning islom madaniyatini va ma’rifatparvarligini o‘ziga xos idrok etishida va ravnaq toptirishida;
- o‘zbeklarning qadimdan Ovro‘po, keyinchalik rus madaniyati bilan yaqin hamkorligida;
- o‘zbeklarning ochiqligiyu mehmondo‘stligida, xoh o‘z mamlakati ichida, xoh tashqarisida barcha millat va elatlar, din vakillari bilan teng huquqli hamkorlikka moyilligida;
- o‘zbeklarning ko‘p asrlik og‘ir va ziddiyatli tarixida, buyuk milliy davlatchilik namunalariyu tarqoqlik o‘kinchlarini, mustamlaka zulmlariyu to‘la qaramlikni boshdan kechirganligida;
- o‘zbeklarning istiqlol sharofati tufayli buyuk millat, xalq bo‘lib birlashuvi, jipslashuvi uchun imkon yaratilganida va ta- raqqiyot sari o‘z mustaqil yo‘li bilan borishida;
- o‘zbeklarning o‘z kuchiga ishonishida, mehnatsevarligida, tinib-tinchimasligida, ishchanligida, bilimdon va tashabbuskorligida;

- o‘zbeklarning xalqqa, Vatanga sadoqatida, fidoyiligida, jonkuyarligida.

**Milliy madaniy meros.** O‘zbeklar boshqa xalqlar singari boy tarixga ega. Milliy ma’naviyatimizning, madaniy merosimizning buyuk xazina ekanligiga shak-shubha yo‘q. Shuning uchun ham faqat ma’naviy tiklanish va chinakam poklanish orqaligina biz o‘z milliy mafkuramizni yaratishimiz mumkin. Boshqa yo‘l yo‘q. Buni qancha tez anglasak, milliy istiqlolning yana bir muhim istehkomini yaraturmizkim, bu yaqinda g‘ishtlari qo‘yila boshlagan mustaqil o‘zbek davlati qal’asi uchun haqiqiy ma’naviy zamin bo‘lib qolajak.

O‘zbek xalqi ham, barcha xalqlar singari asrlar mobaynida saqlanib, sayqallanib kelgan milliy urf-odati, rasm-rusumi, udumi va an’analari, yurish-turishi, g‘ururi, ijtimoiy-iqtisodiy qayoti, dini, ququqiy ongi, umuman aytganda, madaniy-ma’naviy dunyosi aks etadi. O‘zbek xalqining ma’naviyatida millatning o‘tmishi, hozirgi kuni ifodalanishi bilan birga, oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Chunki bolalarimiz ana shu ko‘zga ilinmas his-tuyg‘u va ong, ajdodlar xotirasi va uzviyligi ta’sirida, ona suti, ona allasi bilan ma’naviy ozuqa, tarbiya oladilar. Ushbular til vositasida ongimizga kirib boradi, bularning barchasi millat ma’naviyatining gultoji hisoblanadi.

Sir emaski, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib va ravnaq toptan milliy-madaniy an’analarni va urf-odatlarni qadrlamaslik ma’naviy tubanlik, o‘z tarixiga, ona zaminiga, tuprog‘iga hurmatsizliqdir. Boy, qadimiy va navqiron ma’naviyatimiz durdonalari milliy-ma’naviy inqirozning oldini olishning, milliy-ma’naviy saltanatimizni tiklashning muhim omili va tayanchidir.

Millatimiz ma’naviyat sarchashmalari o‘zbek madaniyatining yangi bosqichdagi uyg‘onishidir.

Ko‘p ming yillik madaniy merosimiz ildizlari unib, nish berib, kurtak ochmoqda. Bu o‘zbek ma’naviyatimizning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bizning yurtimiz madaniyatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug‘ zotlar, davlat arboblarini yetishtirgan va umumbashariyat ma’rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz ulkan hissa qo‘shganlar. Shuning uchun ham o‘zbek madaniy merosi jahon madaniyatining ajralmas tarkibiy qismidir.

Ikkinchidan, mustaqil O‘zbekistonda, qolaversa butun jahon ma’naviyatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan ulug‘ ajdodlarimizni ko‘klarga ko‘tarish vaqti keldi. To‘maris va Shiroq, Spitamen va Manguberdi, Temur Malik, buyuk bobomiz Amir Temur, Ulugbek, Bobur, Shohjahon va boshqa ulug‘larimizning ruhlarini shod aylamog‘imiz, Go‘ro‘g‘li, Alpomish, Oybarchin, Ravshan, Hasan, Kuntug‘mish dostonlarini baralla kuylamog‘imiz va eshitmoshmiz kerak.

Uchinchidan, O‘zbekiston o‘zining chuqur davlatchilik negizlariga ega bo‘lgan o‘ziga xos siyosiy-huquqiy, madaniy meros sohibidir. Eramizdan bir necha yuz yillar oldin, bizning hududimizda huquqiy tizimlar va qarashlar taraqqiy etgan Movarounnahrda islom manfaatlariga, islom huquqshunosligi - fiqhga, shariatga va, umuman, jahon huquqiy madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan huquqshunoslar yashaganlar.

To‘rtinchidan, bizning hududimizda to‘qqiz mingdan ziyod tarixiy, madaniy, me’morchilik yodgorliklari - o‘zbek xalqi beqiyos madaniy merosining namunalari

saqlanib kelinayapti. Ularni ta'mi-rlash, tiklash, saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning ma'naviy, qolaversa, insoniy vatanparvarlik burchimizdir. Shuning uchun konstitutsiyamizning 49-moddasida: "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy me'rosini avaylab-asrashga majburdirlar", - deyilgan.

Xullas, milliy mafkuramizning uzviy tarkibiy qismini boy madaniy me'rosimiz tashkil etadi. Ma'naviyatimiz gulshani durdonalaridan bahramand bo'lib tarbiyalangan sog'lom avlod ruhan tetik va yengilmas bo'lib doimo muzaffariyat otida yurgay.

**Tarixiy huquqiy meros.** Mustaqil O'zbekiston inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish borasida butun dunyoda ish boshlagan va ish olib borgan barcha kishilarni va barcha davlatlarni juda e'zozlaydi. O'zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida ma'rifatparvar demokratik adolatli davlat bo'lishga harakat qiladi, inson huquqlarini qimoya qilishga va mustahkamlashga qat'iy kafolat beradi.

Inson huquqlari umumbashariy va milliy davlat va huquq tushunchalarini o'zida mujassamlashtiradi. O'zbekiston o'zining boy va ko'p ming yillik ma'naviy-huquqiy merosiga asoslanib, inson huquqlarining umuminsoniy qadriyatlari hamda e'tirof etgan xalqaro huquq talablarini ta'minlash borasida muntazam ish olib bormoqsa.

Inson huquqlari aniq tarixiy va milliy o'ziga xos sharoitda tabiiy ravishda paydo bo'ladi va rivojlanadi. Shuning uchun ham o'zbek ma'naviy-huquqiy merosining ildizlarini chuqur bilish va idrok etish, O'zbekistonda inson huquqlarini o'ziga xos tushunishni va holatini to'g'ri talqin qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek ma'naviy-huquqiy merosining ildizlari qanday? Bizning ko'hna zaminda davlatchilik va huquq o'zining chuqur ildizlariga ega bo'lib, qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. O'zbek milliy davlatchiligi va huquqi paydo bo'lishi va taraqqiy etishi tarixiy solnomasi quyidagicha.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yilliqda hozirgi Markaziy Osiyo hududida yigirmaga yaqin qabilalar bo'lib, ular bir necha qabilalar ittifoqiga birlashgan edilar. Bular orasida bir necha qabilalarni birlashtiruvchi massagetlar alohida mavqei bilan boshqalardan ajralib turganlar. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining chuqur ildizlari ana shu massagetlarga borib taqaladi.

Eramizdan avvalgi XV-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududining asosiy qismi Ossuriya davlatining tarkibida bo'lgan, shu bilan bir- ga bu davrda mustaqil Xorazm davlati ham mavjud edi.

Eramizdan avvalgi VI asrning o'rtalarida Markaziy Osiyoda Ahmoniy podshohlarning hukmronligi o'rnatilgan.

Eramizdan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmida xorazmshohlar, keyinchalik sak qabilalari mustaqillikka erishganlar.

Eramizdan avvalgi IV asrning oxirgi choragida Xorazm davlatidan tashqari butun Markaziy Osiyo makedoniyaliklar tomonidan bosib olingan. Iskandar Zulqarnayn vafotidan so'ng, Markaziy Osiyo Salavkiylar davlati tarkibiga kiritilgan.

Eramizdan avvalgi III asr o‘rtasiga kelib, Grek-bakdriya podsholigi tashkil topib, uning tarkibiga Baqtriya, So‘g‘diyona, Marg‘iyona va Parkana (Farg‘ona) kirgan. Keyinchalik Markaziy Osiyo hududida Xorazm davlati bilan chegaradosh bo‘lgan Toxariston davlati tashkil topgan. Ko‘p o‘tmay u kichik-kichik davlatlarga bo‘linib ketgan.

Eramizning I-IV asrlarida Markaziy Osiyo hududi Kushon podsholigi tarkibida bo‘lgan. IV asrning oxirgi choragida Markaziy Osiyoda kichik-kichik davlatlar tashkil topgan.

V asr o‘rtalarida Markaziy Osiyo Eftalitlar davlati tomonidan bosib olingan.

VI asrning oxirgi choragidan arablar bosib olgunga qadar Markaziy Osiyo G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan.

VIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda arablar hukmronligi o‘rnatilgan. Arablar bizning o‘lkani Movarounnahr deb ataganlar.

IX asr oxiri X asr boshlaridan ikkinchi yarmigacha O‘zbekiston xududida Somoniylar, X asrning ikkinchi yarmidan Qoraxoniylar, XI asr boshlaridan Saljuqiylar saltanatlari mavjud bo‘lgan.

XII asrning o‘rtalarida Movarounnahrni qoraxitoylar o‘zlariga bo‘ysundirganlar. XII asrda Xorazm yana mustaqillikka erishgan.

XIII asr boshlaridan XIV asrning 60-yillari o‘rtalarigacha Movarounnahrda mo‘g‘ullar, XV asr oxirlarigacha Amir Temur va temuriylar, XVI asrdan Shayboniylar hukmronlik qilganlar. XVI asr oxirida O‘zbekiston hududida Buxoro va Xiva, XVIII asr boshlarida Qo‘qon xonliklari tashkil topgan.

Markaziy Osiyo XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olingan. Qo‘qon xonligi tugatilgan. Turki ston general-gubernatorligi tashkil qilingan. Buxoro va Xiva xonliklari ustidan Rossiya protektorata o‘rnatilgan. Hududimiz Turkiston o‘lkasi deb atala boshlagan.

1917 yilda “qizil imperiya” hukmronligi o‘rnatildi. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganidan boshlab O‘rta Osiyo iborasi qo‘llanila boshlandi.

1991 yil 31 avgustda O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishdi.

Demak, bizning yosh mustaqil o‘zbek davlatimiz o‘zida ko‘hna Sug‘diyona va Xorazmdan boshlab, Somoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va temuriylar davlatlarining davlat boshqaruv yutuqlarini, xalqimizning butun davlat-huquqiy tarixi tajribasini hamda uning o‘z milliy davlatiga va huquqiga ega bo‘lish kabi asriy orzularini mujassamlashtirgan. Ya’ni hozirgi o‘zbek davlati umumjahon va milliy davlatchilik va huquqiy taraqqiyot qonuniyatlarini o‘zida uzviy ravishda uyg‘unlashtiradi. O‘zbek davlati va huquqi o‘zining salkam 3 ming yillik tarixiga ega.

O‘zbekiston Ovro‘po va Osiyo ma’rifatparvar dunyosini, sivilizatsiyalarini birlashtiruvchi buyuk xalqaro yo‘llar kesishgan zaminda joylashgan. Ma’rifatparvarchilik davridagi ma’naviyatimiz shakllana boshlaganiga kamida 2,5 ming yil bo‘lgan. O‘zbeklar g‘oyat ko‘hna va ko‘pdan-ko‘p negizga-saklar, massagetlar, so‘g‘dlar, Kserks va Iskander Zulqarnayn, Salavkiy va ko‘p qabilali turklargacha bo‘lgan g‘oyat qadimiy va chuqur ildizli millat hisoblanadi. Ularning avlod-ajdodlari bundan ming yillar muqaddam shu tuproqda o‘troq bo‘la

boshlaganlar. O‘zbek elati shakllanishida o‘tmishda arablar va fors-tojik madaniyati namoyandalari, XIII-XIV asrlardagi mo‘g‘ullari hamda XV-XVI asrlardagi Chingizxonning chig‘atoy ulusi mo‘g‘ullari ham o‘zlarining bevosita ta’sirlarini ko‘rsatganlar. O‘zbeklarning ota-bobolariga, avlod-ajdodlariga hindlar, xitoylar, greklar tomonidan ham madaniy ta’sirlar bo‘lganini ko‘rish mumkin. Ta’bir joiz bo‘lsa, elat tarzida shakllangan bu o‘ziga xos gilamda uyg‘urlar, armanlar, lo‘lilar va o‘nlab boshqa nisbatan kam sonli milliy jamoalarga taalluqli, darhol ko‘zga tashlanmaydigan madaniy iplar ham to‘qilganligini aytish kerak. Yigirma asrdan ko‘proq davrdan beri Buxoro, Samarkand va boshqa shaharlarda bizning avlod-ajdodlarimiz bilan birga yahudiylar ham yashagan va yashab kelmoqdalar. X asrdan XV asrgacha Movarounnahr shaharlarida talaygina nasroniylar ham yashaganlar, boz ustiga mo‘g‘ul hukmdorlari Islom dinini qabul qilgunlariga qadar ommaviy ravishda ularga homiylik qilganlar.

XIX asr oxirlaridan e’tiboran Turkiston xalqlari orasiga ruslar va rus madaniyatidagi kishilar qo‘shildi.

O‘lkamizning mo‘g‘ullargacha bo‘lgan va temuriylar davridagi nomi - Movarounnahr uyg‘onishi haqida alohida to‘xtalib o‘tish darkor. Islom sivilizatsiyasi xalqimizning dunyoqarashini to‘ldirdi va boyitdi, bu xalq jahonga taniqli va bashariyat tomonidan tan olingan buyuk mutafakkirlarni yetkazib berdi.

Bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining asosi bo‘lmish milliy davlatchiligi, huquqiy tizimini qaytadan yaratmoqda, xalqimizning ma’naviyati kamol topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi demokratik-huquqiy davlat qurishga azmu qaror qilgan ekan, yuksak huquqiy madaniyat, Konstitutsiya va qonunga hurmat, itoatkorlik, milliy istiqlol mafkurasida muhim o‘rin egallamoqda. U o‘zida xalqimizning eng ardoqli fazilatlari - iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, hayo, uyat va andisha, or-nomus, eliga va yurtiga sodiqlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar va g‘oyalarni mujassamlashtirishga qaratgandir. O‘zbek xalqi asrlar mobaynida avaylab saqlab, sayqallab kelgan o‘z milliy urf-odatlari, rasm-rusumlari, udum va an’analari, g‘ururi, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, huquqiy ongi va madaniyati, e’tiqodi, qisqacha aytganda, madaniy-ma’naviy dunyosi bilan ajralib turadi. Buyuk allomalarimiz bashariyat ma’rifatparvarligini yaratishda bevosita ishtirok etganlar, ular jahon huquqiy sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shganlar. Ularning boy madaniy-huquqiy merosi hozirgi mustaqil huquqiy taraqqiyotimizning mustaqil poydevori bo‘lib hizmat qiladi.

**4. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni.** Huquqiy madaniyat nazariyasi o‘quv fani sifatida turli ijtimoiy va yuridik fanlar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu bog‘liqlik mazkur fanlar o‘rganish ob’ektining umumiyligidan kelib chiqadi. Ular o‘z predmeti doirasida jamiyat va madaniyat, davlat va huquq kabi ijtimoiy hodisalarni o‘rganadilar. Shu bilan birga, ularning har biri muayyan xususiyatga, o‘zi o‘rganadigan fan sohasiga ega.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fani ijtimoiy fanlar bo‘lmish falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik,

tarix kabi fanlar bilan ham bog‘liqdir. Ayni paytda huquqiy madaniyat nazariyasi bu fanlardan farq qiladi.

**Iqtisodiy fanlar va huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari.** Iqtisodiy fanlar bazis hisoblanuvchi hodisalarni o‘rganadi: ishlab chiqarish munosabatlari tizimi, xo‘jalik hayotini tashkil etish, xo‘jalik sohalari, mehnat, moliya, kredit va boshqalar. Huquqiy madaniyat nazariyasi o‘quv fani eng muhim ustqurmaviy hodisa - madaniyat va huquqni o‘zining asosiy predmeti hisoblaydi. Iqtisodiy fanlar va huquqiy madaniyatning o‘zaro ta’siri, ularning bir-biriga kirib borishi, huquqiy madaniyatning iqtisodiyotga qanchalik bog‘liq ekan- ligini aniqlashga imkon beradi.

**Falsafa va huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari.** Falsafa tabiat va jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Shu bois u jamiyat va madaniyat, davlat va huquq masalalarini umumiy tarzda, ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqadi.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fani falsafaning xulosalariga tayangan holda, huquqiy madaniyat muammolarini konkretlashtiradi hamda bir qator maxsus nazariy masalalarni o‘rganadi. Bunda falsafa va huquqiy madaniyat nazariyasi bir-birini takrorlamaydi, aksincha, to‘ldiradi.

Falsafa borliqning ongga, insonning uni o‘rab turgan atrof-muhitga munosabatining umumiy prinsiplari haqidagi bilimlar tizimidir. Falsafa huquqiy madaniyatning mohiyati, tabiati, uning ijtimoiy hodisalar tizimidagi o‘rnini aniqdaydi va faqat shuning o‘zi bilan cheklanadi. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fani esa huquqiy madaniyatni uning barcha ko‘rinishlari va belgilari bilan bir butun holda batafsil o‘rganadi. Agar falsafa huquqiy madaniyatning mohiyatini topish kalitini bersa, huquqiy madaniyat nazariyasi falsafani ijtimoiy taraqqiyot, huquqiy madaniyatning umumiy tamoyillarini ifodalash bilan qurollantiradi.

Sotsiologiya va huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. Sotsiologiya jamiyatning yaxlit va uning alohida tuzilish va ijtimoiy guruhlari to‘g‘risidagi, sotsial jarayonlar, alohida shaxslar va guruhlar xulq-atvorining qonuniyatlari haqidagi fandir. Sotsiologiya o‘zining xulosalarida empirik ma’lumotlarga, ijtimoiy tajribalarga asoslanadi. Barcha ijtimoiy hodisalar, shu jumladan, huquqiy madaniyat ham sotsiologik tadqiqotlarning ob’ektiga aylanadi. Sotsiologiya ham, falsafa singari, huquqiy madaniyatni bilishning umumiy vositasi hisoblanadiki, u huquqiy madaniyatni bilish asosida o‘zining predmetini chuqurlashtiradi va yanada oydinlashtirib oladi.

Siyosatshunoslik va huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. Siyosatshunoslik siyosatni, uning shakllarini, siyosiy jarayonlar va siyosiy birlashmalarni, shu jumladan, partiyalarni, siyosiy va davlat hokimiyatiga erishish vositalari, fuqarolik jamiyati, davlat va shaxsning o‘zaro munosabatini o‘rganadi. Siyosatshunoslik inson siyosiy madaniyati munosabatlar tizimi orqali, ya’ni fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish orqali o‘rganadi.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining barcha ijtimoiy fanlar bilan aloqasi ham shu kabi ikki tomonlamadir.

Yuridik fanlar va huquqiy madaniyat nazariyasi o‘ziga xos predmetga ega. Yuridik fanlar, birinchi navbatda, huquqiy madaniyatning yuridik sohalari va ular amaliyotining tahlili, ya’ni huquqiy madaniyatning shakllanishi, mustahkamlanishi, amalga oshirilishi bilan shug‘ullanadi. Unda huquqiy madaniyat haqidagi ta’limot fuqaroning huquqiy maqomi asosida yoritiladi. Fuqaroning ququqiy holati-insonning yuridik jihatdan ifodalanishining asosidir.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fani yuridik fanlar bilan yaqin aloqadorlikdadir.

Avvalambor, davlat va huquq nazariyasi umummetodologik nazariy fan sifatida huquqiy madaniyat nazariyasi uchun poydevor hisoblanadi. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari davlat va huquq nazariyasi doirasidagi mustaqil ilmiy yo‘nalishdir.

Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. U o‘z predmeti doirasida huquqiy madaniyat tushunchasi va mohiyati, ahamiyati va vazifalarini talqin qiladi. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari davlat va huquq nazariyasi xulosalariga tayanib, huquqiy madaniyat muammolarini aniqlashtiradi hamda davlat va huquq nazariyasi tomonidan o‘rganilmaydigan maxsus nazariy va amaliy masalalarni qarab chiqadi.

Shunday qilib, huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari yangi fan bo‘lib, u huquqiy madaniyat bo‘yicha muayyan nazariyani ishlab chiqishda ko‘pchilik ijtimoiy va yuridik fanlarning nazariy qoida va xulosalariga tayanadi va udarni rivojlantiradi.

### Tayanch iboralar:

Huquqiy madaniyat, tarbiya, tarixiy huquqiy me’ros, kibernetik metod, qiyosiy metod, taixiy metod, mantiqiy metod.

## 2-Mavzu: Huquqiy madaniyatning asosiy tushunchalari.

### Reja:

1. Huquqiy madaniyat tushunchasi.
2. Huquqiy madaniyatning funksiyalari.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanining asosiy masalalaridan biri0 “huhuqiy madaniyat nima” degan savolga javob berishdir. Bu savolga javob berish uchun huquqiy madaniyat haqidagi bilim shakllarini tahlil qilish, huquqiy madaniyat tushunchasini o‘rganadigan masalalar doirasini belgilash va asosiy tushunchalariga to‘xtalib o‘tish zarur.

Shu bois ran huquqiy madaniyatning aniq hodisalari haqida bo‘lmay, balki, huquqiy madaniy qadriyatlar haqidagi bilimlarning shakllanish jarayoni haqida, demokratik hukuqiy davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatining shakllanishi sharoitida amalga oshiriladigan qadriyatlar uchun zarur bo‘lgan huquqiy vositalar tizimining tahlili haqida boradi.

Madaniyatning umumiy ta’rifiga nazar tashlasak, bugungi kunda ijtimoiy fanlar doirasida «madaniyat» tushunchasi kabi turli-tuman, qarama-qarshi talqin va fikrlarga boy bo‘lgan boshqa ijtimoiy hodisani topish qiyin.

Misol tariqasida shuni keltirish joizki, chet ellik olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, 1919 yilga qadar “madaniyat” tushunchasiga yettita ta’rif berilgan, 1950 yilga kelib bu son 164 taga, 1970 yillarda esa - 250 taga yetgan[1]. Amerikalik olimlar A. Kreber va K.Klakxonlar esa 1950 yillarning boshida “madaniyat” tushunchasining 257 ta ta’rifi mavjudligini ta’kidlaganlar[2].

Shu bilan birga huquqiy madaniyatning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash masalasiga oid ijtimoiy va yuridik tadqiqotlar huquqiy madaniyat xususiyatlarining rivojlanishini ko‘rsatishga e’tibor bera boshladi.

Jahon fanlari miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

birinchidan, antropologik yondashuv;

ikkinchidan, sotsiologik yondashuv;

uchinchidan, falsafiy yondashuv[3].

Antropologik yondashuvda madaniyat tabiat yaratgan narsalardan farqli ravishda, inson tomonidan yaratilgan ne’matlarning yig‘indisi sifatida tushuniladi.

Sotsiologik yondashuv esa madaniyatni ma’naviy qadriyatlar sifatida talqin etadi. Bu yerda madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi.

Va nihoyat, falsafiy yondashishda madaniy hodisalar ijtimoiy rivojlanishga bog‘liq bo‘lmagan, sof tahliliy holda ajratilib ko‘rsatiladi.

Antropologik yondashishning ijobiy tomoni uning keng ko‘lamligi hisoblanadi, chunki madaniyat ijtimoiy hayotning xilma-xil tomonlari va doiralarining namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Uning afzalligi hozir juda keng tarqalgan tor amaliyot va ko‘p hollarda “madaniy” va “huquqiy madaniyat” ni vaziyatga qarab ishlatish hollari bilan taqqoslanganda yanada ravshanroq ko‘rinadi. Biroq, keng ko‘lamli yondashish jiddiy kamchiliklardan holi emas.

U inson faoliyati natijalarining ob’ektiv holatini yuzaki, umumiy aniqlashga mo‘ljallangan. Bundan tashqari, ushbu natijalarni qadriyatlar sifatida tavsiflaganda, havola antropologik yondashuv qadriyatlarga nimalar kirishini belgilaydigan mezonlarni aniqlab bermaydi. Bu fikrlar bilan huquqiy qadriyatlarni ajratish mumkin emas, chunki huquqiy qadriyatlarsiz huquqiy madaniyatni tushunib bo‘lmaydi.

Madaniyat haqidagi tasavvurlarning rivojlanish jarayonida ijobiy rol o‘ynaydigan, ushbu ijtimoiy hodisaning taxdili ikkita boshqa usul bilan to‘ldirilishi lozim. Ulardan birinchisi, madaniyatning ijobiy faoliyat jarayonini anglashda namoyon bo‘lsa, ikkinchisi, inson faoliyatining o‘ziga xos usulidir. Madaniy faoliyatga umumiy izoh berish ular uchun umumiy bo‘lib, lekin ushbu izoh berish usuli ko‘pincha o‘xshash bo‘lavermaydi.

Birinchi usulda, madaniyat insonning takomillashish, amal qilish va ma’naviy ishlab chiqarish jarayoni orqali taxdil qilinadi. Ikkinchi fikr vakillari

---

[1] Fischer Hugo. Theorine der Kultur. Das kulturelle Kraftsteld. Stuftgait, 1965; Боль А. Социология культуры. М., 1973. - С.35.

[2] Kroeber A, Kluchonu C. Cullture // Anaeitical Review of Concepts and Debinifions. Cambride: Maas., 1952. P. 57-58.

[3] Сальников В.П. Социалистическая правовая культура. - Саратов, 1989. 5- 12-бетлар.

madaniyatning umumiy modelini ijtimoiy hayotning universal xususiyati sifatida qarashni taklif etadilar.

Madaniyatni shaxc rejasi sifatida qarash, nazarimizda, zamonaviy huhuqiy madaniyatshunoslikning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi va shaxsning huquqiy madaniyati muammolarini tadqiq etishni rag‘batlantiradi.

Umuman, madaniyatga bag‘ishlangan aksariyat ilmiy ishlar hozirgacha shaxs muammosiga taalluqlidir.

Madaniyatga boshqacha yondashish tarafdorlari uni ijtimoiy hayotning universal xususiyati sifatida qarab, uning amal qilishi va rivojlanishini taxdil qilishga aloxdda e’tibor beradilar. Ushbu maqsadlarda ular etnografiya, arxeologiya, antropologiya, sotsial boshqaruv kabi tadqiqot amaliyoti sohalarining mo‘tadil taxdil tamoyiliga murojaat etadilar. Ular tomonidan olingan ko‘rsatkichlar inson ijodiy faoliyati madaniy cho‘qqisining ma’nosini chuqur anglashga yordam berdi.

Madaniyatni madaniy faoliyat orqali ko‘rish shaxs muammolari bilan maxsus shug‘ullanuvchi mualliflarga xosdir. Ushbu yo‘nalish vakillarining qarashlarida bir qancha qarama-qarshiliklar borligiga qaramay, ular madaniyatni insonning tarixiy ijodiy faoliyati nuqtai nazaridan taxdil qilish va ushbu faoliyatni uning sub’ekta sifatida rivojlantarishdir. Ushbu yondashishda madaniyat taraqqiyoti ijtimoiy faoliyatning istagan sohasidagi shaxsning rivojlanishiga to‘gri keladi.

Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanini o‘rganishda umummilliy boshlang‘ich talablarni tahlil qilib, huquqiy madaniyatni aksiologik tahlilsiz tasavvur etash mumkin emas. Aksiologik yondashuvsiz huquqiy madaniyatni to‘g‘ri anglash mumkin emas. Huquqiy madaniyat sohasiga tegishli voqealarni ajratab, tanlab olingandan keyin, ushbu voqealarga amal qilish va takomillashtirish qonuniyatlarini bilishda, albatta, aksiologik tahlil kerak. Faqat uning yordamida huquqiy madaniyatning har bir voqeasiga holis baho berish, uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini aniqlash mumkin.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish tamoyillarini hisobga olish zarur.

Huquqiy madaniyatning hayotiyligi va kuchi shundaki, u inson huquqiy tafakkurini shakllantirishning muhim vositasi va natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Huquqiy madaniyat jamiyat va shaxsning huquqiy holati timsolida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan alohida ijtimoiy hodisadir.

Huquqiy madaniyat nazariyasiga oid barcha muammolar atroflicha o‘rganilishi zarur. Shu bilan birgalikda har bir muayyan holatlarda madaniyatning turlicha ko‘rinishlarini tushunishda qat’iy belgilanadigan u yoki bu jihati ustun bo‘ladi. Chunonchi, huquqiy hayotda, ma’rifatparvarlikning shakllanishini ta’minlashda inson omilini oshirish nuqtai nazaridan yondashilganda, avvalambor, e’tiborni huquqiy madaniyatning mazmuniga qaratish zarurligi namoyon bo‘ladi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirishning va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turi sifatida ko‘riladi. Mohiyati jihatidan, bu uning huquqiy tafakkur, yuridik texnika (uslubiyat) va huquqiy tajribaning

mujassamlantirilishidir. U amal qilayotganda va uning tarkibiy qismlari rivojlantirilayotganda huquqning o‘ziga, huquqiy amaliyot, huquqiy munosabatlarga, qonuniylik va huquqiy tartibotga, huquqiy ijodkorlik va huquqni ko‘llash, shuningdek, boshqa huquqiy faoliyatlarga, butun ijobiy huquqiy borliqha singib ketadi.

Huquqiy madaniyat insonsiz va uning dunyoqarashini belgilovchi faoliyatsiz, bunday faoliyat va tafakkurning progressiv yo‘nalishisiz mavjud bo‘la olmaydi. U bu yerda huquqiy reallikning haqiqiy amal qilishi va rivojlanishidagi muhim jihatlarini qamrab oluvchi, aniq belgilangan maqsadlari yo‘naltirilgan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, huquqiy vositani qo‘llashga - shaxs va jamiyatni progressiv rivojlantirishga alohida e’tibor berish muhimdir. Huquqiy madaniyat faqat ijtimoiy taraqqiyot doirasidagina to‘liq holda tushunilishi mumkin. Haqiqiy huquqiy madaniyat tarixiy ijobiy huquqiy tajribani e’tiborga olmasdan mavjud bo‘la olmaydi.

“Jamiyatning huquqiy madaniyati” tushunchasi ko‘pincha huquqiy voqelikning qimmatli bo‘lagi, uning olg‘a qarab rivojlanishining darajasi sifatida namoyon bo‘ladi. U ilg‘or va ijobiy ma’rifatparvarlik huquqiy qadriyatlarini qamrab oladi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati shaxs erkinligi va xavfsizligi, inson huquqlarini ta’minlash, uning huquqiy himoya etilishini va ijtimoiy faolligini kafolatlash uchun zamin bo‘lib hisoblanadi.

Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir Bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi, natijada shaxsning va jamiyatning doimiy huquqiy boyishi sodir bo‘ladi. Shubhasiz, shaxsning yuksak huquqiy madaniyati jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydi. U insonning bilimdonligi bilan yaqindan uyg‘unlashib ketadi. Shaxsning huquqiy ongiga nisbatan umumiy va o‘ziga xos jihatlar ham mavjuddir. Bu, shuningdek, huquqiy tarbiyaga ham bog‘liqdir.

Shaxsning huquqiy madaniyati - jamiyat huquqiy madaniyatining zaruriy shart-sharoiti va ilk bunyodkori, uning maqsadi va tarkibiy qismidir. Shu bilan birga u shaxsning o‘zining qonuniy faoliyat darajasida aks etuvchi huquqiy rivojlanishining jihati hamdir. U jamiyat huquqiy holati muayyan darajasiga bog‘liq holda uning muhim negizini tashkil etadi va uning asosida yotadi. Shaxsning huquqiy madaniyati amaliyotda uning ijobiy huquqiy ongini taqozo qiladi. U huquq sohasida jamiyatning progressiv yutuqlariga mos keluvchi ijodiy faoliyatni tashkil etib, natijada shaxsning doimiy huquqiy boyishi ro‘y beradi.

Shunday qilib, shaxsning va jamiyatning huhuqiy madaniyati umuminsoniy qadriyatlar tushunchalarining va insoniyat umumdemokratik yutukdarining muhim natijasidir. Huhuqiy madaniyat - huquqiy davlatning ajralmas qismidir.

**2. Huquqiy madaniyatning funksiyalari.** Huquqiy madaniyat bir necha maxsus funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalar quyidagilardan iborat:

- regulyativ funksiya;
- normativ funksiya;
- sotsiologik huquqiy funksiya;
- kommunikativ funksiya;

- prognostik funksiya.

**Huquqiy madaniyatning regulyativ funksiyasi** demokratik huquqiy davlatni shakllantirishni va adolatli fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni ta’minlovchi nazariy va tashkiliy faoliyat bilan bog‘liq. Bu funksiya umumiy va shaxsiy manfaatlarni insoniyat ijtimoiy rivojlanishining markaziga qo‘yish, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun muhit yaratish, unga zarur mehnat va hayot sharoitini yaratish, siyosiy erkinligini ta’minlashga yordam beradi. Bu funksiya umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan huquqiy va ma’naviy kafolatlarni, ya’ni rostgo‘ylik, insof, diyonat, ezgulik, shafqat, vijdon, insoniy qadr-qimmat va tanlov erkinligini qamrab oladi.

Huquqiy madaniyatning regulyativ funksiyasi huquqiy tizimning barcha elementlarining barqaror va batartib harakatlanishini ta’minlashga yo‘naltiradi.

Huquqiy madaniyat uzviy bir butunlikdagi huquqiy ong va borliqning tarkibiy qismi sifatida maydonga chiqar ekan, u butun insoniy borliqni aks ettiribgina qolmay, balki unga faol qayta ta’sirini ham maqsad qilib qo‘yadi. Unga xos qadriyatlar, huquqiy normalar, tamoyillar va hulq-atvor namunalari fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar birdamligiga, ularning kuchini huquqiy davlatni vujudga keltirishga yo‘naltirishga, to‘plashga yordam beradi.

Huquqiy madaniyat odamlarning ijtimoiy birlashuvini ta’minlashi mumkin. U faqat fuqarolarga, o‘zaro huquqiy muloqotga kirishuvchiga imkoniyat yaratib bermasdan, balki ularning o‘zaro munosabatlarini boshqaradi. Huhuhiy madaniyatning regulyativ funksiyasi huquqiy va boshqa sotsial normalar orqali amalga oshadi. Ushbu funksiya sharofati bilan huquqiy madaniyat odamlarni ularning faoliyatida belgilangan qoidalarga sotsial intilish va ideallari, ehtiyojlari va manfaatlarining huquqiy munosabatlarda o‘zaro huquq va majburiyatlarining amalga oshuvini ta’minlaydi, bu munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi.

Huquqiy madaniyatning normativ funksiyasi aksiologik tavsiflar tizimi yordamida aks ettiriladi. U turli xodisa va faktlarda ma’lum bir ahamiyat kasb etgan ongli shaxslar harakatida o‘z aksini topadi. Shundan kelib chiqqan holda huquqiy normalar boshqa jamiyatning huquqiy madaniyatini tashkil qiluvchi elementlar baholovchi ob’ekt sifatida maydonga keladi. Bu yerda so‘z huquqdagi ahamiyat to‘g‘risida borganligi kabi, huquqning o‘zining ahamiyati sifatida ma’lum bir ma’no kasb etishi to‘g‘risida ham bormoqda.

**Huquqiy madaniyatning normativ funksiyasi** huquq normalarida nazarda tutilgan harakat namunalariga mos holda atrof huquqiy voqelikni o‘zgartirishga erishilgan natijaga nisbatan munosabatda o‘z aksini topadi. Huquqiy madaniyatdagi baholovchi faoliyat shaxs, huquq xizmatchilari jamiyati, qonunchilik, huquqiy tartib-intizom, huquqiy munosabatlar, huquqiy boshqaruv mexanizmi (tegishli huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan) «o‘lchovidan» tashkil topadi. Huquqiy reallik aniq yuridik hodatdan huquqiy tizimgacha eng keng ko‘lamda baholanadi. Huquqni, aniq huquqiy normalarni, fuqarolar xulq-atvori, huquqni buzishga qarshi kurash olib boruvchi huquqni himoya qiluvchi organlar faoliyatini o‘z ichiga oladi.

**Huquqiy madaniyatning sotsiologik funksiyasi** shaxsning huquqiy sifatlarining shakllanish tizimi orqali o‘rganib chiqilishi mumkin. So‘zsiz, bunday

jarayonga huquqiy voqelik ma'lum bir ta'sir o'tkazadi. Shu bilan birga, maqsadli huquqiy tarbiyaviy ishlarni olib borish, aholining huquqiy ta'limini tashkil qilish chorasini ko'rish, ularga yuridik yordam ko'rsatish, shaxsning o'zini o'zi tarbiyalash jarayonini faollashtirish zarur.

**Huquqiy madaniyat kommunikativ funksiyani ham bajaradi.** U fuqarolarning huquqiy doiradagi muloqotini ta'minlar ekan, shu muloqat orqali mavjud bo'ladi va ta'sir etadi. Bu yerda fuqarolarning faqat huquqiy harakat doirasidagi bevosita muloqoti nazarda tutilibgina qolmasdan, balki ularning biz shaxsan notanish bo'lgan, bizdan makon va zamonda muayyan oralikda bo'lgan tengdoshlarimiz, o'tmish avlodlarimiz bilan bevosita "muloqoti" nazarda tutilmoqda. Bunday muloqot yozma yuridik asarlar vositasi bilan ta'minlanadi va bugungi kunda u ommaviy axborot vositalarining takomillashuvi bilan yanada rivojlanadi. Huquqiy muloqot sub'ektlararo o'zaro ta'sir formulasi bo'lib, huquq doirasida erkin va kamyob mohiyat sifatida maydonga chiqadi.

Bu funksiyani o'zlashtirish huquqiy madaniy merosga, zamonaviy huquqiy madaniyatning boshqa ko'rinishlariga nisbatan munosabatimizni belgilaydigan turli asarlardagi huquqiy madaniyatni o'zlashtirishga yordam beradi.

Har bir jamiyatning huquqiy madaniyati boshqa jamiyat huquqiy madaniyatning o'zaro tavsirisiz muvaffaqtiyatli rivojlana olmaydi. Mamlakatimizning sovetlar davrida madaniyatni cheklashga urinish, jumladan boy tarixiy, huquqiy merosimizdan uzishga intilish va zamonaviy davlatlar madaniy-huquqiy hayoti bilan har qanday aloqani cheklashga urinish qanday achinarli oqibatlarga olib kelgani ma'lum.

Huquqiy madaniyat o'zida hozirgi va o'tmish davr huquqiy madaniyati ilg'or yutukdari hamma turlarini to'plashi lozim. Huquqiy madaniyatning kommunikativ funksiyasi oxir oqibatda fuqarolarning g'oyaviy-huquqiy aloqalarini jamiyat takomillashuvi va huquqiy tajribasi meros qilib qolishini ta'minlaydi.

Huquqiy madaniyatning kommunikativ funksiyasi faqat «bugungi» huquqiy boshqaruv doirasida tashkil topibgina qolmaydi. U huquqiy madaniyatning rivojlanishini rejalantirish va prognozlashtirish, huquqiy madaniyat qurish va rivojlanish uchun zaruriy element sifatida yuzaga keladi.

**Huquqiy madaniyatning prognostik funksiyasi** huquqiy ijodkorlik va huquqni qo'llashni qamrab oladi, qonunlar va huquqiy tartibotni mustahkamlashni, fuqarolarning huquqqa mos xatti-harakati, faolligi va boshqalarni, butun huquqiy tizim uchun xos bo'lgan an'analarni tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda ilmiy prognozlash va rejalashtirishning elementlari, masalan qonunchilik faoliyatida kuchayib bormoqda, chunki qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilishni rejali ravishda amalga oshirish zarur.

Huquqiy madaniyat bashoratlar (oldindan aytib berish) ehtimoli bo'lgan o'ziga xos qadriyatlardan iborat. Bunday hollarda hatto ma'lum darajadagi noanikdik yetarli asoslangan bashorat qilish imkoniyatini cheklab qo'yadi.

Huquqiy madaniyatga bevosita aloqador bo'lgan juda ko'p qarama-qarshiliklarga duch kelish mumkin. Bularning hammasi, albatta, huquqiy madaniyatga ta'sir qiladi. Ana shuning uchun huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha qonunchilik va huquqiy tizimdagi mavjud ziddiyat va qarama-

qarshiliklarni bartaraf qilmasdan, shaxsni har tomonlama huquqiy kamol toptirish mumkin emas.

Huquqiy madaniyat sivilizatsiyaning rivojlanishiga, tartibga solinishiga, yaxshilanishiga turtki bo‘ladi. Huquqiy madaniyat - bu dinamik holat. Unda ma’naviy boyliklar nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Shaxsniki kabi, jamiyatning huquqiy madaniyati ham ma’naviyliksiz bo‘lishi mumkin emas. Jamiyatimizda umumbashariy qadriyatlarni tiklash yuqori umuminsoniy madaniyatning ajralmas elementini, mamlakatimiz huquqiy madaniyati elementini ham tashkil qiladi.

Huquqiy madaniyat mamlakatimiz ideallariga xizmat qilganligi uchun emas, balki unda umuminsoniy ideallar, adolat o‘z aksini topgani uchun qadrlidir. Agarda huquqiy madaniyat bu ideallardan uzoqlashsa, unda u sivilizatsiyani va huquqni xurmat qilishga xizmat qiladi.

## 3-mavzu: Huquqiy madaniyatning tuzilishi.

**Reja:**

1. Huquqiy madaniyat va taraqqiyot.
2. Huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlari:

a) huquq - huquqiy madaniyat negizi;
b) huquqiy munosabatlar - amaldagi huquqiy madaniyat;
v) yuridik muassasalar;
g) huquqiy ong;
d) huquqiy xatti-harakat.

Huquqiy madaniyat tuzilishini, uning mohiyatini adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat qurishda tutgan o‘rni va vazifasini aniqlagan holda ko‘rib chiqish kerak. Bunda faqattina uning elementlarini sanab o‘tish va umumiy tavsifi bilan cheklanib qolmasdan, ushbu elementlarning o‘zaro munosabatlarini ularning yaxlitligini, uzviy birligini ko‘rsatgan holda hamda ular orasidan asosiy elementlar va ikkinchi darajali elementlarni ajratib ko‘rsatgan holda anikdash talab qilinadi.

Huquqiy voqelikning turli jihatlari huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlari bo‘lib hisoblanadi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati quyidagi qismlardan tashkil topadi:

birinchidan, yuridik normalar tizimi bo‘lmish huquq;

ikkinchidan, huquqiy munosabatlar, ya’ni qonun bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar tizimi;

uchinchidan, huquqni muhofaza qilish va ta’minlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi davlat va jamiyat institutlari tizimi bo‘lmish yuridik muassasalar;

to‘rtinchidan, huquqiy ong, ya’ni huquqiy voqelikni ma’naviy jihatdan aks ettiruvchi tizim;

beshinchidan, huquqiy xatti-harakat (ham qonuniy, ham qonunga xilof).

Ko‘rib turganimizdek, huquqiy madaniyat ijtimoiy ong va ijtimoiy amaliyotning ko‘p jihatli holati bo‘lib, jamiyatni tavsiflovchi barcha huquqiy jihatlarning sintezidir.

Jamiyatning huquqiy madaniyatini tashkil etuvchi elementlar bir vaqtning oʻzida boshqa xil tuzilmalarga ham kiradi. Undan tashqari huquqiy madaniyat elementlari bir necha tizimlarning tarkibiy qismlari boʻlib hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatning tuzilishini tahlil etganda asosiy e’tiborni uning tabiatiga qaratish kerak. Agar kishilik faoliyati shakllarining huquqiy madaniyatda tutgan oʻrnini anikdashga harakat qilinsa, avvalambor, ikkita sohani nazarda tutish kerak: birinchidan, bevosita huquqiy sohadagi faoliyat va ikkinchidan, huquqiy harakterda boʻlmagan, lekin huquq amal qiladigan soha bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat. Birinchisini tushunishda gʻoyatda an’anaviy boʻlmagan yoʻnalishlar namoyon boʻlsa-da, alohida qiyinchiliklar uchramaydi. Ikkinchisining mazmunini ishlov berish, ya’ni badiiy shaklda boʻlgan huquqiy gʻoyalarni, qarashlarni, baholarni, hissiyotlarini va hokazolarni aks ettiradigan qandaydir asarlar tashkil etadi. Bu faoliyat bevosita huquqiy madaniyatga kirmaydi, lekin oʻz gʻoyaviy mazmuni jihatidan unga singib ketadi. Shunday qilib, radio, televidenie, adabiyot, tasviriy san’at, kino, jurnalistika oʻzicha huquqiy madaniyatga kirmaydi, lekin doimiy ravishda uni toʻldirib boradi.

Huquqiy madaniyatning yuqorida ta’kidlagan elementlari uning mazmuniga toʻla mos kelmaydi. Ammo ular jamiyatning huquqiy madaniyati darajasini ifodalaydi. Uning mazmuni esa faqat hukuqiy ong, huquq, qonuniylik kabilarnigina emas, balki uning rivojlanish darajasini, mikdorini, ya’ni sivilizatsiyaning, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi nimalarni bersa, hammasini qamrab oladi.

Endi huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlarini batafsil koʻrib chiqamiz.

**a) Huquq-huquqiy madaniyat negizi.** Yuqorida ta’kidlaganimizdek, huquqiy madaniyatning eng birinchi va asosiy tarkibiy qismi huquqdir. Hozirgi vaqtda Oʻzbekiston huquqi jiddiy va tub oʻzgarishlarga uchraganligi bilan ajralib turadi.

Qonunlarda, davlat huquqiy tuzilishida, huquqiy tartibga solish va huquqiy madaniyat institutlari hamda mexanizmlarida koʻz oʻngimizda yuz berayotgan oʻzgarishlar shunchalar jadal va chuqurki, huquqiy rivojlanishning olamshumul, strategik istiqbollari va maqsadlari toʻgʻrisida oʻylash, mamlakatimizda yuz berayotgan huquqiy islohotlarni jahondagi huquqiy rivojlanish jarayoni bilan “moslashtirish”, unda Oʻzbekistonning oʻrnini hamda ushbu oʻringa mos islohotchilik yoʻnalishlari va maqsadlarini aniqlash zarur.

Bizning milliy ququqiy tizimimiz butunlay yangi asosda, jahon huquqiy jarayonining yutugʻi boʻlgan demokratik prinsiplar negizida yangitdan yaratilganligi shubhasiz. Konstitutsiyadan boshlab deyarli barcha qonunlarimiz tub oʻzgarishga uchradi. Qonunlarimizda huquq mustaqil demokratik davlatning huquqi boʻlgan bugungi kun voqeligi hisobga olindi. Oʻzbekiston qonunlarida xalqaro huquqning jahonda tan olingan prinsiplari va normalari oʻz ifodasini topdi va mustahkamlandi. Ular rivojlangan mamlakatlar huquqiy tizimining ilgor yutuqlarini davom ettirdi, qadimiy mamlakatimizning tarixiy-huquqiy tajribasini qamrab oldi.

Yangi Konstitutsiyaning, Fuqarolik, Jinoyat, Fuqarolik-protsessual, Xoʻjalik-protsessual kabi oʻnta asosiy kodekslarning hamda taxminan uch yuz

qonunning qabul qilinishi milliy huquqiy tizimimizning mohiyati va mazmunini tubdan oʻzgartirib yubordi. Xususiy mulk instituti, shaxsiy manfaatlarning davlat manfaatlaridan ustunligi kabi yangi huquqiy institutlar va tushunchalar yuzaga keldi.

Shu bilan Oʻzbekiston sud-huquqiy islohoti hali yakunlanmadi, binobarin, ilgarigi huquqiy tizimga xos kamchiliklar va belgilar boʻlishi tabiiy.

Huquqda hali kamchiliklar va ziddiyatlar bor, ayrim qonun hujjatlarining tartibga soluvchi kuchi kam. Bugungi kunda qonun ijodkorligi faoliyati huquqiy amaliyot sahnasiga chiqmoqda.

Milliy huquqiy tizimning asosini Konstitutsiya va qonunlar tashkil etadi. Shu munosabat bilan shaxs huquqiy maqomining barcha tomonlarini, uning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishni faqat qonun tartibga solishini belgilovchi talablarni hayotga qat’iy va izchil joriy etish favqulodda muhim va dolzarb masaladir. Qonun ijodkorligi amaliyoti esa, ayniqsa idoraviy boshqaruv, ushbu huquq va erkinliklarning bilvosita cheklanishiga yoʻl qoʻymoqda, ularni amalga oshirishga toʻsqinlik qilmoqda.

Qonun ijodkorligi faoliyatini tartibga solish maqsadida Oliy Majlis qoshida qonun ijodkorligi strategiyasini belgilash bilan shugʻullanadigan, qonun loyihalarini ishlab chiqib, ekspertizadan oʻtkazadigan Qonunchilik ilmiy tadqiqot institutini tashkil etish zarur deb hisoblaymiz. Amaldagi qonunlar monitoringi instituti esa parlamentga qonunlarning ijro etilishini nazorat qilishda yordam berishi, sotsiologik tadqiqotlar oʻtkazishi, qonunlarni oʻzgartirishga doir takliflarni ishlab chiqishi kerak.

Shunday qilib, huquqiy madaniyatning tarkibiy qismi boʻlgan huquq tub islohot bosqichini boshdan kechirmoqda, unga muayyan kamchiliklar va nuqsonlar xosdir. Umuman olganda esa, bu demokratik, huquqiy tafakkurning ilgʻor yutuqlariga asoslangan huquqdir. Shuni alohida ta’kidlash mumkinki, huquqiy davlat qonunchiligining asosiy bazasi, negizi yaratalgan, endigi vazifa esa ularni takomillashtirish, chuqurlapggarish, mufassallashtorish, roʻyobga chiqarish va qoʻllashdan iborat.

**b) Huquqiy munosabatlar - amaldagi huquqiy madaniyat.** Huquqiy madaniyatning ikkinchi elementa huquqiy munosabatlardir. Yuridik adabiyotlarda huquqiy munosabat huquq normalari bilan tartabga solingan ijtamoiy munosabatlardir, degan fikr keng tarqalgan. Binobarin, huquqiy munosabat, birinchi navbatda, yuridik normalarni amalga oshirishning, huquq amal qilishining natijasidir. Aynan huquqiy munosabatlar orqali huquq “yashaydi”, amal qiladi. Huquq sub’ektlarining huquqiy imkoniyatlari va yuridik majburiyatlarini amalga oshirishning haqiqiy manzarasini aynan huquqiy munosabatalarning yuzaga kelishi koʻrsatadi. Huquqiy munosabatlar sub’ektlarining huquqiy pozitsiyasi va moʻljallari, yuridik sohadagi tashabbuslari va faolliklari, xatta-harakatlari yuridik shakllarini afzal bilish darajasi birgalikda ularning huquqiy madaniyatoni belgilab beradi.

Huquqiy munosabatlar, ijtimoiy-foydali yoki salbiy yuridik fakt munosabata bilan yuzaga kelganligiga qarab, jamiyat huquqiy madaniyatining koʻrsatkichi boʻladi. Aytaylik, oila qonunlarida mustahkamlangan nikohdan oʻtish imkoniyati

kamdan-kam hollarda aniq huquqiy munosabatlarda amalga oshadi va o‘z amaliy ifodasini topadi. Bu jamiyat huquqiy madaniyatining nafaqat yuridik, balki ijtamoiy qadriyat bo‘lgan mazkur normani hali qabul qilmaganligidan dalolat beradi. Axir ushbu normani keng qo‘llash er-xotin o‘rtasida yuzaga keladigan juda ko‘p fuqarolik-huquqiy kelishmovchiliklar- ning oldini olishga, ular bo‘yicha uzoq davom etuvchi tortashuvlarga yo‘l qo‘ymaslikka, ayrim hollarda esa ajralishlar negizida sodir etilayotgan jinoyatlarning oldi olinishiga imkon bergan bo‘lardi.

Huquqbuzarliklarning, huquqni qo‘llash va boshqa yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarning mikdori ham jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatini ko‘rsatadi. Huquqiy munosabatlar, bir tomondan, jamiyat ijtimoiy va huquqiy rivojlanishining darajasi bilan belgilanadi, boshqa tomondan esa, uning huquqiy madaniyati va hukuqiy ongini aks ettiradi.

Huquqiy munosabatlar ahvoli va rivojlanishini tahlil etish qonunlarning rivojlanishi va takomillashishi, yuridik harakatlarning yaxshilanishi, huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligining yuksalishi bilan huquqiy munosabatlar qonun bilan tartibga solingan shunchaki yjtimoiy munosabatlardan huquq sub’ektlarining o‘z huquqlari va manfaatlarini amalga oshirish maqsadida munosabatga kirищishlarining o‘ziga xos shakliga aylanadi, deya taxmin qilishga imkon beradi. Ijtimoiy hayotning huquqiylaiguvi ijtimoiy munosabatlarning tobora ko‘proq miqdori huquqiy xususiyatga ega bo‘la borishiga, huquqiy munosabatlar shaklini ola boshlashiga olib keladi.

**v) Yuridik muassasalar.** Huquqiy madaniyatning uchinchi elementi yuridik muassasalardir. Huquqiy rivojlanish va huquqiy madaniyatning harakatlantaruvchi kuchi amaliyotchi yuristlar va huquqshunos olimlar hamda o‘qituvchilardan iborat professional yuridik jamoadan iborat. Yuristlar huquqiy taraqqiyot egalari, jamiyatda yuz berayotgan huquq va erkinliklar rivojlanishi, hukuqiy da’volar qilish jarayonlari, shaxsni va jamiyatni o‘zboshimchalik va boshboshdoqlikdan himoya qilish talablarining ifodachilaridir. Oxir oqibatda huquqshunoslar qanday bo‘lsa, huquq ham shunday bo‘ladi. Huquq va huquqshunoslarning darajasi esa ularga berilgan huquqiy ta’limga bog‘liq.

Davlat yuridik muassasalarining tazimi muhim o‘zgarishlarga uchradi. Mustaqil o‘zbek davlatchiligi organlarining yangi tizimi yaratildi, davlat hokimiyati bo‘linishining demokratik prinsipi amalga oshirildi, sud hokimiyataning uch qismini birlashtaruvchi tizim shakllantarildi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar qayta tashkil etildi, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar (Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz, ombudsmen instituti, parlamentdagi tegishli komissiya va boshqalar) ta’sis etildi. Davlatga qarashli bo‘lmagan quyidagi yuridik muassasalar tarmog‘i, jumladan, Advokatlar va sudyalar assotsiatsiyasi, xususiy advokatlar byurolari, notariat, yuridik xizmat ko‘rsatish firmalari, shaxs huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha turli xil assotsiatsiyalar va ijtimoiy fondlar tashkil etildi. Natijada jamiyat a’zolarining huquqiy himoyalanishi va ularga yuridik xizmat ko‘rsatilishini ta’minlovchi butunlay yangi mexanizm shakllandi.

Yuridik muassasalar, ular faoliyatining samaradorligi nafaqat jamiyatning, balki davlatning ham huquqiy madaniyati darajasini belgilab beradi. Aynan

Konstitutsiyaga muvofiq ravishda xalq irodasini ifodalovchi va uning manfaatlariga xizmat qiluvchi davlat ushbu muassasalarning faoliyatini tashkil etadi va ta'minlaydi. Jamiyat va davlatning demokratikligiga, rivojlanganlik darajasiga yuridik muassasalar qanday ishlayotganligiga qarab ham baho beradilar.

Bugungi kunga kelib O'zbekistonda yuridik muassasalar tizimini yaratish niholandi, deb bo'lmaydi. Ushbu tizimni rivojlangan mamlakatlardagi xuddi shunday tizimlar bilan qiyoslash ularning asosiy qismini huquqiy xizmat ko'rsatish muassasalari tashkil etishini ko'rsatmoqda.

Davlatga qarashli bo'lmagan yuridik muasasalarning amaldagi tizimi ancha kengaytirilishi kerak. Adliya vazirligining ma'lumotlariga qaraganda, respublikamizda davlatta qarashli bo'lmagan 47 yuridik muassasa ishlab turibdi. Ularning, birinchi navbatada, xususiy advokatlar va notariuslarning yetishmasligi ayniqsa qishloq joylarida sezilmoqda. Shu munosabat bilan (O'zbekiston qonunlariga qatiy rioya qilganlari taqdirda) xorijiy kompaniyalarning aholiga yuridik xizmat ko'rsatish amaliyoti qo'llab-quvvatlashga loyiqdir.

**g) Huquqiy ong.** Huquqiy madaniyatning to'rtinchi elementi - huquqiy ong. Huquqiy ong shaxs ongida, jamiyat g'oyalarida namoyon bo'lgan huquqdir. Huquqiy ong huquq va qonuniylikka munosabatdagi e'tiqodlar, tasavvurlar, baholar, his-tuyg'ular va ma'naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimidir.

Huquqiy ong huquqiy madaniyatning davlat va jamiyatning boshqaruv ta'siriga eng kam darajada uchragan elementidir. Tezlik bilan yangi qonun qabul qilish, davlat organini tuzish mumkin, ammo insonning huquqiy ongini tezda o'zgartarib bo'lmaydi. Yuksak huquqiy ongni shakllantirish ko'p kuch hamda vaqt talab qiluvchi qiyin vazifadir. Shuning uchun ham "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi"da barcha huquq sub'ektlarining huquqiy ongi darajasini ko'tarish tasodifan bosh maqsad qilib belgilanmagan. Huquqiy qadriyatlarni ma'naviy o'zlashtirish oddiy insoniy madaniyat va savodxonlikning bo'lishini taqozo etadi. U shaxsni umumiy tarbiyalash jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Jamiyatimiz huquqiy ongining darajasi qanday?

Ushbu masalaning muhimligi va dolzarbligiga qaramay, afsuski, unga aniq javob bera olmaymiz. Gap shundaki, so'nggi vaqtlargacha ushbo' yo'nalishda hech qanday tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Ayrim toifadagi fuqarolar (sudlanganlar, voyaga yetmaganlar)ning huquqqa munosabatini tadqiq etishga harakat qilingan, xolos.

Bilvosita belgilar va ayrim ma'lumotlarga qarab taxminan quyidagicha baho berish mumkin.

Birinchidan, o'zbek xalqiga xos bo'lgan qonunga, huquqqa, hokimiyatga bo'lgan xurmatni hisobga olish zarur. Uzoq qishloqdagi dehqon yurisprudensiyaning nozik jihatlarini bilmasligi mumkin, ammo huquqning qadrini va mohiyatini haqiqiy fuqarocha tushunishi, uni xurmat qilishi mumkin. Buni ijobiy ma'nodagi huquqiy konformizm deb atash mumkin.

Ikkinchidan, huquqiy ongning axloq, jamiyat an'analari va odatlari, xalqning ma'naviyati bilan chuqur aloqasini ta'kidlash zarur.

Uchinchidan, kishilarning huquqiy ongiga ularning ijtimoiy-huquqiy faolligiga qarab gapirish mumkin. Jamiyat a’zolarining mahalla, mehnat jamoasi hayotida ishtirok etishi, boshqa ijtimoiy foydali aloqalarning faollashuvi huquqiy madaniyat darajasining o‘sayotganligidan dalolat beradi.

To‘rtinchidan, huquqiy statistika jamiyat huquqiy ongining ahvolini baholash uchun asos bo‘lishi mumkin. Jinoyatchilikning darajasi, huquqni qo‘llash hujjatlarining, fuqarolik-huquqiy bitimlarning mikdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham huquqiy ongning sifat tomonini ko‘rsatadi.

Huquqiy ongning ahvolini yuqorida bayon etilgan jihatlarini hisobga olgan holda taxdil qilish jamiyatimiz ma’naviy huquqiy ongining yuksak imkoniyatidan, uning taraqqiyparvar huquqiy g‘oyalar, tasavvurlar, maqsadlarni qabul qilishga tayyorligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga ayrim ijtimoiy guruhlar vakillari huquqiy ongining jiddiy ravishda buzilganligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Huquqiy nigilizm, huquqqa nisbatan iste’molchilik munosabati jinoyatchilar dunyosining madaniyatini belgilab beradi. Yoshlarning bir qismida huquqiy qadriyatlarga nisbatan befarqlik kuzatilmoqda. Agar yoshlar huquqni bilmasliklarini namoyish qilsalar, huquqbuzarlar, odatda o‘zlarining huquqiy jihatdan, ayniqsa jinoyat huquqi sohasida, bilimdonliklarini ko‘rsatadilar. Biroq ular ham, bular ham nuqsonli, past darajadagi huquqiy ongga egadirlar.

Huquqiy ong darajasini ko‘tarish uchun oila, maktabgacha tarbiya muassasalar, maktablar, o‘quv-yurtlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat va jamoat institutlarining hamkorlikdagi harakatlari zarur. So‘nggi vaqtlarda yuksak huquqiy ong faqat shaxs dunyoqarashiga kompleks va maqsadga muvofiq ta’sir etishning natijasi bo‘lishi tushunib yetildi.

Mazkur ta’sirning bir qismi bo‘lmish huquqiy tarbiya uzluksiz va hamma joyda amalga oshirilishi kerak. Huquqiy tarbiya amaliyotining tahlili maktabgacha bo‘lgan muassasalarda bunday tarbiya deyarli yo‘lga qo‘yilmaganligini ko‘rsatmoqda. Zero, mediklar, psixologlar va sotsiologlarning ma’lumotlariga qaraganda, aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda bajarilishi shart bo‘lgan, taqiqlangan, ruxsat etilgan xatti-harakatlarga doir eng oddiy tasavvurlar shakllanadi. Shaxsning huquqiy ongiga samarali ta’sirning ko‘plab imkoniyatlari maktab ta’limida ham bor. Ammo maktab ko‘pincha davlat va huquq asoslari bo‘yicha uncha ko‘p bo‘lmagan miqdordagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish bilan cheklanib qoladi. Mehnat jamoalaridagi huquqiy tarbiya ishlari ham onda-sonda amalga oshiriladi.

Yuqori darajadagi huquqiy ongni shakllantirishga qaratilgan faoliyatni o‘rganish unda asosiy e’tibor huquqiy bilimlarni tarqatishga qaratilayotganligini ko‘rsatmoqda. Ayni paytda huquqiy tarbiyaning qonunga itoatkor qonuniy xatti-harakatni shakllantirishdan iborat muqim maqsadi chetda qolmoqda. Buning ustiga bugungi sharoitda qonunga itoatkorlikning o‘zi ham huquqiy tarbiyaning aniq maqsadi bo‘la olmaydi.

**Huquqiy ongning tuzilishi.** Ma’lumki, huquqiy ong ikki tarkibiy qismdan, ya’ni huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyatdan iborat. Huquqiy mafkura huquqning mohiyati, ahamiyati va talablari to‘g‘risidagi g‘oyalar, qadriyatlarni o‘z ichiga

olsa, huquqiy ruhiyat hissiyotlar, kayfiyatlar, kechinmalar, ya'ni huquqning emotsional qabul qilinishi bilan bog'liq.

Ijtimoiy huquqiy ongdagi ushbu ikki tarkibiy qismning holatini tahlil qilib, ularning rivojlanganlik darajasi bir xil emasligini ko'ramiz. Agar huquqiy mafkura jamiyatda demokratik davlatga xos bo'lgan g'oyalar va qadriyatlar muayyan darajada shakllanganligi bilan belgilansa, huquqiy ruhiyat infantillikka mubtalo bo'lib, unda huquqqa nisbatan befarqlik va mensimaslik saqlanib qolgan.

Kriminalogiya sohasidagi tadqiqotlar jamiyatning huquqiy ruhiyatida jiddiy kamchiliklar borligidan dalolat bermoqda. Masalan, jinoyatlarning ayrim turlari bo'yicha yuqori darajadagi latentlik (yashirinlik) saqlanib qolmoqda. Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, sodir etilgan har bir jinoyatdan o'rtacha 5-7 kishi xabardor bo'ladi. Agar ushbu raqamni jinoyatlar mikdoriga ko'paytirsak, kishini quvontirmaydigan manzaraga duch kelamiz: minglab kishilar jinoyatga tayyorgarlik ko'rilayotganligini va ular sodir etilayotganligini bilganlari holda ularni befarq tomosha qilganlar.

Jamiyat rivojidagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy voqealar kundalik huquqiy ongning buzilishi sabablari va shart-sharoitlarini (huquqqa nisbatan salbiy va iste'molchilik munosabatlari, shaxsning huquqqa xilof yo'nalishlarining motivlari, jamiyatga qarshi xatti-harakat stereotiplarining shakllanishini) aniqlashning zarurligini taqozo etadi. Mazkur vazifani bajarish fanning, birinchi navbatda, huquqshunoslikning eng muhim maqsadidir. Bizningcha, ushbu hodisalarning hammasini totalitar tuzum merosiga taalluqli deb hisoblash mumkin emas, buzilgan huquqiy ong manbalarini ob'ektiv voqelikdan qidirish zarur.

Bayon etilganlarga qisqacha xulosa qilib aytish mumkinki, aholining huquqiy ongi huquqiy psixologiyaning davlat tashviq qilayotgan huquqiy mafkuradan keskin orqada qolayotganligi, huquqiy davlatga xos bo'lgan huquqiy g'oyalar va prinsiplarning kundalik ong huquqiy nigilizmidan keskin farq qilishi bilan ajralib turadi. Huquqiy ongdagi bunday ahvolning sabablari huquqiy tizim doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki iqtisodiy, ijtimoiy hamda boshqa ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan belgilanadi. Biroq huquqiy ong o'zgarmay qolmaydi, u huquq va davlatning o'zgarishi bilan takomillashib boradi.

**Qonunga hurmatni tarbiyalash.** Huquqiy davlatda jamiyat va shaxs huquqiy ongining muhim jihati, bizningcha, qonunga hurmat, uning qadrini shaxs qadriyatlarining eng yuqori darajasiga ko'tarishdan iborat. Ququqqa, qonunga hurmatni oddiy qonunga itoatkorlik deb tasavvur etib bo'lmaydi, u yuqori darajadagi huquqiy faollikni talab etadi.

Aynan huquqiy faollik, ya'ni shaxsning ijtimoiy faol ijobiy xatti-harakati uning huquqiy ongining, qonunga hurmatining darajasini bildiruvchi muhim ko'rsatkichdir.

Qonunga hurmat qonundan, uning odilligidan qoniqish hissiga, shuningdek, o'z xatti-harakatlarini xuquk, prinsiplari va normalariga ixtiyoriy ravishda bo'ysundirishga asoslangan axloqiy-huquqiy kategoriyadir. Boshqacha aytganda, shaxs huquqiy majburiyatlarni anglangan burch sifatida, huquq va majburiyatlari birligi prinsipining timsoli sifatida qabul qiladi.

Kriminologiyadagi tadqiqotlar huquqbuzarlik sodir etilishi uchun muayyan huquqiy normalarini bilish yoki bilmaslikning hal qiluvchi ahamiyati yo‘qligidan dalolat bermoqda. Respondentlarning kattagina qismi huquqbuzarliklarni qonunni xurmat qilganliklari uchun emas, jazodan qo‘rqqanligi tufayli sodir etmasliklarini tan olganlar. Bu huquqqa xurmatni shakllantirishning juda muhimligini tasdiqlaydi.

**Jamoatchilik fikri va huquq.** Jamiyat huquqiy ongini baholashda jamoatchilik fikrini o‘rganish katta yordam beradi. Afsuski, respublikamizda huquq masalalari bo‘yicha jamoatchilik fikrining monitoringi amalda o‘tkazilmaydi, holbuki sotsiologik tadqiqotlarning ma’lumotlari butun jamiyatdagi hamda ayrim ijtimoiy guruhlardagi huquqiy ongning manzarasini aniqlashtirishga yordam bergan bo‘lardi. Shaxs huquqiy ongidagi ijobiy motivlar va manfaatlarga alohida e’tibor berish kerak. Chunki regulyativ xossa hamisha ham tarbiyaviy xossa bilan mos kelavermaydi, kishilarning muayyan qismi qonun talablarini kelishuvchilik qilib yoxud jazoning qo‘llanilishidan qo‘rqib bajaradilar. Boshqa qismi esa huquqiy qadiriyatlarga anglangan holda munosabatda bo‘ladilar. Shu narsa ajablanarliki, aynan ijobiy huquqiy ong mexanizmi amalda o‘rganilmasdan qolmoqda. Turli xil ijtimoiy guruhlarning huquqiy ongidagi ijobiy steriotiplarni aniqlash va keng yoyish lozim. .

O‘zbekiston huquqiy tizimining tub o‘zgarishlari, jamiyat hayotidagi huquqiy asoslarning kuchayishi, shuningdek, davlat va jamoat institutlarining faol huquqiy tarbiya ishlari asta-sekin aholi huquqiy ongining va huquqiy madaniyatining yuksalishiga olib keladi.

**d) Huquqiy xatti-harakat.** Huquqiy madaniyatning darajasini ko‘rsatuvchi indikator bo‘lgan beshinchi elementi huquqiy xatti-harakatdir. Shunday holat yuzaga keldiki, yuridik fan asosan qonunga xilof xatti-harakatlar muammolari bilan, uning sabablari va shart-sharoitlarini o‘rganish bilan shug‘ullanib, huquqiy xatti-harakatning qonunga muvofiq shakli kam tadqiq etilgan. Ayni paytda huquqiy xatti-harakatning ijtimoiy foydali turlarini aniqlash, ta’minlash va rivojlantirish jamiyat huquqiy madaniyatini ko‘tarishning qudratli vositasidir. Qonunga mos xatti-harakat huquqiy normalarda mavjud bo‘lgan ideal axloq bilan mos keluvchi yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ma’lumki, huquq shaxsning imkoniyatidagi xatti-harakatlarining, uning erkinligining me’yoridir. Shaxs ushbu imkoniyatlarni, shuningdek, huquq normalarining talablarini turli usullar bilan amalga oshiradi. Ularga, jumladan, huquqqa rioya etish, bajarish, uni bajarish, tadqiq etish yoxud qo‘llash kiradi. Ushbu huquqlarni ta’minlash, shuningdek, shaxsga qonunga xilof harakatlardan o‘zini tiyish majburiyatining yuklanishi shaklida ham amalga oshiriladi.

Qonuniy xatti-harakatlarning ikki turini ajaratish: 1) huquq normalari va qonunlarning talablarini buzmaslikda, ularga rioya etishda, qonunga xilof xatti-harakatlarni qilmaslikda namoyon bo‘ladigan passiv ijobiy xatga-harakat; 2) tashabbuskorona, faol huquqiy xatti-harakatlarda, huquqni himoya qilish va ta’minlashga qaratilgan ixtiyoriy faoliyatda ifodalanadigan huquqiy faollik.

Umuman olganda, xatgi-harakatlarning mazkur tiplari jamiyat uchun foydalidir. Ammo huquqiy davlatni shakllantirish sharoitida qonuniy xatti-

harakatlar ikkinchi turining aqamiyati va zaruriyati birinchisinikiga qaraganda beqiyos ortiqdir.

Huquqiy madaniyat qonuniy xatti-harakatlarni shakllantirish uchun o‘ziga xos start maydonchasi va ayni paytda uning mezoni bo‘lib namoyon bo‘ladi.

**Ijtimoiy huquqiy faollik va huquqiy madniyat.** Xo‘sh, fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirishga, qonuniy hatti-harakatlarini ijtimoiy xatti-harakatlarning aholi hurmat qiladigan va qo‘llab-quvvatlaydigan etaloniga aylantirishga qanday qilib erishish mumkin?

Eng avvalo, davlatning va barcha boshqa ijtimoiy institutlarning huquqiy tarbiyaga qaratilgan samarali faoliyati zarur. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligi, huquqbuzarlik uchun jazoning muqarrarligi prinsipining ta’minlanishi ulkan ahamiyatga egadir. Shuningdek, qonun buzilishlarining oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlar majmuasini amalga oshirish ham muhimdir.

Ijobiy huquqiy xatti-harakatlarni joriy etish va tashviq qilish, qonunga itoatkorlik turmush tarzini shakllantirish faoliyatida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari katta samara beradi. Aynan mahallada, mavzeda huquqiy xatgi- harakatlarning maqsadga yo‘nalganligi yaqqol namoyon bo‘ladi, bu yerda qonuniy xatti-harakatni tashviq qilish va rag‘batlantirish eng ko‘p samara beradi. O‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini o‘rganish ushbu faoliyatning asosiy yo‘nalishlari ijtimoiy ta’minot, obodonlashtirish, madaniy oqartuv ishlaridan iboratligini ko‘rsatmoqda. Huquqiy ong va xatti-harakatni shakllantirish masalalariga esa yetarlicha e’tibor berilmayapti. Jamoatchilik sudlari, yoshlari tarbiyasi bo‘yicha kengashlar, huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik komissiyalarning tuzilishi va amal qilinishi qonuniy xatti-harakatlarning keng yoyilishiga va qonunga xilof xatti-harakatlarning kamayishiga yordam bergan bo‘lar edi.

**Inson - huquqiy madaniyat markazi.** Zamonaviy yuridik nazariyada shaxs butun huquqiy voqelikning markazita qo‘yilmoqda va ilmiy tadiqotlarning boshlang‘ich nuqtasi, manbai va asosi sifatida maydonga chiqmoqda. O‘zbekistonning Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, or-nomusi, qadr-qimmati va boshqa uzviy huquqlari oliy qadriyat ekanligi e’tirof etiladi (13-modda). Bu inson huquqiy tizim va madaniyatning asosi va markazi ekanligini; boshqa barcha sub’ektlar - tashkilotlar, assotsiatsiyalar, birlashmalar, xo‘jalik uyushmalari va shirkatlari, davlat organlari esa ulardan hosil bo‘lgan tuzilmalar, inson ijtimoiy faoliyatining natijasi ekanligining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishidir.

Konstitutsiya inson huqukdarini birinchi o‘ringa qo‘ydi, binobarin, inson va uning huquqiy madaniyati huquqiy rivojlanishimizning asosiy maqsadi qilib tanlandi. Hozirgi kunda nafaqat huquq va erkinliklarining ro‘yxati miqdor jihatdan kengaymoqda, balki ularning sifat jihatdan o‘zgarishi, huquqiy mexanizmlar, muassasalar, yuridik harakatlar, huquqiy ong va boshqalarning o‘zgarishi kuzatilmoqda.

Davlat, uning organlari va mansabdor shaxslariga inson huquqlari va erkinlarini himoya qilish majburiyati yuklatilmoqda. Inson huquqlari va erkinlari

qonunlarning ma’nosini, mazmunini va qo‘llanilishini, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat, o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini belgilab bermoqda hamda ular ahamiyati borgan sari ko‘tarilib borayotgan odil sudlov tomonidan ta’minlanmoqda.

Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy holatining zaruriy shart-sharoiti va yaratuvchi asosidir. Shu bilan birga, u shaxsning huquqiy rivojlanish darajasi va xususiyatidir. Ushbu daraja va xususiyat insonning qonuniy faoliyati darajasida o‘z ifodasini topadi. Shu munosabat bilan huquqiy madaniyatli shaxsning modelini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday model individlar uchun tegishli ijtimoiy-huquqiy maqsadlarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

**2. Huquqiy madaniyat va taraqqiyot.** Jamiyatning huquqiy madaniyatini ta’riflab, mustaqillik davrida ushbu madaniyat jiddiy o‘zgarishlarga uchraganligi, uning darajasi ko‘tarilganligi, mazmuni demokratik qadriyatlar va g‘oyalar bilan boyiganligi to‘g‘risida xulosa qilish mumkin. Agar qisqacha aytadigan bo‘lsak, huquqqa munosabat o‘zgardi. Biroq yana ko‘p ishlarni qilish kerak bo‘ladi. Fikrimizcha, huquqiy madaniyatning rivojlanishi uning barcha tarkibiy qismlarini kompleks isloh qplish va takomillashtirish asosida kechadi. Huquqiy madaniyatning tarixiy rivojlanishi huquqiy taraqqiyot bo‘lib, uning mezonini shaxsning huquqiy ahvoli, huquqiy erkinlik darajasi tashkil etadi.

Huquqiy madaniyatning taraqqiyoti shaxs huquqlari va erkinlari hajmining kengayishi, ularning himoyalanganlik darajasining ko‘tarilishidir. Huquqiy taraqqiyot markazida shaxs, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari hamda madniyatdagi oliy qadriyat bo‘lgan shaxsning, “barcha narsalarning mezoni bo‘lgan inson”ning maqomini mustahkamlashga qaratilgan barcha huquqiy vositalar, mexanizmlar va institutlar turadi.

Huquqiy tarbiya va yuridik ta’limni huquqiy rivojlanishning, huquqiy madaniyatni ko‘tarishning muhim omillari, huquqiy taraqqiyotni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin bo‘lgan omillar sifatida qarash lozim.

Vazifalar va maqsadlarnr belgilab olmasdan turib jamiyatning huquqiy rivojlanishini tasavvur etib bo‘lmaydi. Huquqiy davlatni shakllantirish vazifasini yuksak huquqiy madaniyatsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Xuddi shuningdek, huquq o‘ziga munosib oliy qadriyat o‘rnini olmas ekan, demokratik fuqarolik jamiyatini yaratib bo‘lmaydi. Hozirgi vaqtda xalqaro huquqning jahonda tan olingan prinsiplari va normalarining milliy hukukdan ustunligi e’tirof etilmoqda, bu bizning huquqiy madaniyatimizni barcha ilg‘or va taraqqiyparvar o‘zgarishlar uchun ochiq qilmoqda, xalqaro huquqda o‘z ifodasini topgan umuminsoniy qadriyatlar va ideallarni huquqiy madaniyatimiz rivojlanishi uchun mezon va mo‘ljal sifatida tasdiqlamoqda.

Huquqiy madaniyatning taraqqiy etishi jahon huquqiy tarixini xulosalovchi keng yo‘lidir. O‘zbekistonning rivojlanishi insoniyat yo‘lidan, ijtimoiy va huquqiy taraqqiyotdan chetda emas. Bu strategik vazifalarni hal etish, aftidan, uzoq vaqt oladi. Qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning milliy dasturi”da uning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan.

## 4-mavzu: Huquqiy madaniyatni yuksaltirish- davlat siyosatining muhim yo’nalishi.

**Reja:**

1. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi - davlat huquqiy siyosatining asosi.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida PF-5618-son Farmoni- davlat huquqiy siyosatining asosi.
3. Huquqiy savodxonlik - huquqiy madaniyat asosi.

“Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huqiqiy e’tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta’minlaydi”[1], - deyiladi Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturida.

O‘zbekiston demokratik islohotlar yo‘lidan qadam-baqadam olg‘a siljimoqda. Qo‘lga kiritilgan yutuqlar ko‘p jihatdan davlatning asosiy islohotchi sifatida demokratik o‘zgarishlarning huquqiy negizini mustahkamlashga doimo g‘amxo‘rlik qilayotganliganing samarasidir. Shu bilan birga, davlat fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq, va erkinliklarini himoyalash, aholining huquqiy bilimini, jamiyat a’zolarining ijtimoiy-siyosiy faolligini o‘stirish ishlarini bir lahzaga bo‘lsa-da susaytirayottani yo‘q. Mamlakatda fuqarolarning huquqiy madaniyatini o‘stirish, aholining huquqiy tarbiyasi va ta’limini takomillapggirish bo‘yicha keng ko‘lamdagi ishlar olib borilmoqda.

1997 yilning 20 mayida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning huquqshunos olimlar, huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan shu kunning dolzarb huquqiy muammolari xususida o‘tkazgan uchrashuvi mazkur yo‘nalishdagi ishlarning jonlanishiga turtki bo‘lib xizmat qildi. Bu uchrashuvning asosiy g‘oyasini “Demokratii jdmiyatga - yuksak huquqiy madaniyat” shiori bilan ifodalash mumkin.

Biz erkin huquqiy demokratak davlat barpo etmoqdamiz. Ijtamoiy hayotning barcha sohalaridagi islohotlar shu maqsadni amalga oshirishga yo‘naltarilgan demokratik islohatlarni hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etashda xalqqa yuridik bilimlar berish, ya’ni jamiyatdagi ijtamoiy-huquqiy faollikning zaruriy shartlari bo‘lgan demokratak tamoyillarni kishilar ongiga chuqurroq singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda islohotlarni kuzatab turib, ularga nisbatan hayrixohlik bildirishning o‘zi kamlik qiladi. Har bir fuqaro kunda haqiqiy vatanparvarlikni namoyish etab, islohotlarning faol qatnashchisi, demokratik o‘zgarishlarning bevosita ijrochisi bo‘lmog‘i zarur.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг ахборотномаси. 1997. № 9.

Qonunlar, farmonlar va xukumat qarorlarining mohiyatani chuqur anglab yetish, barcha harakatni xalqning yangi huquqiy ongani shakllantarishga qaratish shu jihatdan ahamiyatliki, uning vositasida jamiyatning huquqiy madaniyatini ko‘tarishga erishiladi. Adolatli demokratik jamiyat faqatgina inson, jamiyat va davlat manfaatlarining birligi va mutanosibligi negizida barpo etilishi mumkin. Ular o‘rtasidagi munosabatlarning asosini qonuniylik tashkil etmog‘i lozim.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi insonni oliy qadriyat sifatida baholar ekan, fuqaro, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning demokratik huquqiy yo‘l bilan hal etilishini yuridik jihatdan mustahkamlab qo‘ygan.

O‘zbekistonda ijtamoiy va siyosiy hayotni demokratlashtirish, inson huquqlarini himoyalash borasida ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Demokratak prinsiplar, qadriyatlar va institutlar hayotimizning barcha sohalariga borgan sari chuqurroq kirib bormoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1993 yilda Venada o‘tkazgan Inson huquqlari bo‘yicha ikkinchi umumjahon anjumanining qarorlarini bajarish borasida O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tizimi yaratildi. Bu tizimga inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlis vakili (ombudsmen), Inson huqukdari bo‘yicha milliy markaz, Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti, “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi va boshqa o‘quv-ma’rifiy va nodavlat tashkilotlar kiradi. Bu o‘rinda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti kafedrasi, Toshkent yuridik instituti qoshidagi Inson huquqlari va gumanitar huquqni o‘rganish markazi, Advokatlar va sudyalar uyushmalarini ko‘rsatish mumkin.

Mazkur demokratik institutlar demokratlashtirish jarayonlariga barqarorlik tusini berish va islohotlarning bir zum ham to‘xtab turishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida barpo etilgan. Jamiyatda siyosiy plyuralizm va ko‘ppartiyaviylik qaror topdi. Inson huquqlarini ta’minlash borasida O‘zbekistonning hech bir davlatdan qolishmasligi uchun barcha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston o‘z siyosatini inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash - demokratiyaning asosi ekanligidan kelib chiqqan holda amalga oshirmoqda. O‘zbekiston xalqaro huquqning barcha e’tirof etgan prinsiplari va normalari, umuminsoniy huquqiy qadriyatlar va demokratiyaga suyangan holda jamiyatni demokratlashtirishni xalq mentaliteti, milliy ruhiyat va tafakkurning o‘ziga xos ekanligini hisobga olgan holda amalga oshirmoqda.

Aholining qonunlar, farmonlar va xukumat qarorlaridan o‘z vaqtida habardor bo‘lib turishi, yuridik hujjatlarning, ayniqsa, inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash masalalariga oid hujjatlarning mazmuni va ma’nosini aniq anglab yetishi katta ahamiyatga ega. Har bir fuqaro o‘z huquq va burchlarini yaxshi bilishi, ularning o‘z hayotlaridagi o‘rnini his eta olishlari shart. O‘zi va o‘zgalarning huquqlarini aniq bilish va hurmat qilish shaxsning yuqori huquqiy madaniyat sohibi bo‘lishining zaruriy shartidir.

“Sovet imperiyasi” davrida davlat doimo o‘z huquq va manfaatlarini inson va jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yardi. Inson bor - yo‘g‘i ma’muriy-boshqaruv tizimining bir “murvati” edi, xolos. Eski huquqiy mafkuradan ozod bo‘lish zarur.

Shu boisdan mamlakatda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini demokratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish va huquqiy davlat asoslarini shakllantirish zaruriyatlaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”ni qabul qildi. U huquqiy madaniyatni yuksaltirish mexanizmining, aholining huquqiy tarbiyasi va ta’limi tizimini takomilladggirish orqali kishilar huquqiy ongini yuksaltirishning asosiy jihatlarini nazarda tutadi.

Dasturda hozirgi zamon ruqiga mos keluvchi malakali mutaxassis yuristlarni, yuridik fanlar bo‘yicha yangi darslik, o‘quv qo‘llanmalari va dasturlarini tayyorlash ishlariga katta ahamiyat berildi.

Ushbu Dasturni va O‘zbekiston Prezidentining tubdan yangi o‘quv va ommaviy huquqiy adabiyotlar tayyorlash zarurligi haqidagi da’vatiga javoban O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tomonidan Konstitutsiya, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va Jinoyat kodeksiga sharxdar nashr etildi, ko‘p jildlik Jahon konstitutsiyalari to‘plamining ikki jildi chop etildi, ma’muriy huquq, jinoyat huquqi, kriminologiya, kriminalistika, ichki ishlar idorala- rining ma’muriy faoliyati bo‘yicha darsliklar nashr etildi. Barcha yuridik fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlari yangilandi. Davlat va huquq nazariyasi, huquqiy madaniyat nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, musulmon huquqi, jinoyat protsessi, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy etikasi va estetikasi bo‘yicha darsliklar nashrga tayyorlandi.

Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz “Demokratlashtirish va inson huquqlari” turkumida 12 ta kitob chiqardi, ulardan “Konstitutsiya. Lug‘at-ma’lumotnoma”, “Konstitutsiya va inson huquqlari”, “Inson huquqlari va huquqiy madaniyat”, “O‘z huquq va burchlaringizni bilasizmi”, “Inson huquqlari haqida nimalarni bilish lozim”, “Til va qonun”, “O‘zbekistonda demokratlashtirish, inson huquqlari va boshqaruv tizimini takomillashtirish”, “Demokratiya va inson huquqlari” kabilarni alohida eslatib o‘tish lozim.

Xalqning huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasidagi tadbirlarni davlat siyosati darajasiga ko‘tarish alohida ahamiyatga ega. Bu borada jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha “Ijtimoiy fikr” nodavlat markazi, huquqiy bilimlarni targ‘ibot qilish markazi, huquqshunos mutaxassislarni qayta tayyorlash markazi, Adliya vazirligi qoshida aholining murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha maxsus bo‘linma tashkil etildi.

Istiqlol yillari huquqiy tarbiya, huquqiy ta’lim va huquqiy madaniyatga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishiga aylandi. U davlat mustaqilligini mustahkamlash strategiyasida, demokratik institutlar tizimini barpo qilishda va yangi huquqiy mafkurani yaratishda o‘zining munosib o‘rnini egalladi.

I.A.Karimovning aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va huquqiy tarbiyani yaxshilashga qaratilgan ishlarni davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida tan olish zarurligi haqidagi g‘oyasi uning 1997 yil 25 iyunda e’lon qilingan “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini

takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida”gi farmonida amalga oshirilgan. Unda “aholining huquqiy madaniyatini oshirish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar - davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilansin”[1], - deyilgan.

Aholining huhuqiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish davlat siyosati inson huquqlari va erkinliklarining birlamchi ahamiyatga ega ekanligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, demokratlashuv, ijtimoiy adolat, huquqiy tarbiyaning ilmiyligi, izchilligi va umumiyligi, huquqiy ma’lumotlarning ochiqligi, huquqiy tarbiya va savodxonlikka o‘ziga xos munosabatda bo‘lish kabi asosiy qoidalariga tayanadi.

“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” davlat siyosatining yangi huquqiy ma’naviyatni va mamlakatdagi huquqiy madaniyatni shakllantirish borasidagi strategik yo‘nalishlarini belgilab berdi. Bundan tashqari Prezident Farmoni asosida Vazirlar Mahkamasining tashkiliy-huquqiy masalalarni hal etishga qaratilgan bir qator qarorlari qabul qilindi. Jumladan, 1997 yil 10 iyulda “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida fuqarorlarning qonunchilikning buzilishi yuzasidan shikoyat va arizalarini ko‘rib chiqish boshqarmasini tuzish to‘g‘risida”, 1997 yil 21 iyulda “O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi qoshida yuristlar malakasini oshirish markazini tashkil etish to‘g‘risida”, 1997 yil 22 iyulda “Huquqiy ma’rifat targ‘iboti markazini tashkil qilish va huquqiy adabiyotlarni aholiga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida” qarorlar qabul qilindi.

Shunday qilib, aholining huquqiy madaniyatini ko‘tarish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash bo‘yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratildi.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustun yo‘nalishi bo‘lganligi uchun bir qator amaliy ishlar qilindi. “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi, Adliya vazirligi qoshidagi Fuqarolarning qonuniylikning buzilishi haqidagi shikoyat va arizalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha boshqarmasi, Yuristlar malakasini oshirish markazi, Toshkent Davlat yuridik instituti qoshidagi huquqiy bilimlarni targib qilish markazi o‘z faoliyatlarini boshlab yuborganlar. Qabul qilingan davlat qarorlari va yangi demokratik institutlar faoliyatining natijasidan har bir insonning bahramand bo‘lishi, har bir fuqaro ularning ishini his qilishi amaliy ahamiyatga molikdir.

Toshkentda va O‘zbekistonning boshqa shaharlarida chet ellik yetakchi huquqshunos olimlar ishtirokida qator anjumanlar, simpoziumlar va seminarlar o‘tkazildi. Bu anjumanlarda demokratik huquqiy davlat qurishga asos bo‘ladigan qonunchilikni mustahkamlashning hozirgi muammolari muhokama etildi va aholining huquqiy savodxonligi, huquqiy tarbiyasi va huquqiy madaniyatini oshirish borasidagi ishlarni yaxshilashning qulay va samarali usullarini ishlab chiqish borasida izlanishlar olib borilmoqda. K.Adenauer nomli fond ishtirokida “Huquqiy davlat va demokratiya” mavzui bo‘yicha Andijon, Buxoro, Jizzax,

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1997. № 7. 179- модда.

Navoiy viloyatlarining huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun bir necha seminarlar, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti va inson huqukdari Milliy markazi bilan hamkorlikda “Konstitutsiya” va “Inson manfaatlari”, «Burxoniddin Marg‘inoniy ijodiy merosi misolida Inson huquqlarining umumiy tamoyillari”, “Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish”, “Konstitutsiya va yoshlar huquqi” kabi mavzulardagi konferensiyalar, “Ichki ishlar organlarining inson huqukdarini himoya qilishi” mavzuida mintaqaviy seminar o‘tkazildi va h.k.

Boshqa bir qator tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Ommaviy axborot vositalarida ham bu muammoga ko‘proq ahamiyat berilmoqda. Xususan, huquqiy bilimlarni ommaga yetkazishning an’anaviy bo‘lmagan shakllariga oid izlanishlar olib borilmoqda.

Aholining keng qatlamlariga mo‘ljallangan “Huquq – pravo”, “Ijtimoiy fikr”, “Demokratlashtirish va inson huquqlari” kabi yangi yuridik gazeta va jurnallar paydo bo‘ldi. Mahallalarda, mehnat jamoalari va korxonalarda, tashkilot va muassasalarda huquqiy bilimlarni targ‘ib qilish tizimi tomomila yangi va sifatli darajada qayta tiklanmoqda. Bu ishga huquqshunos olimlar va amaliyotchi xodimlar kengroq jalb qilinmoqda, chunki huquqshunoslikning nozik tomonlarini tushunish huquqiy bilimlarning asosini bilmaydigan oddiy odamlar uchun ancha murakkab.

Bularning hammasi, mamlakatda aholining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish borasidagi ishlar keng miqyosda olib borilayotganidan dalolat beradi. Jamiyatning huquqiy madaniyati har bir fuqaroning, har bir oilaning va har bir jamoaning madaniyatidan tashkil topadi. Mamlakatimizda aholining huquqiy savodxonligini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun yuridik o‘quv yurtlari, huquq-tartibot idoralari xodimlarining malakasini oshirish markazlari, fuqarolarga yuridik yordam ko‘rsatish, huquqiy bilimlarni targib qilish, yuridik adabiyotlar, darsliklar va qo‘llanmalarni nashr etish va tarqatish muassasalarining keng tarmog‘i xizmat qilmoqda.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida PF-5618-son Farmoni - davlat huquqiy siyosatining asosi.

**Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish KONSEPSIYASI**

**I. Umumiy qoidalar**

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So’nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda. Xususan:

birinchidan, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmayapti. Jamiyatda, oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda huquqiy axborotlarni yetkazishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emas. Shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash g'oyalari aholi, ayniqsa, davlat xizmatchilari ongiga yetarli darajada singdirilmayapti;

ikkinchidan, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayonlari huquqiy tarbiya bilan uyg'un olib borilmayapti, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'zbek xalqining tarixi, dini, urf-odatlari, milliy qadriyatlariga tayanilmayapti;

uchinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir tadbirlarni tashkil etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmagan, ijtimoiy sheriklik prinsipi asosida ishlar tashkil etilmagan;

to'rtinchidan, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishning aniq maqsadli chora-tadbirlari belgilanmagan;

beshinchidan, jamiyatda manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroki ta'minlanmayapti, bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko'zga tashlanmayapti;

oltinchidan, huquqiy tadbirlar hamon an'anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda, bu borada targ'ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan, veb-texnologiyalardan foydalanilmayapti, huquqiy yo'nalishdagi veb-saytlar yetarli emas;

yettinchidan, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlari mavjud emas, bu borada tadbirlar nomigagina tashkil etilmoqda, huquqiy bilimlarni yuksaltirish bo'yicha huquqiy adabiyotlarni chop etish va tarqatish, ilmiy izlanishlarni olib borish ishlari samarasiz amalga oshirilmoqda.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi mavjud muammo va kamchiliklar "Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan g'oya ostida Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) qabul qilish va amalga oshirishni taqozo etmoqda.

**II. Konsepsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari**

1. Aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, mustahkam irodali, o'z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan va huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish Konsepsiyaning asosiy maqsadidir.

2. Quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini targ'ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi hamkorligini mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

**III. Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari**

**1-bob. Shaxs, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish**

1. Oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish

1. Bolalar uchun maxsus huquqiy portal yaratish. Unda:

Konstitutsiyani o'rgatishga doir ilk tushunchalar;

kundalik hayotda qo'llashga mo'ljallangan boshlang'ich huquqiy bilimlar;

huquqni targ'ib qiluvchi turli xil o'yinlar, mashg'ulotlar va dasturlar bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va boshqa zarur ma'lumotlarni berish.

2. Oilada bolalarga huquqiy tarbiya va odob-axloqning boshlang'ich qoidalarini o'rgatish bo'yicha ota-onalar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va tarqatish.

3. Oila davrasida huquqiy savodxonlikni oshirishga mo'ljallangan, har bir elementar huquqiy bilimlarni o'rgatishga qaratilgan va kundalik hayotdagi muhim masalalar yuzasidan huquqiy qo'llanma tayyorlash va bepul tarqatish.

4. Bolalar uchun huquqiy mavzularda va odob-axloqning oddiy va kundalik qoidalarini bilishni, vatanparvarlik, qonunlarni hurmat qilish, o'zbek xalqining tarixi va milliy qadriyatlarini o'rgatishni targ'ib qiluvchi turli multiplikatsion filmlarni yaratish.

5. Bolalar uchun huquqiy axborotni yetkazishga hamda kundalik turmushda qo'llaniladigan normalar va odob-axloq qoidalarini o'rgatishga qaratilgan audioertaklar, kinofilmlar va kinojurnallar ishlab chiqish.

6. Oilaviy notinchlik hamda bolalar nazoratsizligi va qarovsizligining oldini olish, bolalar orasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning salbiy oqibatlari to'g'risida teleko'rsatuvlar, tok-shoular tayyorlash.

7. Kundalik turmushda ko'p uchraydigan masalalarning huquqiy yechimlari va yangi qabul qilingan qonun hujjatlarining mohiyatini uyma-uy yurib targ'ib qilish, shuningdek, huquqiy ma'lumotlarni yetkazishga qaratilgan flayer, buklet va boshqa tarqatma materiallarni oilalarga bepul tarqatish.

8. Yoshlar va ota-onalar o'rtasida nikoh yoshi, aliment to'lash shartlari, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh va uning huquqiy oqibatlari to'g'risida muntazam ravishda huquqiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.

**2. Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda mahalla institutining rolini kuchaytirish**

1. Mahallalarda eng dolzarb, aholini qiziqtiradigan va murojaatlarda ko'tarilayotgan muammoli masalalarni tahlil qilish va tahlil natijasiga ko'ra manzilli va predmetli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, aholiga qonun hujjatlari mazmun va mohiyatini yetkazish bo'yicha choralar ko'rish.

2. Mahallalarda aholi orasidagi turli muammoli masalalar, xususan, migratsiya, moddiy yordam, yer olish, uy-joy olish, kommunal masalalar, imtiyozlar, aliment, ishga joylashish, ta'lim olish va boshqalar bo'yicha huquqiy axborotni buklet, flayer, liflet va plakatlar shaklida aholiga yetkazish.

3. Mahallalarda "Huquqiy axborot kuni" loyihasini tashkil etish, bunda aniq bir kunda rejalashtirilgan yo'nalish bo'yicha malakali mutaxassislar (advokatlar, notariuslar, yuridik xizmatlar xodimlari va boshqalar) tomonidan aholiga huquqiy tushuntirishlar berilishini ta'minlab borish.

4. Jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolik nizolarini keskin kamaytirish hamda aholida, ayniqsa, tarbiyasi og'ir bo'lgan fuqarolarda qonunga hurmat hissini uyg'otish maqsadida sudlar tomonidan mahallalarda aholi bilan ochiq muloqotlarni tizimli ravishda tashkil qilish va sayyor sud majlislari o'tkazish ko'lamini kengaytirish.

5. “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlari bilan hamkorlikda mahallalarda aholi orasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo’yicha tadbirlar ko’lami va sifatini oshirish.

Oldingi tahrirga qarang.

6. Profilaktika inspektorlarining yordamchilari va “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlari a’zolarining yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlaridan xabardorlik darajasini oshirish maqsadida tegishli tadbirlarni amalga oshirish.

3. Ta’lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish

1. “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganish” va “Inson huquqlarini o’rganish” maxsus o’quv kurslarini barcha ta’lim turlari bo’yicha tizimli o’rgatish nuqtai nazaridan qayta ko’rib chiqish va o’rgatilishini tashkil qilish.

Maxsus o’quv kurslari yakuni bo’yicha o’quvchi va talabalar orasida sinovlar tashkil qilish.

2. Bolalar va o’quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiyani va inson huquqlarini o’rganish bo’yicha ko’rgazmali qo’llanmalarni tayyorlash va chop etish.

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga bolalar huquq va majburiyatlariga doir mashg’ulotlarni joriy etish. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining huquq asoslari va bola huquqlari bo’yicha bepul malakasini oshirish hamda mashg’ulotlarni o’tkazish uchun turli innovatsion loyihalarni yaratish choralarini ko’rish.

4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga odob-axloq qoidalari va huquqning ilk tushunchalarini o’rgatish bo’yicha namunaviy qo’llanma yaratish.

5. Yangi avlod huquqiy darsliklari va o’quv qo’llanmalari tizimini yaratish. Bunda umumta’lim maktablari boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun huquqiy bilimlarni sodda va ko’rgazmali o’rgatishga qaratilgan o’quv qo’llanmalarini, shuningdek, ta’lim muassasalari uchun huquq fanlari bo’yicha o’quv darsliklari va qo’llanmalarini tayyorlash choralarini ko’rish.

6. Yoshlarga o’z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini o’rgatishga qaratilgan “Street law” (Ko’cha huquqi — oddiy huquq) loyihasini keng joriy qilish bo’yicha quyidagi tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish:

huquqshunoslikka ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalari talabalari, yuridik kollejlar o’quvchilari, nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat ko’ngillilar (volonter) guruhini shakllantirish;

“Street law” loyihasi amalga oshirilishini metodik ta’minlash choralarini ishlab chiqish;

ko’ngillilar guruhlari uchun interaktiv mashg’ulotlar olib borish metodikasi bo’yicha treninglar o’tkazish;

Oldingi tahrirga qarang.

ko’ngillilar tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari hamda umumta’lim maktablari o’quvchilari uchun mashg’ulotlar o’tkazish.

(6-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi PQ-4857-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son)

7. Ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalari orasida huquq fanidan respublika miqyosida quyidagi tanlovlarni tashkil qilish va o'tkazish:

umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida "Huquq — bu to'g'rilikdir" mavzusidagi rasmlar tanlovini tashkil qilish;

umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Mening huquq va majburiyatlarim" respublika ko'rik-tanlovini tashkil etish hamda tanlov g'oliblarini rag'batlantirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida "Siz qonunni bilasizmi?" ko'rik-tanlovini tashkil qilish hamda tanlov g'oliblarini rag'batlantirish;

oliy ta'lim muassasalarida "Huquq bilimdonlari" ko'rik tanlovini tashkil qilish va tanlov g'oliblarini rag'batlantirish.

8. Yoshlarda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovini o'tkazish.

9. Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o'ta salbiy illat ekanligini targ'ib qilishga qaratilgan o'quv materiallari tayyorlanishini tashkil qilish.

10. Bolalar va yoshlarga ularning huquqlari va odob-axloq normalari haqida ma'lumot beruvchi ko'rgazmali targ'ibot bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish:

flayerlar, bukletlar, komikslar, taqdimot slaydlari, videoroliklar ishlab chiqish va har bir ta'lim muassasasiga yetkazish (har chorakda);

ko'rgazmali huquqiy targ'ibot materiallarini bolalar va yoshlar e'tiboriga yetkazish.

11. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida yoshlarni o'z huquqiy savodxonligini yuksak darajada shakllantirish va oshirishdek ezgu maqsadlar atrofida birlashtiruvchi "Huquq bilimdonlari" yoshlar huquqiy klublarini tashkil etish, keyinchalik ularning ijtimoiy tarmoqlarda ham faoliyat ko'rsatishini ta'minlash.

12. Umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasida huquq fanidan olimpiadalar o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash.

13. Tarbiyasi og'ir voyaga yetmaganlarga kuchaytirilgan huquqiy ta'lim berish va tarbiyalashga oid maxsus dasturlarni qo'llash.

14. Yoshlarda sog'lom turmush tarziga bo'lgan intilishni shakllantirishga, ijtimoiy jihatdan xavfli kasalliklarga, giyohvandlikka, chekishga va boshqa zararli odatlarga qarshi kurashishga doir profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirishga, ommaviy yoshlar sportini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish.

15. Bolalar va yoshlarda davlat ramzlarini e'zozlash, uning qadr-qimmatini anglash, shuningdek, shaxsiy ehtiyojlar va jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini targ'ib qilishga doir aniq rejalar asosida "ochiq darslar" va o'quv mashg'ulotlari o'tkazilishini ta'minlash.

16. Diniy ekstremizm, terrorizm, “ommaviy madaniyat” va boshqa yot g’oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirishga qaratilgan maxsus videoroliklar tayyorlash.

17. Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan yo’l harakati qoidalarini buzish, noqonuniy avtopoygalar o’tkazish va boshqa noxush hodisalarning oldini olish maqsadida “Eng tartibli yosh haydovchi” loyihasini tashkil etish.

4. Davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish

1. Davlat organlari va tashkilotlarda huquqiy targ’ibot tadbirlarini tashkil etish va o’tkazish bo’yicha uslubiy qo’llanma ishlab chiqish.

2. Davlat organlari va tashkilotlarda jamoatchilik asosida doimiy faoliyat ko’rsatuvchi huquqiy targ’ibot guruhlarini tashkil qilish va ular tomonidan sohaga doir qonun hujjatlari normalarining xodimlar o’rtasida tizimli ravishda targ’ibot qilinishini ta’minlash.

3. Davlat organlari va tashkilotlarda xodimlarning huquqiy savodxonligi minimal darajasi bo’yicha talablarni ishlab chiqish hamda ularni ishga qabul qilishda mazkur talablarga muvofiqligi yuzasidan o’qitish va baholashning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish.

4. Davlat organlari va tashkilotlarda xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan bepul huquqiy maslahat kurslarini tashkil etish dasturlarini ishlab chiqish.

5. Har bir davlat organlari va muassasalarida “Huquqiy madaniyat oyligi”, “Odob-axloq oyligi” hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” tadbirlarini tashkil qilish.

6. Davlat organlari va tashkilotlar xodimlari faoliyatida mas’uliyatsizlikning va idoraviy huquqiy nigilizmning namoyon bo’lishiga imkon yaratadigan omillarni huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish orqali bartaraf etish.

7. Kadrlarga oid qarorlarning, bo’sh lavozimlarga kadrlarni tayinlash uchun tanlovlarni rejali asosda o’tkazishning shaffofligini ta’minlash.

8. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda munosib hissa qo’shgan davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko’rsatgan yutuqlari uchun topshiriladigan “Huquqiy targ’ibot ishlari a’lochisi” ko’krak nishonini ta’sis etish.

9. Davlat organlari va tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida faoliyat yo’nalishidan kelib chiqib qonun hujjatlari mazmunini tushuntirishga qaratilgan “Huquqiy savodxonlik” ruknlarini tashkil etish.

5. Aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish

1. Yoshidan kelib chiqib aholi huquqiy savodxonligining darajasi bo’yicha minimal talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash, ular asosida fuqarolarning huquqiy bilim darajasini aniqlash va tahlil qilib borish.

2. Advokatlik tuzilmalari va advokatlar tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga bepul ixtiyoriy yuridik yordam ko’rsatish (pro bono) tizimini rivojlantirish.

3. Qonun hujjatlarini aholiga tezkor ravishda yetkazish, shuningdek, sohaga doir qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholiga tushuntirish tizimini takomillashtirish.

4. Axborot-resurs markazlari hamda axborot-kutubxona fondlarini yuridik adabiyotlar bilan boyitib borish.

5. Davlat organlari huzuridagi axborot-tahlil multimedia markazlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyatini kuchaytirish. Bunda dolzarb va aholini qiziqtiradigan huquqiy masalalarni aniqlashtirish (uy-joy va yer olish masalalari, ta'lim muassasalariga joylashtirish, aliment, moddiy yordam, migratsiya, kommunal xizmat masalalari) hamda tahlillar asosida va qonunchilikdagi sohaga oid yangiliklar bo'yicha zarur axborot-tahliliy va ko'rgazmali media materiallarni tayyorlash va efirga uzatish.

6. Aholining kundalik ehtiyojidan kelib chiqib, ularni qiziqtirgan huquqiy mavzular bo'yicha "So'rov bo'yicha huquqiy targ'ibot" loyihasini amalga oshirish.

7. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda munosib hissa qo'shgan huquq targ'ibotchilarining bu boradagi fidoyiligini rag'batlantirib borish maqsadida "Eng yaxshi huquq targ'ibotchisi" va "Huquqiy targ'ibotni amalga oshirishda eng yaxshi innovatsion loyiha" tanlovlarini o'tkazib borish.

8. Xalqimizda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirishga qaratilgan videoroliklar tayyorlash.

9. Xalqimizning huquqiy yodgorliklari va huquq yo'nalishidagi olimlari va arboblari faoliyatini chuqur o'rganish va ularni keng ommaga targ'ib qilish.

10. Aholiga ularning huquq va majburiyatlarini hamda davlat organlari va tashkilotlarning fuqarolar oldidagi majburiyatlarini tushuntirishga, shuningdek, aholini qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy videoroliklarni tayyorlash hamda televideniye va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish.

11. Advokatlik yoki huquqshunos faoliyatiga bag'ishlangan badiiy film va seriallar tayyorlash.

12. Aholini qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan qisqa metrajli filmlar hamda teatr spektakllarini yaratish va tizimli ravishda televideniye orqali berib borish.

13. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusi doirasida kamida 5 ta ijtimoiy videorolik tayyorlash, shuningdek, korrupsiya, halollik, to'g'rilik, qonunga hurmat, adolat tantanasi mavzularida targ'ibot materiallari, didaktik materiallar, multiplikatsion filmlar tayyorlash.

14. Aholida korrupsiyaga murosasizlik kayfiyatini shakllantirish maqsadida ijtimoiy sheriklik asosida korrupsiyaga qarshi targ'ibot materiallari (jurnalistik materiallar, blogpostlar, karikaturalar, buklet, flayer, bannerlar, yumoristik asarlar) megatanlovini o'tkazish.

15. Mehnat migrantlariga turli ijtimoiy-huquqiy masalalar, xususan, migratsiya, ishga joylashish, ta'lim olish, boshqa davlatlarning qonun hujjatlari bo'yicha huquqiy axborotlar olishda tizimli yordam ko'rsatishni o'z ichiga oluvchi maxsus axborot saytini ishlab chiqish.

16. Tashqi mehnat migrantlarini milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalarining mazmuni to’g’risida mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari va vakolatxonalari ko’magida ijtimoiy reklamalar, Internet veb-sahifalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalardan foydalangan holda xabardor qilib borishning aniq mexanizmini ishlab chiqish.

Oldingi tahrirga qarang.

17. Nogironligi bo’lgan shaxslar (ko’zi ojiz va kar-soqovlar uchun) va keksa yoshdagi shaxslar uchun foydalanishga qulay bo’lgan, ularning ijtimoiy himoyasiga oid huquqlariga doir to’plamlarni tayyorlash va xayriya aksiyalarini o’tkazgan holda tarqatish.

(17-band O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-26-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son)

18. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning kelgusida ijtimoiy hayotga moslashuvi uchun ko’mak berish maqsadida jazoni ijro etish muassasalarida masofadan turib ta’lim olish tizimini yo’lga qo’yish.

19. Jazoni ijro etish muassasalarida huquqiy bilimlarni o’rgatish, huquqiy ma’rifat va sudlanganlarni huquqiy tarbiyalash maqsadida “Huquq va men”, “Jinoyat olamidan qaytish” nomli ma’rifiy-huquqiy mashg’ulotlarni muntazam o’tkazish tizimini joriy etish.

20. Harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida:

aniq chora-tadbirlar asosida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining, Temurbeklar maktablari o’quvchilarining huquqiy bilimlarini tizimli ravishda oshirib borish, dunyoqarashi va fikrlash doiralarini kengaytirish;

harbiy qismlarda har oyning juma kuni “Huquqiy savodxonlik soati”ni tashkil qilish, unda mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini harbiy xizmatchilarga yetkazish.

2-bob. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ’ibotning innovatsion usullarini joriy qilish

1. Quyidagi masalalarni nazarda tutuvchi O’zbekiston Respublikasining Milliy huquqiy internet portalini yaratish:

qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi;

barcha milliy huquqiy saytlar;

yuridik lug’at va huquqiy elektron kutubxona;

maqsadli auditoriyalar (davlat xizmatchilari, pedagoglar va boshqalar) uchun majburiy kurslar (mandatory courses).

2. Turli hayotiy holatlar bo’yicha huquqiy yechim taklif etiladigan va davlat xizmatlari ko’rsatish elektron tizimi bilan bog’lanadigan Advice.uz huquqiy axborot tizimini (“O’zbekiston huquqiy forumi” saytini) yaratish va ishga tushirish.

3. Fuqarolarning o’z huquqiy bilim darajasini sinash maqsadida Internet tizimida turli bosqichlarga ega bo’lgan “Huquqiy test” loyihasini yaratish.

4. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Telegram, Twitter, Youtube, Mytube.uz va h.k.) davlat organlari va tashkilotlarning kanallarini tashkil qilish va ushbu kanallarda veb-texnologiyalardan keng foydalangan holda soha faoliyati yo’nalishlaridan kelib chiqib huquqiy targ’ibot materiallarini joylab borish.

Ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarda e’lon qilish uchun materiallarni tayyorlash, joylashtirish va qayta aloqani ta’minlash bo’yicha uslubiy qo’llanma ishlab chiqish.

5. Internet tizimida o’zbek, rus va ingliz tillarida “Huquqiy axborot” telegram kanalini tashkil qilish va unda qonun hujjatlari mazmunini qisqacha tahliliy yoritish, shuningdek, aholining huquqiy bilimlarini yuksaltirishga doir huquqiy materiallarni berib borish.

6. Mamlakatimiz aholisi ko’p foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlarda so’rovlar o’tkazish orqali huquqiy madaniyat va huquqiy ong darajasini tahlil qilish va uning natijasida huquqiy axborotni manzilli yetkazish ishlarini tashkil etish.

3-bob. Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish

1. Huquqiy mavzularni tizimli va tahliliy yoritib borish hamda aholini qonunga hurmat ruhida tarbiyalashga doir teleko’rsatuvlar ko’lamini kengaytirish.

2. Ommaviy axborot vositalarining (matbuot, televideniye, radio) huquqiy targ’ibot sohasidagi faoliyatini rag’batlantirishning huquqiy mexanizmlarini belgilab berish bo’yicha takliflar tayyorlash.

3. Huquqiy davriy nashrlarni internet tarmog’iga integratsiya qilish va ularning elektron nusxalari joylab borilishini ta’minlashni yo’lga qo’yish.

4. Aholining huquqiy xabardorligini oshirish maqsadida “Huquqiy axborot” radio loyihasini tashkil etish va amalga oshirish.

5. Huquqiy sohani yorituvchi jurnalistlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini doimiy oshirib borish tizimini yaratish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

6. Qabul qilingan qonun hujjatlariga mustaqil ekspertlar, mutaxassislar va aholining fikri hamda munosabatini aks ettiruvchi tahliliy tok-shou, bahs-munozara yo’nalishidagi ko’rsatuv va eshittirishlarni efirga uzatish.

7. Aholi o’rtasidagi dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan kelib chiqib, fuqarolarning huquqiy ma’rifatini oshirishga xizmat qiladigan, huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan ta’sirchan teleko’rsatuvlar va radioeshittirishlarni hamda huquqiy mavzudagi loyihalarni tayyorlash va tarqatish.

8. Ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini ta’minlash borasidagi rolini kuchaytirish, ularning davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqasini kuchaytirish yuzasidan qo’shimcha chora-tadbirlarni tashkil etish.

9. Davlat organlari axborot xizmatlarining huquqiy axborotni tarqatishdagi roli va o’rnini kuchaytirish, shu jumladan, davlat organi nufuziga ta’sir ko’rsatadigan salbiy xabarlar bo’yicha zudlik bilan munosabat bildirib borish mexanizmini yaratish.

4-bob. Yuridik ta’limni, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish

1. O’quv jarayonini nazariy tayyorgarlikning huquqni qo’llash faoliyati bilan chambarchas bog’liqligini ta’minlash, talabalarda tahliliy fikrlashni, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ulardan foydalanish mahoratini shakllantirishga qaratilgan o’qitishning zamonaviy shakllari va uslublari hamda texnologiyalari asosida tashkil etish.

2. Yuridik oliy ta’lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot institutlari, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan aloqalarini kuchaytirish bo’yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

3. Zamonaviy xorijiy tajriba asosida yuridik sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasining yangi innovatsion shakl va institutlarini joriy etish bo’yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

4. Ilg’or xorijiy tajriba asosida milliy yuridik ta’lim va yuridik fan sohasini rivojlantirish ishiga ulkan hissa qo’shgan O’zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo’lmagan shaxslarga faxriy doktor darajasini berish tartibini joriy etish.

5. O’quv jarayoniga klinik yuridik ta’limni tatbiq etish yuzasidan yetakchi xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasidan keng va unumli foydalanish.

Tarmoqlararo ta’limni kuchaytirish va bu borada Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichida “Huquq va Tibbiyot”, “Huquq va Qurilish” kabi mutaxassisliklar ochilishini ta’minlash.

6. Huquqiy mavzular bo’yicha ta’lim beruvchi pedagog-o’qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

5-bob. Huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish

1. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo’yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholashning ko’rsatkichlarini ishlab chiqish.

2. Jamiyatda aholining huquqiy savodxonligini oshirib borishni aniq ko’rsatkichlar asosida o’rganib borish va baholash.

3. Huquqiy fanlarni rivojlantirishning ilmiy asoslangan rejalarini ishlab chiqish va uning ustuvor yo’nalishlarini aniqlash.

4. Huquqiy tarbiyaning ilmiy asoslangan uslubiyotini ishlab chiqish.

5. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo’yicha magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari tayyorlash ko’lamini kengaytirish, bunda oiladagi mojaro va zo’ravonliklar hamda ularning ijtimoiy-huquqiy oqibatlarini kompleks tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratish.

6. Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida ilmiy-texnik loyihalar va innovatsion ishlanmalar tanlovida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning tashkiliy-huquqiy, pedagogik-psixologik jihatlarini tadqiq etishga oid mavzularni muntazam e’lon qilib borish.

7. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish holati hamda bu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini o’rganish uchun fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, fuqarolar bilan hamkorlikda sotsiologik, maxsus, ilmiy tadqiqotlar hamda boshqa turdagi tadqiqotlar va so’rovlar o’tkazish.

**IV. Konsepsiyaning qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar**

Konsepsiyani amalga oshirish natijasida quyidagilar kutilmoqda:

fuqaro, davlat va jamiyatning o’zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirish, shaxsiy ehtiyojlar hamda jamiyat ehtiyojlari o’rtasidagi muvozanatning saqlanishini ta’minlash;

bola va yoshlar ongiga ilk huquqiy tushunchalarni va odob-axloq qoidalarini tizimli singdirib borish, huquqiy ta’lim-tarbiyani uzviy va tizimli olib borishga erishish;

huquqiy targ’ibotning innovatsion usullarini yaratish va joriy etish, huquqiy bilimlarni targ’ib qilishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

mansabdor shaxslar va fuqarolarda qonunga va huquqqa bo’lgan hurmat hissini kuchaytirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini ta’minlash.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoniga

**3. Huquqiy savodxonlik - huquqiy madaniyat asosi.** Jamiyat hayoti va faoliyatida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta’minlash maqsadida huquqiy bilimlarning asoslarini yaratish zarur.

Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligi, avvalambor, Konstitutsiya va qonunlarga xurmat bilan munosabatda bo‘lishni ta’minlaydi. Bu - huquqiy normalarga yuzaki munosabatda bo‘lish fikrining o‘zi bo‘lmasligi kerakligini ifodalaydi. Qonunga xurmat har bir insonning qalbidagi chuqur e’tiqodi bo‘lmog‘i lozim. U insonning yoshligidan boshlab ongiga singib, mustahkamlanib borishi kerak. Bu - ota- onalar, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablar, barcha jamoat uyushmalari va davlat tashkilotlari, butun jamiyatning ulkan, sermashaqqat ishidir. Nima mumkinu, nima mumkin emasligi haqidagi huquqiy normalar barchata ma’lum. Qonunni buzish mumkin emasligini tushunish yuridik dunyoqarashning “qalb ko‘zi” bo‘lmog‘i darkor.

Sovet davridagi huquqiy nigilizm, ya’ni qonun va huquqiy normalarga yuzaki, bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish, kishilar ongida chuqur iz qoldirgan va qisqa muddat ichida qonunga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirishga erishish juda qiyin. Endilikda huquqiy tarbiya borasida uzoq vaqt, doimiy va tinimsiz ishlash, fuqarolarni qonunga xurmat bilan munosabatda bo‘lishga ko‘niktirish yuzasidan betinim mehnat qilish zarurdir.

Qonun - nafaqat majburiy huquqiy farmoyish, balki xalq irodasining ifodasi hamdir. Uni xalq saylagan parlament qabul qiladi. Davlat xokimiyatining xam, qonunning ham manbai xalqdir. Uning zamirida qonunning ustunligi g‘oyasi yotadi. Xalq manfaatlari va xohish-irodasidan ustun turuvchi narsa bo‘lishi mumkin emas. Qonunga itoatkor fuqarolar buni doimo yodda saqlaydilar. Qonun va qonunga itoatto‘y fuqarolar harakatlaridagi hamjihatlik huquqiy davlatga kuch-quvvat bag‘ishlaydi.

Qonunga itoat etish huquqiy madaniyatning asosidir. Davlat aholining huquqiy madaniyatini oshirish masalasini qo‘yib, qonunga ko‘r-ko‘rona itoatkor bo‘lishni emas, balki fuqarolarning uning talablarini ongli ravishda bajarishlariga erishmoqda. Fuqarolarning qabul qilinayotgan har qanday qonun hujjatlari, Prezident farmonlari va xukumat qarorlarining ma’nosi va ahamiyatini anglab yetishlari muhimdir. Ammo yanada muhimi shundaki, bu ularning e’tiqodiga

aylanishi kerak, zero ana shundagina fuqaro o‘zining hayotiy faoliyatida qonun normalariga jazolanishdan qo‘rqib emas, balki ixtiyoriy ravishda amal qiladi. Mana shundagina haqiqiy yuksak huquqiy madaniyat, huquqiy ongning munosib darajasi haqida xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi.

Qonunlar va huquqiy hujjatlarni bilishlik fuqarolar kundalik xulq-atvorlarining qonun hujjatlaridagi talablarga muvofiqlashuviga, har xil hayotiy vaziyatlarda o‘zlarini to‘g‘ri tutishlariga imkon beradi.

Biz demokratik huquqiy davlat qurilayotgan mamlakatda yashamoqdamiz. Bu adolatli fuqarolik jamiyati sari borayotganligimizni, unda taraqqiy etgan, adolatli qonun hukmron bo‘lishini bildiradi. O‘z navbatida, bu fuqarolarga nisbatan talablarni oshiradi. Ular o‘z davlatining qonunlarini bilishlari va ularga so‘zsiz rioya etishlari kerak. Qonunchilik va huquqiy madaniyatni taraqqiy ettirish va takomillashtirish huquqiy madaniyatni shakllantirishning yagona yo‘lidir.

“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi keng qamrovli tizimni barpo etishga qaratilgan. U aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirishni, fuqaro, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda hamjihatlikni ta’minlashni, fuqarolarning huquqiy ta’limi va huquqiy tarbiyasini takomillashtirishni, davlat apparati xodimlari va fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirishni, huquqshunoslarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, ularning malakalarini oshirishni, huquqiy madaniyat sohasida ilmiy izlanishlar olib borishni ko‘zda tutadi.

Dastur barchani va har bir insonni yuridik taraqqiyotaing istiqboli haqidagi bilimlar bilan qurollantarishga da’vat etadi. Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy madaniyatai yuksaltarish milliy dasturi to‘g‘risida”gi qaror aholining huquqiy madaniyatani oshirish borasidagi ishlar qisqa muddatli “kampaniya” emas, balki davlataing ma’lum maqsad sari yo‘naltarilgan strategik kursi, jamiyat faoliyata va hayotada qonunning ustunligani ta’minlash borasidagi kundalik mehnat ekanligidan guvoxdik beradi.

Ma’lumki, qonunda ijtamoiy ahamiyatga ega bo‘lgan savollarga javob bor. U yagona adolatli mezondir. Shuning uchun aholiga huquqiy xizmat ko‘rsatashni, aholiga ommaviy-huquqiy ta’lim berishni kengaytarish davlataing birlamchi vazifasidir. Shu maqsadda “Jamiyatda huquqiy madaniyatai yuksaltarish milliy dasturi” maktabgacha tarbiya muassasalari, oliy o‘quv yurtlari va umumta’lim maktablarida huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya borasida yuridik bilimlarni test sinovi va davlat imtahonlari tarzida joriy etash, pedagoglarning huquqiy madaniyatani ko‘tarish, ilmiy noshirlikni, ilmiy-ommabop yuridik adabiyotlarni, ma’lumotnomalarni ko‘paytarishni taqozo etadi.

Huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya kampaniya tarzida emas, balki ma’lum maqsadni ko‘zlab, rejali va samarali tarzda, turli ijtimoiy guruhlarning xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borilishi lozim. Shuni alohida ta’kidlash joizki, hali huquqiy madaniyatni yuksaltarish va huquqiy tarbiya masalalari bo‘yicha o‘tkazilayotgan ilmiy izlanishlar yetarli emas. Huquqiy davlat, qonun va Konstitutsiya talabi nuqtai nazaridan yuridik hujjatlar, hukm va sud hujjatlarining hammasi ham talabga javob bermaydi.

Huquqni ko‘llash faoliyatani yaxshilash, aholiga huquqiy xizmat qilish sifatini ko‘tarish, huquqiy ma’lumotlar bilan ta’minlash, huquqiy tarbiya vositalari va usullarini takomillashtarish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirish mumkin.

Bu ishda yuristlar va ularning uyushmalari o‘zlarining munosib ulushlarini qo‘shmoqlari zarur. Yuristlarning kasbiy faoliyati fuqarolarning hukuqiy madaniyati va huquqiy ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi. Huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya uzoq davom etuvchi, izchil, og‘ir va ko‘p qirrali jarayondir. U huquqqa oid ishlar saviyasini ko‘tarishni, barcha fuqarolar, mansabdor shaxslar va jamiyatning Konstitutsiya va qonunlarga qat’iy rioya qilishlarini talab qiladi.

Bunda yoshlarning o‘zining huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi yuridik faoliyatining rolini ham hisobga olish kerak bo‘ladi. Ana shu nuqtai nazardan olganda, yoshlarning jamoatchilik tartibini saqlashda, demokratik davlatda qonunchilik va huquqiy tartibotni mustahkamlash ishida bevosita va amaliy ishtirok etishlari g‘oyat muhimdir. Tajribada huquqiy qoidalarni qo‘llanish borasidagi amaliy malaka va qobiliyatlarning shakllantirilishi huquqiy tarbiyaning muhim jihati hisoblanadi.

Shunday qilib, ma’naviy ong, estetik qarashlar singari huquqiy ong ham shaxsning turmushi, amaliyoti jarayonida shakllanadi.

Huquqiy tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo‘naltirilganligining tarkibiy qismi sifatidagi huquqiy qarashlari va dasturlari asoslariga negiz yaratish ayniqsa muhimdir. Yosh inson kelgusida unga qaratilgan huquqiy va boshqa ijtimoiy axborotlarni ana shunday dasturlar nuqgai nazaridan kelib chiqib qabul qiladigan va tafakkuridan o‘tkazadigan, o‘zining va boshqalarning harakatlariga baho beradigan, faoliyatini rejalashtiradigan va oldiga aniq maqsadlarni qo‘yish bilan bir vaqtda ularga erishish vositalarini ham belgilaydigan bo‘ladi. Agar huquqiy tarbiya kechiktiriladigan bo‘lsa, unda nafaqat tegishli e’tiqodlar, dasturlarni shakllantirishga, shu bilan birga o‘z-o‘zidan qaror topib ulgurgan salbiy tusdagi e’tiqodlarni barham toptirishga ham to‘g‘ri keladi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, odamlar yangi axborotni ongidan o‘rin olib ulgurgan dasturlar, e’tiqodlar nuqgai-nazaridan kelib chiqib qabul qilishadi.

**2. Qonunchilik va huquqiy tartibotni ta’minlashda huquqiy tarbiyaiing roli.** Xalqning xohish-irodasi va manfaatlarini ifodalaydigan, ijtimoiy taraqqiyotning ob’ektiv qonuniyalariga muvofiq bo‘lgan yaxshi qonunlarga ega bo‘lishgina emas, shu bilan birga ularga so‘zsiz rioya etilishiga ham erishish nihoyatda muhimdir. Qonunlarning ijro etilishi quyidagicha butun bir tizimli kafolatlar: iqtisodiy, siyosiy, yuridik va mafkuraviy kafolatlar mavjud bo‘lganidagina real bo‘ladi. Mafkuraviy kafolatlar: fuqarolarning milliy ma’naviyatning qayta taklanishi negizida tarbiyalanishi, ularning ma’rifiy, madaniy, onglilik darajasini o‘starishdan iborat. Ular qonunlari butun xalqning xohish-irodasini ifodalaydigan va ayrim fuqarolar manfaatlariga antagonistak tusda qarshi turadigan qoidalardan xoli bo‘lgan demokratik davlatni barpo qilish sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Rivojlanib borayotgan demokratik

jamiyatning qonunlari xarakterining o‘ziyoq ularga ixtiyoriy tarzda va so‘zsiz rioya etilishi va ijro qilinishini taqozo etadi.

Agar qonunlarning ijro qilinishini ta’minlashning ishontirish va majburlash kabi usullarining nisbati haqida gapiradigan bo‘lsak, unda shuni e’tirof etish kerakki, erkin demokratik jamiyatda huquqiy tarbiya jarayonida shakllantiriladigan, muayyan holatlarda ma’naviy ong nuqsonlarining namoyon bo‘lishini bartaraf etishga yoki ma’naviy tasavvurga o‘zgartirishlar kiritishga qodir bo‘lgan e’tiqod hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Yuqorida qayd qilinganidek, fuqarolarning qonunlarning ijtamoiy mohiyatini, zarurligini va dalolatliligani anglab yetishlari mustaqil, demokratik, insonparvar davlatni barpo etash sharoitida qonunchilikning ta’minlanishida birinchi darajali ahamiyatga ega, lekin ularning huquqiy ko‘rsatmalarini ijro qilmaganlik uchun javobgar bo‘lishi haqida xabardor qilinishi, qonunni buzuvchi muqarrar ravishda davlatning majburlash usuliga duch kelishini anglab yetashi ham muayyan alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning axloqiy va unga muvofiq bo‘lgan huquqiy talablari shaxsiy xulq-atvor me’yorlari darajasiga yetmagan, unda har doim ma’naviy jihatdan to‘g‘ri va qonunga itoatkorlik bilan ish tutash bo‘yicha ichki ehtiyoj hosil bo‘lmagan hollarda bu ayniqsa muhimdir. Huquq, boshqa ijtimoiy me’yorlardan farqli ravishda, uni buzishlardan davlatning majburlash tusidagi chora-tadbirlari vositasida himoya qiladigan va hatto, o‘smir o‘zining shaxsiy manfaatlari yo‘lida qonunni qurbon qilishga tayyor turgan hollarida ham uning xulq-atvoriga g‘oyat samarali ta’sir ko‘rsatashga qodir bo‘ladi. Biroq huquqbuzarlikning qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini anglab yetish yoshlarni huquqbuzarlikni sodir qilishdan o‘zini tutishga majbur etashi mumkin.

Ba’zan shunday savol beriladi: yoshlar sodir etadigan huquqbuzarliklarning ko‘pchiligi ularning qonunlarni bilmasligi oqibatida yuz beradimi? Bu savolga javob berish ancha murakkab. Agar faqat o‘smirlar jinoyatlarni sodir etishda aslida buning bilan jamiyat va davlat qoralaydigan qilmishlarga yo‘l qo‘yganligini bilmagan, ya’ni o‘z xatti-harakatlarining salbiy baholanishi mumkinligi yuzasidan adashgan hollar nazarda tutaladigan bo‘lsa, unda ular kamdan-kam uchraydi. Ko‘pincha boshqa holatlar yuz beradi: o‘smirlar bunday qilmishning qoralanishini bilishadi, lekin bunday qoralanishning qay darajada bo‘lishini tasavvur etishmaydi. Qator hollarda voyaga yetmagan huquqbuzarlar jinoyat haqidagi qonunlar ustidan hatlab o‘tar ekan, bunda noaxloqiy harakat bilan huquqqa zid qilmish o‘rtasidagi, jinoyat bilan boshqa huquqbuzarliklar o‘rtasidagi chegara qaerda bo‘lishini anglab yetishmaydi. Holbuki, yo‘l qo‘yilgan qilmishning xarakteri haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lish kutil adigan javobgarlik darajasini to‘g‘ri belgilash imkoniyatini beradi.

Shu jihatdan olganda, o‘rtoqlariga qo‘shilib, sabzavot bazasidan bir necha quti olma o‘g‘irlashda ayblangan yoshlar bilan sudya o‘rtasidagi suhbat ibratlidir. O‘smirlar olmalarning bir qismini shunchaki tarqatib chiqishgan, qolganlarini esa past bahoda sotib yuborishgan va tushgan pullarni taksida sayr qilishga ishlatishgan.

- Sizlar nima uchun o‘g‘rilik qildingizlar?

- Hammaga qo‘shilib men ham bordim.

- Siz jinoyat qilayotganingizni bilarmidingiz?

- Shuyam jinoyat bo‘ptimi? Bor-yo‘g‘i sho‘hlik-ku.

Ko‘rinib turganidek, o‘smirlar bunday “sho‘xlik” uchun O‘zbekiston Respublikasi JKning 114-moddasi 2-qismiga ko‘ra javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda (bir guruh shaxslar tomonidan) sodir qilingan davlat mulkini o‘g‘irlash sifatida belgilanib, buning uchun olti yilgacha bo‘lgan muddatga ozodliqdan mahrum etish shaklidagi jazoga tortish nazarda tutilganini bilishmagan. Ularning ayrimlari bu atigi sho‘xlik-ku, demak buning uchun koyib, urishyb qo‘ya qolishadi, deb: boshqalari esa, buni nari borsa mayda bezorilik deyishar, deb o‘ylashgan. Mayda bezorilik, ma’lumki, jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lmaydi. “Juda bo‘lmaganida 15 sutka o‘tirib chiqamiz-da”, - ular shunday deb qo‘ya qolishgan.

Bunday harakatlarning sodir qilinganligi uchun jinoyat haqidagi qonunlarda jazo nazarda tutilgan. Bir o‘smir: “Men hech narsa qilganim yo‘q, bor-yo‘g‘i o‘rtog‘imdan pul so‘ragandim”, - deb o‘zini okdamoqchi bo‘lgan edi. U “bor-yo‘g‘i so‘rash”ning bunday holda tovlamachilik deb atalishini bilmagan. Shunday bo‘lgach, ularning har biriga alohida tarzda qilmishlarining qonun doirasida qanday tusga ega bo‘lishini tushuntirib o‘tirishga to‘g‘ri keladi.

Hammaga ham bolaligidan boshlab o‘zganing narsasini olish, janjallashish, jamoat tartibini buzish mumkin emas, deb o‘rgatiladi, lekin, afsuski, voyaga yetmaganlar hamisha ham bunday umumiy qoidalarni muayyan vaziyatlarda qo‘llashni eplay olishmaydi. Tekshiruvlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina huquqbuzarlar uchun nafaqat harakatlar xarakteri, shu bilan birga, avvalo, ularning sabablari ahamiyatga ega bo‘ladi. Huquqbuzarlarning juda ko‘pchiligining fikricha, uchiga chiqqan dilozorni kaltaklash - bu jinoyat emas, qarindosh-urug‘ining pullarini o‘g‘irlab qo‘yish ham jinoyatga kirmaydi, ularning o‘ylashicha, qiziqqanligi, kolleksiya qilmoqchiligi maqsadida turli radiodetallari, nodir markalar va boshqa buyumlar va shu kabilarni o‘g‘irlab olish hollari ham huquqqa zid hollarga tegishli bo‘lmaydi. Bunday huquqbuzarlar odatda quyidagicha fikr yuritishadi: “Men radiopriemnik yig‘ayapman, bu yaxshi ish. Do‘konlarda menga kerakli radiodetallar yo‘q bo‘lsa, bu mening aybim emas-ku. Davlat bunday detallarni ko‘proq chiqarishi kerak. Agar men zavodda o‘zimda yetishmayotgan bir necha detallarni olgan bo‘lsam, buni qilishga majburligimdan shunday qildim”. Bunday sxemaning xatoligi, yaqqol boqimandalikni payqab olish qiyin emas: menga taxt qilib berishlari shart edi, shunday qilishmadimi - unda “davlat o‘zidan ko‘rsin”. Bunday nuqgai nazar qonundan ancha yiroq, huquqbuzarlik sodir qiluvchi ko‘pgina voyaga yetmaganlar ayni shu narsani tushunib yetishmaydi.

Ko‘pincha o‘smirlarning jinoyatlari nafaqat muayyan huquqiy ko‘rsatmalar - xulq-atvor qosdalarini, shu bilan birga huquqiy javobgarlik tamoyillari, uning xarakteri va miqsorlarini bilmaslik bilan ham bog‘likdir. Masalan, ko‘pgina voyaga yetmaganlar o‘rtasida shunday bir qarash ko‘p tarqalganki, unga ko‘ra bunday bolalarning jinoyatlari uchun ularning o‘zlari emas, balki, avvalo, ota-onalari, pedagoglar va boshqa katga yoshdagi kishilar javob berishadi. 2000

o‘quvchiga, ularning fikricha, voyaga yetmagan bolaning bezorilik harakatlari uchun kim javob berishi kerak, degan savol berildi. Ularning 50 foizi respublikada qonun qabul qilish huquqiga ega organ haqidagi savolga to‘g‘ri javob bera olishmadi. Har o‘n boladan biri O‘zbekiston Respublikasining BMTga kiradigan mustaqil davlat sifatidagi huquqiy maqomini bilishmaydi. So‘ralganlarning 29 foizi Toshkent shahrida ijrochi- farmoyish beruvchi hokimiyatni noto‘g‘ri belgilashgan. Ularning 15 foizi qanday organning hukmlar chiqarish huquqiga ega ekanligi haqidagi savolga javob bera olishmadi. So‘ralgan bolalarning 17 foizi esa “Voyaga yetmagan bolaning o‘zi”, deb javob qilishdi. Aslida esa 14-17 yoshdagi o‘smirlar to‘g‘risida ran borayotgan edi. Ular katgalarning tarbiyalanuvchi sodir qilgan jinoyat uchun emas, balki uning xulq-atvorini lozim darajada nazorat qilishmagani, mabodo tarbiyalash jarayonida qandaydir xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, unda ana shu xatolar bo‘yicha shaxsiy aybi uchun javob berishlarini tushunishmagan. Jinoyat uchun o‘smirning o‘zi javob beradi. Ayni shusday savolga voyaga yetmagan huquqbuzarlar boshqacha tarzda javob berishgan. Ularning 60 foizi kimki bezorilik harakatlarini sodir etgan bo‘lsa, shu shaxsning o‘zi javobgarlikka tortiladi, deb javob qilishgan.

Shunisi muhimki, huquq va huquqiy javobgarlik haqidagi to‘g‘ri tasavvur o‘z vaqtida, jinoyat sodir qilinganidan keyin emas, balki u sodir qilinmasidan avval hosil qilinishi kerak va o‘smir uchun uning jinoyati sababli jinoiy javobgarlikka tortish jarayonida duch keladigan advokatlar, tergovchi, prokuror, sud huquqiy axborotni olish manbai bo‘lib qolmasligi lozim. Voyaga yetmagan huquqbuzarlarning huquqiy axborotni olish manbai sifatida “o‘z gardanimda sinab ko‘rganman”, deb ko‘kragiga mushtlaydigan shaxslarni ko‘rsatishi darajasiga yetib borish esa mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan holdir. Bu, tabiiyki, ular o‘rtasida olib boriladigan huquqiy-tarbiyaviy igshlardagi nuqson, albatta.

Shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, ma’naviy qarashlari va qadriyatlarga oid yo‘naltirilganligi buzilgan hollarda huquqiy bilimlar va tasavvurlardagi nuqsonlar, ayniqsa, sezilarli aks etadi. Turli sabablarga ko‘ra ma’naviy ong “faoliyat ko‘rsatmaydigan” joyda huquqiy ong qonunga itoatkor xulq- atvorning yagona tartibga solib turuvchisi bo‘ladi; u yosh inson ko‘nglida paydo bo‘ladigan qonuniy va- huquqqa zid xohish-istaklarni chegaralab turadi, tegishli xohish-istakni amalga oshirish natijasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan oqibatlar to‘g‘risida tasavvurlarning to‘g‘ri shakllanishiga ko‘maklashadi. Ma’naviy ong xulq-atvorning sabablarni izlash jarayoniga keraklicha ta’sir ko‘rsatadigan joyda huquqiy ong bunday ta’sirni yanada kuchaytiradi.

Huquq yoshlar uchun ularning har biriga bevosita taalluqli bo‘lgan reallikka aylanishi va ularni o‘zlarining xatti- harakatlarini, xohish-istaklarini, rejalarini nafaqat jamiyatimizning siyosiy va axloqiy me’yorlari, qarindoshlar va yaqinlarining talablariga, shu bilan birga davlatning ko‘rsatmalariga ham qarab o‘lchashga o‘rgatish zarur.

Demokratik ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish sohasi kengayib, ijtimoiy boshqaruvda huquqiy asoslar chuqurlashib, huquqning nufuzi ortib borayotgan hozirgi vaqtda bu alohida ahamiyat kasb etmoqda. Huquq inson turmushining hamma jihatlariga tegishli bo‘lib, uni butun hayoti davomida va bu

qanchalik mantaqqa zid kelmasin, undan keyin ham u bilan hamisha yonma-yon yuradi. Hali go‘dak dunyoga kelmasidan oldin huquq bo‘lg‘usi onaning salomatligi haqida g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, yangi fuqaroning zarur shaxsiy va mulkiy huquqlarini ta’minlash bilan uni himoya etadi.

Huquq nikoh-oila munosabatlarini, ta’lim, mehnat, dam olish, sog‘liqni saqlash, uy-joylardan foydalanish, yerlardan, suv, boshqa tabiat boyliklaridan foydalanish, turli tovarlarni sotib olish, buyumlarni ijaraga olish, fuqarolarning o‘zlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi va yana ko‘plab boshqa narsalarni tartibga solib turadi.

Demokratik, insonparvarlik jamiyatining huquqiy negizini mustahkamlash yangi Konstitutsiya, (sog‘liqni saqlash, tabiatni muhofaza etish haqidagi va boshqalar) qonunlarning qabul qilinishi, boshqaruv sohasida demokratik islohotlarning bir tartibda rivojlantirilishi, davlat standartlari va ilgari butunlay texnik ish deb qaralgan boshqa qoidalarning qonun darajasiga ko‘tarib qo‘yilishiga sabab bo‘ldi.

Tabiiyki, o‘smirlar barcha huquqiy normalarni o‘zlashtirib olmasdan o‘z davlatining ongli va mas’uliyatli fuqarolari bo‘la olmaydilar.

Huquqqy-tarbiyaviy ishlar, huquqiy ongning qonunlarning aniq ijro etilishi va rioya qilinishini ta’minlash bilan bog‘lanish mexanizmi murakkabdir. Jumladan, huquqbuzarliklar ahvoli nafaqat noloyiq tarzdagi ehtiyojlar, qadriyatlar, ma’naviy va huquqiy qarashlar va shu kabilarga ega, ya’ni huquqbuzarliklarni sodir etishga tayyor qancha shaxslarning mavjudligigagina emas, shu bilan birga boshqa fuqarolarning huquqbuzarliklarga qarshi kurashdagi faolligi darajasiga, ularning bunday huquqbuzarliklarga nisbatan qanday munosabatdaligi va qanday munosabat bildirishga tayyorligiga ham bog‘liqdir. Agar atrofdagilar huquqbuzarlikka nisbatan passiv pozitsiyada bo‘ladigan yoki, hatto, qarindoshi yoki tanishi jinoyat sodir qilgani holda uni avvalo qonunda nazarda tutilgan javobgarlikdan “asrab qolish”ga urinadigan bo‘lsalar, tabiiyki, bunday hollarda huquqbuzarlar taltayib ketishadi va yangi-yangi jinoyatlar qilishdan cho‘chishmaydi. Shuning uchun huquqiy tarbiya nafaqat kishilarni huquqbuzarliklarni sodir qilishdan tutib turish bilan ularning qonunga itoatkor xulq-atvorini ta’minlash, shu bilan birga huquqbuzarliklarga nisbatan toqat qilib bo‘lmaslik munosabatini shakllantirish vazifasini hal etishi, fuqarolarning huquqiy faolligini oshirishga, ularni o‘z vaqgida huquqbuzarliklarning oldini olish va ogohlantirish ishiga bosh qo‘shishga ko‘maklashishi kerak. O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qonunlarni himoya qilish borasida aynan shunday faollikni taqozo etadi.

**3. Huquqiy tarbiyaning xususiyatlari va vazifalari.** Huquqiy tarbiya o‘z tarixiga ega bo‘lib, qonunlarning aniq ijro etilishiga ta’sir ko‘rsatishga qodir, siyosiy tuzilishidan qat’i nazar hamma davlatlar undan manfaatdor.

Ma’lumki, qadimgi Yunoniston (Gresiya) va Rimda bolalikdan boshlab fuqarolarga qonunlar o‘rgatilgan. Rim davlatida 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar ‘qonunlarning 12 jadvalini yod olganlar. Eramizdan oldingi III asr boshlarida mavjud bo‘lgan va bizgacha yetib kelgan “Fuqaro Xersonesning qasamyodi”da, jumladan, shunday deyiladi: “Men fuqarolarning hech biriga nisbatan hech qanday

adolatsiz ishni xayolimga keltirmayman... va bunaqa ishga yo‘l qo‘ymayman, uni yashirmayman ham, lekin uni sud e’tiboriga yetkazaman va sudsa qonunlarga muvofiq ovoz beraman”. Bu o‘rinda ran nafaqat qonunlarga rioya etilishi haqida, shu bilan birga yoshlarning va boshqalarning qonunlarni buzishlarini fosh qilishga jalb etilishi to‘g‘risida ham borgan.

Huquqiy tarbiya muammolari Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSh kabi mamlakatlarda huquqiy tarbiya masalalari doimo diqqat markazida bo‘lib, uning ko‘p muammolari hal etilgan. Bunda har doim huquqiy tarbiyaning ayni bir vaqtda o‘sib kelayotgan avlodga ham siyosiy, ham ma’naviy ta’sir ko‘rsatilishi ekanligini tushunib yetish namoyon qilingan va hatto ta’kidlab o‘tilgan. Masalan, Fransiyada 1879 yilda joriy qilingan maktablarda axloq va huquqning o‘qitilishi “fuqaro”, “mamlakat”, “askar”, “qonun”, “jamiyat”, “adolat” kabi va boshqa bir qator shunday so‘zlarning ma’nosini tushuntirib berishdan boshlangan. Bolalar 9-11 yoshida davlat qurilishi, shuningdek, harbiy xizmat, soliqlar va shu kabilar haqida oddiy tasavvurlarga, keyinroq esa - davlat va huquq to‘g‘risida ancha batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lishgan.

Siyosat - iqtisodiyotning umumlashtirilgan ifodasi, deyiladigan bo‘lsa, huquq to‘g‘risida u siyosat, iqtisodiyot va shu davlatda bo‘lgan axloqning umumiylashtirilgan ifodasi, deyish mumkin bo‘ladi.

Huquqiy tarbiya hamisha davlatning siyosat, iqtisodiyot va axloqqa nisbatan o‘z nuqtai nazarini aholiga aniq yetkazib berish borasidagi eng ishonchli yo‘l hisoblanadi. Huquqiy normalar yozma shaklda ifodalanadi va shu tariqa odamlar u bilan davlat tomonidan ta’riflanganidek shaklda tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘sib kelayotgan avlod huquqiy tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o‘z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi. Ularning hammasi prinsipal jihatdan yangi, yanada murakkab muammolarni hal etish zaruriyatini taqozo qiladi.

Avvalo, huquqiy tarbiya yangi insonni kamol toptirishning samarali vositasi hisoblanadi. Qonunlar jamiyatimizning eng muhim axloqiy normalarini ifodalash bilan ayni bir vaqtda ushbu normalarning nafaqat e’lon qilinishi, shu bilan birga real ta’minlanishining dalili bo‘lib ham xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda huquq qudratli tarbiya vositasi hisoblanadi.

Huquqiy tarbiya yana shuning uchun ham muhimki, jamiyat qonunlari o‘zining dalzarbligini saqlab qoladigan ilg‘or va insoniy qoidalarni o‘z ichiga olgan bo‘ladi. Turgan gapki, o‘z mohiyatini yo‘qotgan normalar barham topadi, lekin ko‘pgina narsalar saqlanib ham qolai. Avvalo, mehnat intizomiga, uning samaradorligini, unga nisbatan ijodkorona munosabatni ta’minlashga, iqtisodiy negizni mustahkamlashga, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarning uyg‘un tarzda qo‘shib olib borilishiga, odamlarning bir-biriga do‘stona munosabatda bo‘lishiga taalluqli va shu kabi qoidalar yashab qoladi. Endi ular huquqiy norma, qonun sifatida bo‘lmaydi. Odamlar tegishli qoidalarga amal qilishga o‘rganishadi, bu ular uchun odat tusiga kiradi. Ana o‘shanda bunday qoidalarni qonunlarda mustahkamlab qo‘yish va ularni, mabodo bunday qoidalarga rioya qilinmaganida buning uchun tegishli huquqiy javobgarlikka jalb qilinadi, degan ko‘rsatma orqali

isbotlab qo'yishga bo'lgan zaruriyat o'z-o'zidan barham topadi. Bunday qoidalar endi ma'naviy tartibga soluvchilar tarzida amal qilaveradi.

Bunday holatning iloji boricha tezroq paydo bo'lishi uchun yoshlarning diqqat-e'tiborini har doim tegishli normalarga qaratib turish, ularning mohiyatini ko'rsatib berish zarur. Bunday normalarni ijro etish har bir kishining ichki ehtiyojiga aylanguniga qadar huquqiy ko'rsatmalarga rioya qilishni o'rgatish jarayonida shu bilan birga ularning davlat-huquqiy tabiatini, davlat tomonidan majburlov choralari qo'llanishi mumkinligini ham ta'kidlab turish maqsadga muvofiqdir. Aniq va majburiy huquqiy normalar bilan tanishtirish bizning huquqimizda yuksak siyosiy va axloqiy talablarga asoslangan xulq-atvor odatlarini mustahkamlash uchun zarur. Shuning uchun yosh fuqarolarning huquqiy tarbiyasiga katta e'tibor beriladi. Yoshlarda davlat-huquqiy masalalarga ijodiy munosabatni shakllantirish muhim, chunki ularning kelgusida davlatchiligimizning rivojlantirilishi va takomillashtirilishi bilan bog'liq muammolarni hal etishiga to'g'ri keladi. Faqat ana shunday muammolarni hal qilish ishida huquqiy tartibga solishning asosiy prinsiplari bilan tanish, qonunchilik to'g'risida tasavvurga ega, Konstitutsiyami biladigan, o'z davlati va huquqi, qonunni hurmat qilish ruhida tarbiyalangan kishilar ishtirok etsagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.Shuni unutmaslik kerakki, tarbiyalanuvchilarning voyaga yetmaganlik yoshi - vaqtinchalik hol, ertaga ular katta yoshdagi kishilarga aylanadilar, jamiyatimiz va davlatimizning ravnaq topishi ularga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun yoshlarning huquqiy tarbiyasi "uzoqni ko'zlagan" bo'lishi, ularning nafaqat bugungi kundagi huquqiy holatini, shu bilan birga katta yoshdagilarning ertangi kundagi huquqiy holatini ham hisobga olgan holda qurilishi lozimki, bunda mustaqil suveren davlatning barpo etilishini davom etgiruvchi katgalar nazarda tutilmog'i kerak. Shu sababli yoshlarni shunchaki "qonunning formal talqini" bilan tanishtirib qolmasdan, ularga birmuncha alohida tusdagi masalalarning hal etilishiga asos bo'ladigan asosiy huquqiy tamoyillar to'g'risida ham tasavvur berilishi kerakligiga jiddiy e'tibor berilishi bejiz emas.

Rivojlanib borayotgan demokratik: jamiyat sharoitida, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, yosh insonlarning yuksak ijgimoiy-huquqiy faolligini shakllantirish, ularning turli huquqbuzarliklarga qarshi, qonunchilik va huquqiy tartibotni mustahkamlash uchun kurashda mustaqil ishtirok qilishiga erishish g'oyat muhimdir.

Yoshlarni huquqbuzarliklarga qarshi qonunlarda belgilangan tartibda kurashishga o'rgatish zarur. Bu ishda hokimliklar, kasaba uyushmalari, O'zbekiston yoshlari, jamoat tashkilotlari, O'zbekiston xalq-demokratik partiyasi faol ishtirok etmoqdalar.

Yangi insonni kamol toptirish va huquqiy tartibni ta'minlash yoshlar huquqiy tarbiyasining umumiy vazifalari hisoblanadi. Biroq huquqiy-tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish manfaatlari bunday faoliyat yo'nalishlari va mazmuni haqida yanada batafsil tasavvur hosil qiladigan birmuncha alohida vazifalarning ham ajratib ko'rsatilishini taqozo etadi. Ular quyidagilardir:

birinchidan, davlat va huquq masalalariga doir bilimlarning zarur tizimini shakllantirish, huquqning joriy va dolzarb masalalari yuzasidan xabardor qilish.

ikkinchidan, davlat va huquq, qonuniylik prinsiplariga nisbatan hurmatni shakllantirish.

uchinchidan, qonunga muvofiq xulq-atvor ko‘nikmalarini singdirish.

to‘rtinchidan, faol fuqarolik pozitsiyasini, har xil huquqbuzarliklarga nisbatan toqatsizlik munosabatini tarbiyalash.

beshinchidan, qonunda belgilangan tartibda o‘zining, davlat, jamiyat va boshqa shaxslarning manfaatlari va huquqlarini faol himoya qilishga ehtiyojni va bunday qobiliyatni shakllantirish.

oltinchidan, davlat va huquqqa nisbatan noto‘g‘ri qarashlarga qarshi tura bilish, ularni faol va ishonarli tarzda fosh qilish qobiliyatini singdirish.

Bilimlar xususida gapirganda, bu o‘rinda, avvalo, yoshlarga bilimlarni qanday hajmda yetkazish kerak, degan savol ko‘ndalang bo‘ladi. Nazarimizda, umumiy ta’lim maktabi doirasidagi huquqiy tarbiya birinchi navbatda voyaga yetmaganlarni ular hozirda ijro etayotgan va kelgusida bajarishi lozim bo‘lgan umumiy ijtimoiy rollarni (davlat fuqarolari, oila a’zosi, o‘quvchi, ishchi, xizmatchi yoki jamoa xo‘jaligi a’zosi, uy-joy, xonadon ijarachisi yoki egasi, fuqarolik-huquqiy bitimlari: oldi-sotdi, ijara bitimlari sub’ektlari va h.k.) ado etishga tayyorlashga xizmat qilishi kerak.

Yoshlar bevosita ularga tegishli bo‘lgan Umumiy o‘rta ta’lim maktabi nizomi; O‘quvchilar uchun qoidalar; Bolalar va o‘smirlarning jamoat joylaridagi xulq-atvor qoidalari; bolalar bilan ota-onalar munosabatlarini tartibga soladigan nikoh-oila huquqi normalari; sog‘liqni saqlash haqidagi qonunlar; Fuqarolik qonuni; jinoyat haqidagi qonun va boshqa huquqiy hujjatlarni bilishlari lozim. O‘smirlar katta bo‘lganlarida ularning huquqiy ahvoli o‘zgaradi. U paytda ularga, masalan, nikoh-oila haqidagi qonunlarning nikohdan o‘tish, er bilan xotinning huquqlari va majburiyatlarini tartibga soladigan normalari; fuqarolik haqidagi qonunlarning uy-joy maydonidan foydalanish tartibiga tegishli normalari taalluqli bo‘ladi va hokazo. Voyaga yetmaganlarni bunday ijtimoiy rollarni bajarishga o‘z vaqtida tayyorlab borish zarur.

Turli kasblar va lavozimlarga tegishli spesifik huquqiy qoidalar xususida gapiriladigan bo‘lsa, ular bilan yoshlarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida tanishtirish maqsadga muvofiq. O‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari, hunar-texnika bilim yurtlarining o‘quvchilari, har xil malaka oshirish kurslaridagi huquqiy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari ana shundan iborat bo‘ladi.

Huquqiy tarbiya tabaqalashtirilgan tarzda yondashuvni, nafaqat yosh va bo‘lg‘usi mutaxassislikni, shu bilan birga jinsni, yashash joyini, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, shu jumladan, qaysi millatga mansublik bilan bog‘liq hususiyatlarni ham hisobga olishni taqozo etadi. Turgan gapki, qiz bolalarga qo‘shimcha ravishda ayol-qizlarning holatini tartibga soladigan jinsiy normalarni o‘rgatish lozim. Har bir respublika qonunlarining o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjudki, ularni ham hisobga olish zarur bo‘ladi.

Yoshlarga amaliy tusdagi nazariy bilimlardan tashqari, davlat va huquq haqida muayyan hajmdagi nazariy ma’lumotlarni berish, tushunchalar mohiyatini, bunday tartibotlarning ijtimoiy ahamiyatini, mustaqil, demokratik davlat va huquqning ekspluatatsiyachilik tusidagi davlat va huquqdan prinsipial farq qilishini

tushuntirish, davlat tiplari va shakllari, huquq tarmoqlari to‘g‘risida tasavvur berish ham muhimdir. Keyinchalik yoshlar huquqning boshqa tarmoqlari bilan tanishish chog‘ida huquqning umumiy tizimidagi o‘z o‘rnini to‘g‘ri tasavvur qilish imkoniga eta bo‘ladilar.

Bunda faqat demokratik huquqni va huquqiy jihatdan tartibga solishni tavsiflaydigan o‘ziga xos prinsiplari: qonunning demokratik tuzum, mehnatkashlar huquqlarini himoya etishga bo‘ysundirilishi; qonuniylik; adolatlilik; teng huquqlilik; huquqlar bilan majburiyatlarning mustahkam aloqadorligi; ishonch-e’tiod bilan majburlovning ko‘shib olib borilishi; ayb uchun javobgarlik; har bir kishining qonuniylikni ta’minlashda faol ishtiroki kabi prinsiplarning mazmunini ochib berish g‘oyat katga ahamiyat kasb etadi.

Huquqlar bilan majburiyatlarning mustahkam aloqadorligi prinsipi muhim prinsiplardan biri bo‘lib, bir toifadagi kishilar huquqlari boshqa toifadagi kishilarning majburiyatlari bilan har doim o‘zaro aloqador bo‘lgan suveren, demokratik davlat qonunlarida ancha to‘liq mujassamlashgan. Bir kishining huquqiga qaysidir boshqa kishining majburiyati muvofiq kelmasa, unda bunday huquq noreal huquq bo‘ladi va “havoda muallaq holda osilib qoladi”. Masalan, agar fuqaroning dam olish huquqiga ma’muriyatning ta’til takdim etish majburiyati muvofiq bo‘lmasa, unda bunday huquq quruq bayonotdan iborat bo‘lib qolgan bo‘lardi. Odamlarning o‘z majburiyatlarini bilishiga va ayni bir vaqgda o‘z huquqlarini aniq tasavvur qilishlari, ularni himoya qila bilishlariga ham erishish zarur. Ana shunda aniqpanmay qolgan va jazo olmagan huquqbuzarlik faktlari ancha kamayadi. Shuning uchun yoshlarning diqqat-e’tiborini nafaqat majburiyatlarga qaratish, shu bilan birga ularni qonun bilan to‘liq hajmda: ham huquqlar, ham majburiyatlar tomonidan tanishtirish nihoyatda muhimdir. Bu fuqarolarning yuksak ijtimoiy-huquqiy faolligini shakllantirish, ularning jamiyatning boshqa a’zolari bilan mustahkam o‘zaro aloqadorlikda ekanliklarini anglab yetishining g‘oyat muhim yo‘lidir.

Yoshlarning kelgusida qonunlarni takomillashtirishda, davlat ishlarini boshqarishda ongli ravishda va faol ishtirok etishlari uchun ularni, shuningdek qonunlarni qabul qilish, qonun loyihalarining paydo bo‘lishi va muhokama qilinishi tartibi, davlat organlarining tuzilishi va vazifalari, fuqarolar shikoyat va takliflarining ko‘rib chiqilishi tartibi bilan tanishtirib borish kerak bo‘ladi.

Davlat va huquqning, ijtimoiy ahamiyati va mazmunini to‘la va to‘g‘ri ochib berish ularga nisbatan hurmat-e’tiborning shakllanish uchun negiz bo‘lib xizmat qiladi. Usmirlar qonunning quruq va formal qoidalar yig‘indisi emas, balki hayotiy vaziyatlarning rang-barangligi va murakkabligini hisobga oladigan adolatli va zarur normalar ekanligini anglab olishi lozim.

Qonuniy xulq-atvor ehtiyojlari va ko‘nikmalarini tarbiyalash jamoada qonunga qat’iy rioya etilishiga asoslanadigan munosabatlar shakllantirilishini taqozo etadi va voyaga yetmaganlarning huquqiy tartibni himoya qilishga doyr aktiv faoliyatiga jalb etilganida eng yuksak samara beradi. Huquqqa zid xatti-harakatlarning jazosiz sodir qilinishi hollari keng tarqalgan muassasa va jamoada bunday tarbiya muvaffaqiyat keltirmaydi. Har bir voyaga yetmagan bola, avvalo, axloq va huquq normalaridan har qanday orqaga chekinish qonunlarda nazarda

tutilgan jazoga sazovor bo‘lishiga oshonchi komil bo‘lishi kerak. Birinchi navbatda tarbiyachilarning o‘zlari qonunlarga so‘zsiz amal qilish namunasini ko‘rsatishlari lozim. Shu jihatdan olganda, jinoyatlarni (o‘quvchilarning pullari o‘g‘irlanishi, tan jarohatlari yetkazilishi va h.k.) yashirish hollari katta zarar yetkazadi.

Huquqiy-tarbiyaviy ishlarda tor manfaatparastlik tusidagi maslahatlar va boshqacha holatlar rolini bartaraf etish, ularga nisbatan keskin salbiy munosabatni shakllantirish, voyaga yetmaganlarni yuksak axloqiy va huquqiy prinsiplarning faol targ‘ibotchilari, ularni hayotga tatbiq etish uchun izchil kurashchilarga aylantirish muhimdir. O‘smirlar nafaqat huquqiy targ‘ibotni, shu bilan birga qarshi targ‘ibotni ham yuritish qobiliyatiga ega bo‘lishlari lozim.

Tarbiyachilar, shuningdek, o‘smirlarning yangi huquqiy hujjatlardan o‘z vaqtida xabardor qilinishiga, huquqiy ahamiyatga ega turli voqealarga operativ tarzda munosabat bildirishlariga, huquqni muhofaza qilish faoliyatining amaldagi ishlarning xususiyatini hisobga olgan holda o‘zgartirilishiga e’tiborni qaratishlari kerak.

Agar o‘smirlar ayrim mansabdor shaxslar faoliyatidagi qonun buzishlar haqida hikoya qiladigan bo‘lishsa, unda bunday holatni mavjud emas deb yoki buning o‘quvchilarga taalluqli joyi yo‘q, deb ish qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Aksincha, bunday faoliyatning suveren, huquqiy davlat pozitsiyalariga zid kelishi, aybdor shaxslar esa javobgarlikka tortilishini namoyish qilish katta ahamiyag kasb etadi. Voyaga yetmaganlar o‘zlarini qiziqtiradigan barcha savollarga avvalo o‘z tarbiyachilaridan javob olishlari lozim. Mabodo shunday qilinmasa, unda o‘smirlar boshqa shaxslarga murojaat etishadi va bunda ularning to‘g‘ri javob olishlariga kafolat bo‘lmaydi.

**4. Yoshlar huquqiy ongini shakllantirishda huhuqiy tarbiyaning roli.** Huquqiy tarbiya faqat yoshlarning o‘zlari, shuningdek ularning yaqin atrofidagi shaxslar, kichik guruhlar huquqiy ongining mavjud darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilganidagina samarali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga huquq masalalari yuzasidan keng jamoatchilik fikri holatini ham hisobga olmaslik mumkin emas.

Tadqiqotlar yoshlarning huquqiy ongida hisobga olinishi zarur bo‘lgan qator o‘ziga xos jihatlar mavjudligidan dalolat beradi.

Ko‘pgina yoshlar o‘zlarining xulq-atvorini qonun bilan solishtirish va huquqiy tushunchalar bilan fikrlashga o‘rganmagan. Ular asosan “yomon”, “yaxshi” degan baqolarga asoslanib ish ko‘rishga odatlanishganki, bu, albatta, yetarli emas. “Yomon” degani - bu shunchaki axloqqa zid bo‘lishi mumkin va ayni bir vaqtda tegishli oqibatlarga olib keladigan huquqqa zid harakat haqida berilgan baho bo‘lishi ham mumkin.

Ayrim yoshlar qonuning ijtimoiy rolini, uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi ahamiyatini real tasavvur eta olmaydilar, balki huquqni asosan formal taqiqlashlar tizimi deb o‘ylaydilar. Ularning fikricha, qonunlar faqat jinoyatlarga qarshi kurash uchun mavjud bo‘lib (biz so‘rovlar o‘tkazgan bolalarning 28 foizi ana shunday deb o‘ylagan), asosan taqiqlanadigan narsalar ro‘yxatini ko‘rsatish va jazo choralarini bayon qilishga xizmat qiladi. Ko‘pincha o‘smirlar “qonun uni ijro etish uchun mavjuddir”, deb ham javob qilishadi. Ular

qonunlarning qanday, nima uchun yaratilishi, masalalarni ular nima uchun aynan shunday hal etishi, nega boshqacha yechim bermasligi, qonunlarning jamiyat va har bir kishi turmushida qanday rol o‘ynashi, nima uchun ularni buzmaslik kerakligi xususida unchalik ko‘p bosh qotirmaydilar.

Huquqdan habardorlik haqida gapirilganida shuni aytish kerakki, o‘smirlar asosan jinoyat haqidagi qonunlardan xabardor bo‘lib, u ham noto‘liq tusdadir. Ko‘plari muhim jinoiy-huquqiy qoidalar mazmunini noto‘g‘ri tasavvur etadilar. Masalan, o‘smirlardan so‘ralganida, ularning huquqiy javobgarlik hajmlarini ancha kamaytarish, jinoiy jazoga sabab bo‘ladigan qilmishlar doirasini asossiz ravishda toraytirish, yashiruvchilik, ishtirokchilik uchun javobgarlikni, “samolyotni tutqinlar bilan olib qochganlik uchun qanday javobgarlik sodir bo‘ladi?”, “Men bir kishining narsasini o‘g‘irladim, buning uchun meni qancha muddatga kesishadi?”, “Men voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha inspeksiyada bir necha marta hisobga turganman, buning uchun nima bo‘ladi?” va shu kabi savollarga qanday javob berishni bilmasligi ma’lum bo‘ldi.

O‘smir uchun xulq-atvorga turtki bo‘lgan sababning roliga ortiqcha baho berish va^sodir qilingan harakatning ob’ektiv ijtimoiy xavfiga, yuz beradigan oqibatlar noxushligiga yetarli baho bermaslik xarakterlidir. Masalan, jinoyat kodeksining bir moddasida nazarda tutilgan ikkita qilmish misol qilib keltiriladi: bir holda boylik orttirish sababli sodir qilingan olibsotarlik (foyda olish va pullarni jamg‘arma bankidagi omonatga qo‘yish) haqida ran borsa, boshqa holatda olibsotarlik bilim orttirishga oid qiziqishlarini qondirish (turistik sayohat uchun yetmayotgan pullarni ishlab topish) maqsadida amalga oshirilgan. Savollarga javob berganlar olibsotarlikka doir ikkinchi holatni birinchi holatga nisbatan 1,5-2 baravar kamroq jinoyat deb baholaganlar. Bu o‘rinda ran javobgarlik chorasidagi farq haqida emas, balki umuman bunga o‘xshash harakatlarni jinoyat deb bo‘lmasligi xususida boradi. Bunday pozitsiya qonunga butunlay ziddir. Boshqa bir misolda bir yigitning boshqa bir yigitni haqorat qilgani va haqoratlangan yigitning o‘zini ranjitgan raqibini ko‘pchilik odamlar oldida shafqatsizlarcha kaltaklanganligi va buning natijasida dilozor yigitning uzoq vaqg kasalxonada yotganligi haqida ran boradi. Shunisi muglaqo tushunarliki, haqorat qilgan yigitga hech kimning rahmi kelmaydi, lekin keltirilgan xodda haqoratlangan yigitning harakatlari (shafqatsiz kaltaklash, salomatlikka qattiq putur yetkazilishi) birinchi harakat - haqoratlashga nisbatan og‘irroq bo‘lmaganligi, shuningdek, o‘z huquqlarini himoya qilish uchun shunga o‘xshagan usulning tanlanishi to‘g‘riligi haqida ran boradi. Voyaga yetmaganlarning aksariyat ko‘pchiligi o‘zini ranjitgan yigitni kaltaklagan yigitni oqlashdi. Ularning fikricha, bu yigit shu tarzda harakat qilish huquqiga ega bo‘lgan. Bunda yana shu narsa ko‘zga yaqqol tashlanadiki, o‘smirlarni u yoki boshqa harakatlarning ob’ektiv ijtimoiy xavfini to‘g‘ri baholash, ularni o‘z huquqlarini qonuniy tartibda qimoya qilishga o‘rgatish g‘oyat muhimdir.

Yoshlar olgan huquqiy bilimlarini amaliyotda qo‘llashni, muayyan harakatlarga to‘g‘ri baho berishni har doim ham eplay olavermaydilar. Masalan, o‘quvchilar tengdoshlarining maktabda paltolari cho‘ntaklarini titkilashlari va topilgan pullarni olib qo‘yishi, rogatkadan otish, oyog‘ini chalib yiqitish natijasida jiddiy tan jarohati yetkazilishi kabilarni jinoyat sifatida baholay olishmaydi. Shu

bilan birga voyaga yetmaganlarni o‘zlariga ma’lum bo‘lgan huquqiy normalarni muayyan hayotiy vaziyatlarda qo‘llash va ular duch keladigan xatgi-harakatlarni har holda huquqiy jihatdan to‘g‘ri baholashga o‘rgatish zarur.

O‘smirlarning muayyan bir qismida bilimlar, shaxsiy e’tiqodlar va xulq-atvordagi tafovutlar mavjudligi e’tiborni jalb etadi. Shu nuqgai nazardan olinganda, voyaga yetmaganlarning u yoki bu bahoni qonun nuqtai nazaridan beryaptimi, o‘zining shaxsiy fikrini bildiryaptimi yoki bor-yo‘g‘i tengdoshlari yoki boshqa shaxslar o‘rtasida keng tarqalgan baho to‘g‘risidagi gapni aytyaptimi ana shuni aniqlab olish nihoyatda muhim. Qonundan xabardorlik hali o‘smirning o‘zining masalani qonun tomonidan shu tariqa hal etish bilan rozi ekanligi, buning ustiga uning qonun talab qiladigan tarzda harakat qilishga tayyorligini anglatmaydi. Nafaqat huquqiy ongni shakllantirish, shu bilan birga bilimlar, e’tiqodlar va qonuniy xulq-atvorga tayyorgarlikning yagona hosilasi sifatidagi huquqiy dasturlarni ham hosil qilish zarurligi shu bilan bog‘liqdir.

Ayrim yoshlarning huquqbuzarliklari va noto‘g‘ri huquqiy qarorlari ular ega bo‘lgan qadriyatlar tizimidagi nuqsonning oqibatidir, bunday qadriyatlar tizimida huquq nisbatan yuqori o‘rin tutmagan bo‘ladi. O‘g‘rilik, bezorilik harakatlarining “o‘rtoqlardan qolmaslik uchun” yoki “qo‘rqoq bo‘lib ko‘rinmaslik uchun” sodir qilinishi hollari ma’lum. Bunday hollarda o‘smirlar uchun “jasurlik”, “o‘rtoqlarning hurmat qilishi” (noto‘g‘ri tushunchalar) kabi qadriyatlar qonunga nisbatan muhimroq. Shuning uchun qonun to‘g‘risida demokratik jamiyatning eng yuksak qadriyati sifatidagi tasav ni hosil qilish nihoyatda zarur.

O‘smirlarning huquqiy ongi ularning ota-onalari, tengqurlari huquqiy ongiga, huquq masalalari bo‘yicha keng tarqalgan jamoatchilik fikriga juda bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ko‘pincha faqat ularning qarindosh-urug‘lari va yaqinlarining qarashlari va e’tiqodlariga ham ayni bir vaqgda ta’sir ko‘rsatish hisobiga voyaga yetmaganlarning noto‘g‘ri huquqiy qarashlari va e’tiqodlarini o‘zgartirishga erishish mumkin.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, huquqbuzarliklarni sodir etadigan yoshlarning huquqiy ongi ularning boshqa tengdoshlari huquqiy ongidan farq qiladi. Huquqbuzarlarning qonunni yaxshi bilaman degan fikri ko‘pincha noto‘g‘ri fikr bo‘ladi:

birinchidan, birinchi jinoyatgacha ularning huquqiy xabardorligi tengdoshlarining yaxshi xulq-atvor qaqidagi xabardorlikdan unchalik farq qilmaydi;

ikkinchidan, bunday bilimlar tasodifiy va bir tizimga solinadi. Biz tekshiruvdan o‘tkazgan huquqbuzarlar jinoyat huquqi normalarini o‘zlari sinovdan o‘tkazgan darajadagina bilishlari ma’lum bo‘ldi. Yosh huquqbuzarlarning 45 foizi jinoiy jazolash, uning haqiqiy xarakteri haqida faqat jinoyatlarni sodir qilishganidan keyin bilib olishgan. Huquqbuzarlar uchun shunisi xarakterliki, ularning umumiy qadriyatlar tizimidan qonun o‘zlarini qonunga muvofiq tutadigan qarindoshlarinikiga nisbatan ancha past o‘rin tutadi, shuning uchun u ko‘proq shaxsiy manfaatlari yoki o‘rtoqlari manfaatlarining qurboni bo‘lib qoladi. Huquqbuzarlarning huquqiy ko‘rsatmalarini ijro etishga nisbatan munosabati ham

o‘ziga xosdir. Shu jihatdan olganda, ular huquqiy ongi nuqsonliligining ikki darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchisida - nuqsonlilik alohida tusga ega bo‘ladi, ya’ni o‘smir huquqiy talablarining to‘g‘riligi va adolatligiga, zarur bo‘lganida ularga rioya qilish kerakligiga umuman ishonadi. Lekin bunda u umumiy talablardan muayyan vaziyatda qo‘llanishni bilmaydi yoki ayrim talablar mazmunini o‘zicha boshqacha tasavvur qiladi yoki mazkur holat huquq uchun ahamiyatga ega emas deb hisoblaydi yoxud o‘zini jilovlab o‘rganmagan xohish-istaklari va manfaatlari uchun istisno tariqasida huquqni buzishga tomon yuz buradi.

Bunday huquqni buzishlar yana takrorlanib va rivojlana borib, huquqiy ong o‘zgarishining navbatdagi bosqichiga - umuman huquqqa nisbatan nigilistik munosabatga, huquq talablari va taqiqlashlari faqat formal tusga ega, aslida shaxsiy xohish-istaklar va manfaatlarga amal qilish kerak (ayrimlar buni - “Yashashni xohdaysanmi - mug‘ombirlikni ham qotira bil”, qabilida tushunishadi) degan e’tiqodga olib keladi. Ko‘pgina voyaga yetmagan residivistlar qonunni aylanib yoki oshib o‘tish kerak bo‘ladigan to‘siqqa uchratishi ham bejiz emas. Huquqiy ong buzilishining bunday darajasini shaxsning faol huquqqa qarshi yo‘nalish egallashi sifatida belgilash mumkin.

Yosh huquqbuzarlar huqo‘qiy ongining xususiyatlarini huquqiy- tarbiyaviy faoliyatda alohida hisobga olish va, jumladan, yuqorida ko‘rsatilgan hamma nuqsonlarni faqat umumiy tarbiyaviy tadbirlar jarayonida tuzatish mumkin bo‘lmasligini unutmaslik kerak.

Huhuqbuzarliklar sodir etadigan yoshlar, ulardan tashqari yana maxsus ta’sir ko‘rsatilishiga ham muxtojdirki, bunday ta’sir ko‘rsatilishi ularga o‘zlarining noto‘g‘ri qarashlari va yaqinlari qarashlarining axloqqa va huquqqa zidligini anglab yetishi, bunday qarashlarning nima uchun qabul qilinishi mumkin emasligini tushunib olishi, huquqiy normalarning adolatliligi va zarurligiga ishonch hosil qilishiga yordamlashishi lozim.

Odatda, yosh huquqbuzarlar oilalarida va ular asosan bo‘sh vaqtini birga o‘tkazadigan do‘stlari davrasida noto‘g‘ri qarashlar eng avjiga chiqqan bo‘ladi. Bunda o‘smirlar axloqqa zid muhitga duch kelganyda va uning qarashlarini qabul qilib olganida ular ko‘pincha axborotning rasmiy kanallaridan psixologik jihatdan “uzilib qolgandek” bo‘lishadi yoki bunday axborotga nisbatan o‘zlashtirib olgan noto‘g‘ri fikrlari nuqtai nazarida yondashadilar. Shuning uchun yoshlar bilan olib boriladigan ish shu bilan birga ularga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan manbalarni, tegishli salbiy pozitsiyalar mazmuni va dalillarini aniqlash, ishonchli qarshi dalillar va qonunni himoya qiluvchi dalillarni tanlash va, tabiiyki, o‘smirlar uchun noxush ijtimoiy vaziyatni o‘zgartirishdan ham iborat bo‘lishi kerak.

Huquqiy tarbiyani faqat darslar, suhbatlar, leksiyalar o‘tkazish yo‘li bilangina amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu ish tarbiyachilarning o‘z tarbiyalanuvchilari hayotiga faol aralashuvini ham taqozo etadi.

## 8-Mavzu: Huquqiy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari va huquqiy tarbiya texnologiyalarini joriy etish.

**Reja:**

1. Huquqiy tarbiya yo’nalishlari.
2. Huquqiy tarbiya jarayonida erkin mustaqil fikrlovchi, o‘zining hamda o'zgalarning sha'ni, or-nomusi, qadrqimmatini hurmat qiladigan, ularning istaklarini inobatga oluvchi ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalashga imkon beruvchi samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish.
3. Yoshlarni huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etishga tayyorlash.
4. Huquqiy tarbiyalashda fuqarolik burchiga itoatkorlikni shakllantirish.

Huquqiy tarbiyaning muhim vazifalaridan biri shaxsda huquq normalarini o’rganishga ehtiyoj o’yg’otish, yani o’zini mustaqil ravishda huquqiy tarbiyalashga odatlantirishdir. Huquqiy normalarga hurmat ruxida tarbiyalangan shaxs qonun-qoidalarga muntazam ravishda o’rganib boradi va boshqalarni ham shunday qilishga davat etadi.

Amaliyotda huquqiy tarbiyaning har xil turlari mavjud. Lekin bugungi kungacha aniq bir ilmiy tushunchaga asosangan, ko’p qirrali huquqiy tarbiya shakllarini ko’rsatib beruvchi adabiyot deyarli yuk. Bu tarbiya, yuqorida aytib o’tganimizdek, oilada, bog’chada, maktabda, bilim yurtlarida, institutlarda olib boriladi. Huquqiy tarbiya- tarbiyalanuvchilarning xulq-atvoriga taosir ko’rsatuvchi, ularni tartib doirasida tutish uchu nasos bo’la oladigan bilim berishdir. Lekin tarbiyachi faqat bilim beribgina qolmasdan, tarbiyalanuvchilarga har xil shaklda ta’sir ham o’tkazishi kerak.

Huquqiy tarbiyaning shakllari asosida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, professor- o’qituvchilarining olib borgan ishlarining tashqi ko’rinishidagi taosir yo’li, taosir etish usullari yotibdi.

Huquqiy tarbiya shakllari har bir shu ish bilan shug’ullanuvchi uslubida o’z ifodasini topadi.

Masalan, o’quv yurtlarida huquqiy tarbiya shakli, mehnat faoliyati bilan shug’ullanuvchilarnikidan farq qiladi. O’quvchilarga dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtda-suhbat, suhbatni huquqiy qoidalarini o’rgatish, o’yin darslari o’tkazish tariqasida olib boriladi.

Huquqiy tarbiya shakllari quyidagilarcha bo’lishi mumkin: a) huquqiy bilim; b)huquqiy tashviqot; v) jamoatchilik tomonidan olib boriladigan ishlar; g) huquqni himoya qiladigan davlat organlarining ishlari bilan tanishish (tergov, sud jarayonlarida qatnashish); d)xalq deputatlarini nomzodlikka tavsiya qilish majlislarida, mahalliy hokimiyatlar qoshidagi voyaga yetmaganlar komissiyalari ishlarida ishtirok etish. Huquqiy tarbiyani jamoa o’rtasida yoki individual shaklda amalga oshirish mumkin.

Yoshlarni huquqiy bilimga va huquqiy tarbiyaga jalb etishda huquqni himoya qiluvchi davlat organlari xodimlari bilan uchrashuv o’tkazilishi, savol-javob kechalari tashkil etilishi yoki huquqshunos uyushmalari to’zilishi ijobiy natija beradi. Individual yakka tarzda huquqiy bilim berishda, huquqiy tarbiyalashda shaxsga maxsus adabiyotlarda tavsiya etilishi, unda qiziqish

uyg'otish, tarbiyalanuvchining ruxiy holatini o'rganib, u qabul qila oladigan, tushuna biladigan tarzda suhbat olib borish maqsadga muvofiqdir.

Huquqshunoslar huquqiy tarbiya metodlarini odatda ikki turga bo'ladilar: ishontirish va majburlash. Huquqiy tarbiya metodi-bu bir necha muayyan yo'l va usullar yig'indisi bo'lib, ular asosida kishilar ongiga, dunyoqarashiga ta'sir qilinadi. Buning natijasida tarbiyalanuvchilarda qonunga hurmat hissi uyg'otiladi va qonunning buzilmasligi taominlanadi.

Eng asosiy metod bu – ishontirish metodi. Ishontirish orqali ijobiy natijaga erishilmasa, majburlash metodi qo'llanadi. Huquqiy tarbiyada bu ikki metodni birga qo'llash ham mumkin.

Huquqiy tarbiyaning ilmiy prinsiplaridan yana biri o'rganilayotgan qonun yoki qarorning kelib chiqish sabablarini, unga obyektiv zarurat borligini tushuntirib berishdir. Agar tarbiyalanuvchi qonun, qaror va qoidalarning vujudga kelishi, qabul qilinishi umumiy asoslarini tushunib olsa, ayniqsa, hozir o'rganilayotgan huquqiy normaning qabul qilinishi sababini bilsa, uni bajarishga ongli ravishda yondoshadi, o'zida ham huquqiy normaga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Huquqiy tarbiyaga ilmiy yondoshish quyidagi faoliyatlardan tashkil topadi:

- o'rgatilishi lozim bo'lgan qonun va qonuniy aktning nazariy va amaliy jihatlarini puxta o'zlashtirib olish;
- tarbiya obyektlarini o'rganish, ular bilan huquqiy norma o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash;
- mazkur mintaqadagi huquqiy normaga aloqador huquqiy holatni (huquq-tartibotni, qonunchilikka munosabat )o'rganish va tahlil qilish;
- huquqiy normani tushuntirish shakl va metodlarini tanlab olish;
- huquqiy tarbiya vositalarini tayyorlash;
- tarbiyalanuvchilarning fikrini o'rganish va savol – javobga tayyorlanish;
- huquqiy tarbiyani shahar, tuman, viloyat, respublika miqyosida yagona shakl va metodlar asosida olib borish ham ilmiy prinsipdir.

Huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash butun mamlakatda huquqiy tarbiyaga chuqur ilmiy yondoshishni taqozo qiladi. Hozir bu muhim ish davlat organlari va jamoat tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Tarbiyaga har tomonlama yondoshish. Tarbiyaga har tomonlama yondoshish deb tarbiya maqsadining shaxs ongida shakllanishiga ko'maklashuvchi omillarni aniqlash, tarbiya shakl va metodlariga ularga tayanish aytiladi.

Bu vazifalarning zarar darajada amalga oshirilishi tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorligiga bog'liqdir. Ikkala tomonning fikr almashishi, huquqiy tushunchalarga aniqlik kiritilishi, yakdillik asosida hayotiy holatining belgilab olinishi tinglovchilar huquqiy ongiga tegishli o'zgarish kiritadi va uni boyitadi.

Masalan, tarbiyachi mehnat qonuniga kiritilgan o'zgarishlar bilan tinglovchilarni tanishtirmoqchi. Maqsad ularning ongiga yagona qonun mazmunini aks ettirgan holda mehnat munosabatlarida qonundagi o'zgarishga muvofiq ish ko'ra olishni tarbiyalashdir. Buning uchun tarbiyachi masalaga keng yondoshib, qonun o'zgarishi sabablarini dalillar yordamida ko'rsatishi, yangi qonun

mohiyatini isbotlashi, uni ijro etish tartibini o'rgatish, ko'zda to'tilgan maqsadni misollar yordamida tushuntirish kerak.

Har tamonlama yetuk shaxsni tarbiyalab yetishtirish maqsadi umumtarbiyaning maqsadi barcha yo'nalishlarini bir-biriga uyg'unlashtirilgan holda olib borishni taqozo qiladi. Bu bir kishining emas, balki butun jamoaning burchidir. Huquqiy tarbiya ham bir kishining emas, chunki shaxsni har tomonlama shakllantirish uchun bir tarbiyachi barcha omillarni bilishga qodir emas. Bir pedagog huquqiy tarbiyaning bir yoki bir necha yo'nalishigina shaxs ongida shakllantira olishi mumkin. Pedagog muayyan masala bo'yicha huquqiy tarbiyaga keng yondoshishi uchun shu masalaga aloqador omillarni tanlab olishi, ularni yagona bir mavzuga yig'ishi, misollar yordamida uyg'unlashtirishi kerak. Masalan, o'quvchida O'zbekiston fuqarolariga sodiqlik burchini tarbiyalashda o'qituvchi-o'quvchi qanday qonunlarni o'rganishi kerakliginitanlab olishi, fuqarolarga taalluqli misollar topishi, fuqarolik burchi buzilganda davlat va jamiyat tomonidan quriladigan choralarni belgilashi, yuridik dalillar to'plashi, so'ngra keng tarbiya mavzularini ishlab chiqishi vash u mavzu bo'yicha ish olib borilishi kerak. Lekin shuni unutmaslik lozim, huquqiy ongning hatto biror yo'nalishini shakllantirish uchun ham yuridik omillarning o'zigina kifoya emas: masalan, intizomsiz shaxsni qayta tarbiyalash uchun uning huquqiy ongida burilish yasash, dunyoqarashiga, mehnat munosabatiga, madaniyat darajasiga taosir ko'rsatishi kerak. Agar uni qonunga ko'ra jazolash bilan kifoyalansangiz, axloqiy buzuq ekan, YAna eski odatini davom ettiraveradi.

Binobarin, huquqiy tarbiyaga aloqador omillar ikki guruhga bo'linadi: tarbiyachining axborotli hujjatlariga kiritiladigan omillar va tinglovchilar xususiyatiga bog'liq omillar. Tarbiya jarayonida ikala guruh omillar baravar etiborga olinishi kerak.

Tarbiyachining axborotli hujjatlariga kiritilgan omillari suhbat mavzusida qanday qonun, qonuniy ishlarni tushuntirmoq, asosiy maqsad nimaga qaratilganligini bilib olmoq. Masalan, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligining oldiniolish bo'yicha tarbiya: jinoiy, moddiy, intizomiy, huquqbuzarlikda voyaga yetmaganlar qanday harakatlari uchun javobgar bulishlariga taalluqli hujjatlarni to'plashdan iborat.

Tinglovchilar xususiyatiga bog'liq omillarda tarbiyachi tinglovchilarning qabul qilish darajasi, yoshiga, maxoratiga va boshqa xususiyatlariga etibor bergan holda tarbiya usulini tanlashdan iborat.

Shubhasiz, huquqiy, siyosiy va ma'naviy ongning o'zaro bog'liqligini esdan chiqarmaslik kerak, lekin shuni ham nazarda tutish lozimki, ularni bir-biri bilan qo'shib yuborish mumkin emas. Tarbiyaviy ishning o'ziga xos yo'nalishidagi huquqiy tarbiyaning mustaqilligi avvalo uning mazmuni bilan bog'liqdir. Huquqiy tarbiya ongning mustaqil shaklini - huquqiy ongni shakllantiradi, bu esa tarbiyaning o'ziga xos shakllari va usullarini izlab topish va qo'llanish zaruriyatini taqozo etadi.

Tarbiyachilar zarur hajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi va tarbiyalanuvchilarda huquqiy ongni shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish uslubiyotini egallashi lozim.

**Huquqiy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari.** Huquqiy tarbiya o'z tarixiga ega bo'lib, qonunlarning aniq ijro etilishiga ta'sir ko'rsatishga qodir, siyosiy tuzilishidan qat'i nazar hamma davlatlar undan manfaatdor.

Ma'lumki, qadimgi Yunoniston (Gretsiya) va Rimda bolalikdan boshlab fuqarolarga qonunlar o'rgatilgan. Rim davlatida 14 yoshgacha bo'lgan bolalar qonunlarning 12 jadvalini yod olganlar. Eramizdan oldingi III asr boshlarida mavjud bo'lgan va bizgacha yetib kelgan «Fuqaro Xersonesning qasamyodi»da, jumladan, shunday deyiladi: «Men fuqarolarning hech biriga nisbatan hech qanday adolatsiz ishni xayolimga keltirmayman... va bunaqa ishga yo'l qo'ymayman, uni yashirmayman ham, lekin uni sud e'tiboriga yetkazaman va sudda qonunlarga muvofiq ovoz beraman». Bu o'rinda gap nafaqat qonunlarga rioya etilishi haqida, shu bilan birga yoshlarning va boshqalarning qonunlarni buzishlarini fosh qilishga jalb etilishi to'g'risida ham borgan.

Huquqiy tarbiya muammolari Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSH kabi mamlakatlarda huquqiy tarbiya masalalari doimo diqqat markazida bo'lib, uning ko'p muammolari hal etilgan. Bunda har doim huquqiy tarbiyaning ayni bir vaqtda o'sib kelayotgan avlodga ham siyosiy, ham ma'naviy ta'sir ko'rsatilishi ekanligini tushunib yetish namoyon qilingan va hatto ta'kidlab o'tilgan. Masalan, Fransiyada 1879 yilda joriy kilingan maktablarda axloq va huquqning o'qitilishi «fuqaro», «mamlakat», «askar», «qonun», «jamiyat», «adolat» kabi va boshqa bir qator shunday so'zlarning ma'nosini tushuntirib berishdan boshlangan. Bolalar 9-11 yoshida davlat qurilishi, shuningdek, harbiy xizmat, soliqlar va shu kabilar haqida oddiy tasavvurlarga, keyinroq esa - davlat va huquq to'g'risida ancha batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishgan.

Siyosat - iqtisodiyotning umumlashtirilgan ifodasi, deyiladigan bo'lsa, huquq to'g'risida u siyosat, iqtisodiyot va shu davlatda bo'lgan axloqning umumiylashtirilgan ifodasi, deyish mumkin bo'ladi.

Huquqiy tarbiya hamisha davlatning siyosat, iqtisodiyot va axloqqa nisbatan o'z nuqtai nazarini aholiga aniq yetkazib berish borasidagi eng ishonchli yo'l hisoblanadi. Huquqiy normalar yozma shakdda ifodalanadi va shu tariqa odamlar u bilan davlat tomonidan ta'riflanganidek shaklda tanishysh imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'sib kelayotgan avlod huquqiy tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o'z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi. Ularning hammasi prinsipal jihatdan yangi, yanada murakkab muammolarni hal etish zaruriyatini taqozo qiladi.

Avvalo, huquqiy tarbiya yangi insonni kamol toptirishning samarali vositasi hisoblanadi. Qonunlar jamiyatimizning eng muhim axloqiy normalarini ifodalash bilan ayni bir vaqtda ushbu normalarning nafaqat e'lon qilinishi, shu bilan birga real ta'minlanishining dalili bo'lib ham xizmat qiladi. SHu jihatdan olganda huquq qudratli tarbiya vositasi hisoblanadi.

Huquqiy tarbiya yana shuning uchun ham muhimki, jamiyat qonunlari o'zining dalzarbligini saklab qoladigan ilg'or va insoniy qoidalarni o'z ichiga olgan bo'ladi. Turgan gapki, o'z mohiyatini yo'qotgan normalar barham topadi, lekin ko'pgina narsalar saqlanib ham qolai. Avvalo, mehnat intizomiga, uning samaradorligini, unga nisbatan ijodkorona munosabatni ta'minlashga, iqtisodiy

negizni mustahkamlashga, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarning uyg'un tarzda qo'shib olib borilishiga, odamlarning bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishiga taalluqli va shu kabi qoidalar yashab qoladi. Endi ular huquqiy norma, qonun sifatida bo'lmaydi. Odamlar tegishli qoidalarga amal qilishga o'rganishadi, bu ular uchun odat tusiga kiradi. Ana o'shanda bunday qoidalarni qonunlarda mustahkamlab qo'iish va ularni, mabodo bunday qoidalarga rioya qilinmaganida buning uchun tegishli huquqiy javobgarlikka jalb qilinadi, degan ko'rsatma orqali isbotlab qo'yishga bo'lgan zaruriyat o'z-o'zidan barham topadi. Bunday qoidalar endi ma'naviy tartibga soluvchilar tarzida amal qilaveradi.

Bunday holatning iloji boricha tezroq paydo bo'lishi uchun yoshlarning diqqat-e'tiborini har doim tegishli normalarga qaratib turish, ularning mohiyatini ko'rsatib berish zarur. Bunday normalarni ijro etish har bir kishining ichki ehtiyojiga aylanguniga qadar huquqiy ko'rsatmalarga rioya qilishni o'rgatish jarayonida shu bilan birga ularning davlat-huquqiy tabiatini, davlat tomonidan majburlov choralari qo'llanishi mumkinligini ham ta'kidlab turish maqsadga muvofiqdir. Aniq va majburiy huquqiy normalar bilan tanishtirish bizning huquqimizda yuksak siyosiy va axloqiy talablarga asoslangan xulq-atvor odatlarini mustahkamlash uchun zarur. Shuning uchun yosh fuqarolarning huquqiy tarbiyasiga katta e'tibor beriladi. Yoshlarda davlat-huquqiy masalalarga ijodiy munosabatni shakllantirish muhim, chunki ularning kelgusida davlatchiligimizning rivojlantirilishi va takomillashtirilishi bilan bog'liq muammolarni hal etishiga to'g'ri keladi. Faqat ana shunday muammolarni hal qilish ishida huquqiy tartibga solishning asosiy prinsiplari bilan tanish, qonunchilik to'g'risida tasavvurga ega, Konstitutsiyani biladigan, o'z davlati va huquqi, qonunni hurmat qilish ruhida tarbiyalangan kishilar ishtirok etsagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.SHuni unutmaslik kerakki, tarbiyalanuvchilarning voyaga yetmaganlik yoshi - vaqtinchalik hol, ertaga ular katta yoshdagi kishilarga aylanadilar, jamiyatimiz va davlatimizning ravnaq topishi ularga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun yoshlarning huquqiy tarbiyasi «uzoqni ko'zlagan» bo'lishi, ularning nafaqat bugungi kundagi huquqiy holatini, shu bilan birga katta yoshdagilarning ertangi kundagi huquqiy holatini ham hisobga olgan holda qurilishi lozimki, bunda mustaqil suveren davlatning barpo etilishini davom ettiruvchi kattalar nazarda tutilmog'i kerak. SHu sababli yoshlarni shunchaki «qonunning formal talqini» bilan tanishtirib qolmasdan, ularga birmuncha alohida tusdagi masalalarning hal etilishiga asos bo'ladigan asosiy huquqiy tamoyillar to'g'risida ham tasavvur berilishi kerakligiga jiddiy e'tibor berilishi bejiz emas.

Rivojlanib borayotgan demokratik jamiyat sharoitida, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, yosh insonlarning yuksak ijtimoiy-huquqiy faolligini shakllantirish, ularning turli huquqbuzarliklarga qarshi, qonunchilik va huquqiy tartibotni mustahkamlash uchun kurashda mustaqil ishtirok qilishiga erishish g'oyat muhimdir.

Yoshlarni huquqbuzarliklarga qarshi qonunlarda belgilangan tartibda kurashishga o'rgatish zarur. Bu ishda hokimliklar, kasaba uyushmalari, O'zbekiston yoshlari, jamoat tashkilotlari, O'zbekiston xalq-demokratik partiyasi faol ishtirok etmoqdalar.

Yangi insonni kamol toptirish va huquqiy tartibni ta'minlash yoshlar huquqiy tarbiyasining umumiy vazifalari hisoblanadi. Biroq huquqiy-tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish manfaatlari bunday faoliyat yo'nalishlari va mazmuni haqida yanada batafsil tasavvur hosil qiladigan birmuncha alohida vazifalarning ham ajratib ko'rsatilishini taqozo etadi. Ular quyidagilardir:

birinchidan, davlat va huquq masalalariga doir bilimlarning zarur tizimini shakllantirish, huquqning joriy va dolzarb masalalari yuzasidan xabardor qilish.

ikkinchidan, davlat va huquq, qonuniylik prinsiplariga nisbatan hurmatni shakllantirish.

uchinchidan, qonunga muvofiq xulq-atvor ko'nikmalarini singdirish.

to'rtinchidan, faol fuqarolik pozitsiyasini, har xil Huquqbuzarliklarga nisbatan toqatsizlik munosabatini tarbiyalash.

beshinchidan, qonunda belgilangan tartibda o'zining, davlat, jamiyat va boshqa shaxslarning manfaatlari va huquqlarini faol himoya qilishga ehtiyojni va bunday qobiliyatni shakllantirish.

oltinchidan, davlat va huquqqa nisbatan noto'g'ri qarashlarga qarnsh tura bilish, ularni faol va ishonarli tarzda fosh qilish qobiliyatini singdirish.

Bilimlar xususida gapirganda, bu o'rinda, avvalo, yoshlarga bilimlarni qanday hajmda yetkazish kerak, degan savol ko'ndalang bo'ladi. Nazarimizda, umumiy ta'lim maktabi doirasidagi huquqiy tarbiya birinchi navbatda voyaga yetmaganlarni ular hozirda ijro etayotgan va kelgusida bajarishi lozim bo'lgan umumiy ijtimoiy rollarni (davlat fuqarolari, oila a'zosi, o'quvchi, ishchi, xizmatchi yoki jamoa xo'jaligi a'zosi, uy-joy, xonadon ijarachisi yeki egasi, fuqarolik-huquqiy bitimlari: oldi-sotdi, ijara bitimlari sub'ektlari va h.k.) ado etishga tayyorlashga xizmat qilishi kerak.

Yoshlar bevosita ularga tegishli bo'lgan Umumiy o'rta ta'lim maktabi nizomi; O'quvchilar uchun qoidalar; Bolalar va o'smirlarning jamoat joylaridagi xulq-atvor qoidalari; bolalar bilan ota-onalar munosabatlarini tartibga soladigan nikoh-oila huquqi normalari; sog'liqni saqlash haqidagi qonunlar; Fuqarolik qonuni; jinoyat haqidagi qonun va boshqa huquqiy hujjatlarni bilishlari lozim. Usmirlar katta bo'lganlarida ularning huquqiy ahvoli o'zgaradi. U paytda ularga, masalan, nikoh-oila haqidagi qonunlarning nikohdan o'tish, er bilan xotinning huquqlari va majburiyatlarini tartibga soladigan normalari; fuqarolik haqidagi qonunlarning uy-joy maydonidan foydalanish tartibiga tegishli normalari taalluqli bo'ladi va hokazo. Voyaga yetmaganlarni bunday ijtimoiy rollarni bajarishga o'z vaqgida tayyorlab borish zarur.

Turli kasblar va lavozimlarga tegishli spetsifik huquqiy qoidalar xususida gapiriladigan bo'lsa, ular bilan yoshlarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida tanishtirish maqsadga muvofiq. Urta maxsus va oliy o'quv yurtlari, hunar-texnika bilim yurtlarining o'quvchilari, har xil malaka oshirish kurslaridagi huquqiy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari ana shundan iborat bo'ladi.

Huquqiy tarbiya tabaqalashtirilgan tarzda yondashuvni, nafaqat yosh va bo'lg'usi mutaxassislikni, shu bilan birga jinsni, yashash joyini, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, shu jumladan, qaysi millatga mansublik bilan bog'liq hususiyatlarni ham hisobga olishni taqozo etadi. Turgan gapki, qiz bolalarga

qo'shimcha ravishda ayol-qizlarning holatini tartibga soladigan jinsiy normalarni o'rgatish lozim. Har bir respublika qonunlarining o'ziga xos xususiyatlari ham mavjudki, ularni ham hisobga olish zarur bo'ladi.

Yoshlarga amaliy tusdagi nazariy bilimlardan tashqari, davlat va xuquk haqidagi muayyan hajmdagi nazariy ma'lumotlarni berish, tushunchalar mohiyatini, bunday tartibotlarning ijtimoiy ahamiyatini, mustaqil, demokratik davlat va huquqning ekspluatatsiyachilik tusidagi davlat va huquqdan prinsipial farq qilishini tushuntirish, davlat tiplari va shakllari, huquq tarmoqlari to'g'risida tasavvur berish ham muhimdir. Keyinchalik yoshlar huquqning boshqa tarmoqlari bilan tanishish chog'ida huquqning umumiy tizimidagi o'z o'rnini to'g'ri tasavvur qilish imkoniga ega bo'ladilar.

Bunda faqat demokratik huquqni va huquqiy jihatdan tartibga solishni tavsiflaydigan o'ziga xos prinsiplari: qonunning demokratik tuzum, mehnatkashlar huquqlarini himoya etishga bo'ysundirilishi; qonuniylik; adolatlilik; teng huquqlilik; huquqlar bilan majburiyatlarning mustahkam aloqadorligi; ishonch-e'tiod bilan majburlovning qo'shib olib borilishi; ayb uchun javobgarlik; har bir kishining qonuniylikni ta'minlashda faol ishtiroki kabi prinsiplarning mazmunini ochib berish g'oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Huquqlar bilan majburiyatlarning mustahkam aloqadorligi prinsipi muhim prinsiplardan biri bo'lib, bir toifadagi kishilar huquqlari boshqa toifadagi kishilarning majburiyatlari bilan har doim o'zaro aloqador bo'lgan suveren, demokratik davlat qonunlarida ancha to'liq mujassamlashgan. Bir kishining huquqiga qaysidir boshqa kishining majburiyati muvofiq kelmasa, unda bunday huquq noreal huquq bo'ladi va «havoda muallaq holda osilib qoladi». Masalan, agar fuqaroning dam olish huquqiga ma'muriyatning ta'til taqdim etish majburiyati muvofiq bo'lmasa, unda bunday huquq quruq bayonotdan iborat bo'lib qolgan bo'lardi. Odamlarning o'z majburiyatlarini bilishiga va ayni bir vaqtda o'z huquqlarini aniq tasavvur qilishlari, ularni himoya qila bilishlariga ham erishish zarur. Ana shunda aniqlanmay qolgan va jazo olmagan huquqbuzarlik faktlari ancha kamayadi. Shuning uchun yoshlarning diqqat-e'tiborini nafaqat majburiyatlarga qaratish, shu bilan birga ularni qonun bilan to'liq hajmda: ham huquqlar, ham majburiyatlar tomonidan tanishtirish nihoyatda muhimdir. Bu fuqarolarning yuksak ijtimoiy- huquqiy faolligini shakllantirish, ularning jamiyatning boshqa a'zolari bilan mustahkam o'zaro aloqadorlikda ekanliklarini anglab yetishining g'oyat muhim yo'lidir.

Yoshlarning kelgusida qonunlarni takomillashtirishda, davlat ishlarini boshqarishda ongli ravishda va faol ishtirok etishlari uchun ularni, shuningdek qonunlarni qabul qilish, qonun loyihalarining paydo bo'lishi va muhokama qilinishi tartibi, davlat organlarining tuzilishi va vazifalari, fuqarolar shikoyat va takliflarining ko'rib chiqilishi tartibi bilan tanishtirib borish kerak bo'ladi.

Davlat va huquqning, ijtimoiy ahamiyati va mazmunini to'la va to'g'ri ochib berish ularga nisbatan hurmat-e'tiborning shakllanish uchun negiz bo'lib xizmat qiladi. O'smirlar qonunning quruq va formal qoidalar yig'indisi emas, balki hayotiy vaziyatlarning rang-barangligi va murakkabligini hisobga oladigan adolatli va zarur normalar ekanligini anglab olishi lozim.

Qonuniy xulq-atvor ehtiyojlari va ko'nikmalarini tarbiyalash jamoada qonunga qatiy rioya etilishiga asoslanadigan munosabatlar shakllantirilishini taqozo etadi va voyaga yetmaganlarning huquqiy tartibni himoya qilishga doir aktiv faoliyatiga jalb etilganida eng yuksak samara beradi. Huquqqa zid xatti-harakatlarning jazosiz sodir qilinishi hollari keng tarqalgan muassasa va jamoada bunday tarbiya muvaffaqiyat keltirmaydi. Har bir voyaga yetmagan bola, avvalo, axloq va huquq normalaridan har qanday orqaga chekinish qonunlarda nazarda tutilgan jazoga sazovor bo'lishiga oshonchi komil bo'lishi kerak. Birinchi navbatda tarbiyachilarning o'zlari qonunlarga so'zsiz amal qilish namunasini ko'rsatishlari lozim. SHu jihatdan olganda, jinoyatlarni (o'quvchilarning pullari o'g'irlanishi, tan jarohatlari yetkazilishi va h.k.) yashirish hollari katta zarar yetkazadi.

Huquqiy-tarbiyaviy ishlarda tor manfaatparastlik tusidagi maslahatlar va boshqacha holatlar rolini bartaraf etish, ularga nisbatan keskin salbiy munosabatni shakllantirish, voyaga yetmaganlarni yuksak axloqiy va huquqiy prinsiplarning faol targ'ibotchilari, ularni hayotga tatbiq etish uchun izchil kurashchilarga aylantirish muhimdir. O'smirlar nafaqat huquqiy targ'ibotni, shu bilan birga qarshi targ'ibotni ham yuritish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim.

Tarbiyachilar, shuningdek, o'smirlarning yangi huquqiy hujjatlardan o'z vaqtida xabardor qilinishiga, huquqiy ahamiyatga ega turli voqealarga operativ tarzda munosabat biddirishlariga, huquqni muhofaza qilish faoliyatining amaddagi ishlarning xususiyatini hisobga olgan hodda o'zgartirilishiga e'tiborni qaratishlari kerak.

Agar o'smirlar ayrim mansabdor shaxslar faoliyatidagi qonun buzishlar haqida hikoya qiladigan bo'lishsa, unda bunday holatni mavjud emas deb yoki buning o'quvchilarga taalluqli joyi yo'q, deb ish kilish to'g'ri bo'lmaydi. Aksincha, bunday faoliyatning suveren, huquqiy davlat pozitsiyalariga zid kelishi, aybdor shaxslar esa javobgarlikka tortilishini namoyish qilish katta ahamiyat kasb etadi. Voyaga yetmaganlar o'zlarini qiziqtiradigan barcha savollarga avvalo o'z tarbiyachilaridan javob olishlari lozim. Mabodo shunday qilinmasa, unda o'smirlar boshqa shaxslarga murojaat etishadi va bunda ularning to'g'ri javob olishlariga kafolat bo'lmaydi.

## 9-Mavzu: Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda huquqiy tarbiyaning o'rni.

### Reja:

1. Huquqiy ongni shakllantirish va uni amaliyotga tatbiq qilish.
2. Huquqiy tarbiya orqali yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari.

**1. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushuichalarining mazmun-mohiyati.** Huquqiy ong tushunchasi, tuzilishi, vazifalari va turlari: Huquqiy ong - bu odamlarning qonunga va jamiyat hayotidagi huquqiy hodisalarga munosabatini ifoda etadigan g'oyalar, tushunchalar va hissiyotlar to'plamidir. Huquqiy ong - bu huquqning manbai (moddiy ma'noda, ya'ni huquqiy normalarni yaratish ma'nosida), jamiyat rivojlanishining ob'ektiv ehtiyojlarini aks ettiradi, qonunni amalga oshirishning majburiy vositalaridan biri, xatti-harakatlarning qonun

normalariga muvofiqligini baholash vositasi. Huquqiy manba sifatida huquqiy ong huquqiy aktlarda o'z ifodasini topadi (moddiylashadi), qonun ijod qilish jarayoni va natijalariga ta'sir qiladi. Huquqiy normalar, o'z navbatida, fuqarolarning huquqiy ongini rivojlantirishga, huquqiy tamoyillar va me'yorlar, huquqiy munosabatlar va javobgarlik to'g'risida to'g'ri g'oyalarni shakllantirishga ta'sir qiladi. L.I. Spiridonovning ta'kidlashicha, "ommaviy huquqiy ong - bu huquqiy haqiqatning kollektiv ongida aks etishi, nima bo'lishi kerakligi prizmasi orqali idrok etilishi, madaniy me'yorlar, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va boshqa ijtimoiy ong shakllari vositasida aks etishi. Bu kontseptsiyalarda, g'oyalarda, qarashlarda, hissiyotlarda va boshqalarda ifodalangan qonun, qonun, huquqbuzarlik, hukm, huquqbuzarga psixologik munosabatni ifodalaydi".

Huquqiy ong - bu murakkab tarkibiy tuzilish bo'lib, unda kamida ikkita tarkibiy qism ajratiladi: huquqiy mafkura (ratsional) va huquqiy psixologiya (hissiy). Bundan tashqari, ichida huquqiy ongning tuzilishi boshqa elementlarni ta'kidlash odatiy holdir: huquqiy ontologiya (qonun nima ekanligini bilish), aksiologiya (qonunni baholash), praxeologiya (xulq-atvorni tanlash bilan bog'liq irodaviy element).

Huquqiy ong nafaqat mavjud huquqiy munosabatlarning sifatini tavsiflaydi, balki uning ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan o'zaro munosabatda bo'lib, rivojlanish tendentsiyalarini ham ko'rsatadi. U uzluksizligi va yangiligi bilan ajralib turadi, huquqiy tartibga solishning mohiyati va sifati to'g'risida, buzilgan huquqlarni himoya qilish usullari to'g'risida yangi g'oyalarni yaratadi. Huquqiy ong munosabatlar ta'sirida shakllanadi, ularga teskari ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy mafkura qonuniy xatti-harakatlar uchun qiymat motivlarini yaratadi, u huquqiy psixologiyaga va shunga muvofiq huquqiy amaliyotga ta'sir qiladi. Huquqiy ongning mazmuni nafaqat jamiyatda beriladigan, balki huquqiy ta'lim jarayonida o'stirilishi kerak bo'lgan qadriyatlar tizimi bilan bog'liq.

Huquqiy ong huquqiy madaniyatning elementi sifatida huquq va yuridik xulq-atvorga ta'sir qiluvchi mexanizmdir. Nazariy kontseptsiyaga ko'ra, asosiy huquqiy ongning funktsiyalari - kognitiv, baholovchi va tartibga soluvchi... Huquqiy ongning bilish funktsiyasi aqliy faoliyat (huquqiy tayyorgarlik) natijasi bo'lgan ma'lum miqdordagi huquqiy bilimlarni nazarda tutadi. Baholash funktsiyasi yuridik tajriba asosida shaxsning huquqiy hayot hodisalariga ma'lum bir hissiy munosabatini keltirib chiqaradi. Ushbu munosabat shaxs yoki jamiyat nuqtai nazaridan olingan bilimlarning ahamiyatini aniqlashda ifodalanadi. Huquqiy ongning mazmuni baholash munosabatlarining quyidagi asosiy turlarini o'z ichiga oladi: qonunchilikka va qonunchilikka, boshqalarning huquqiy xatti-harakatlariga va faoliyat ob'ektlariga, huquqni muhofaza qilish idoralariga, o'z yuridik xulq-atvoriga (o'zini o'zi baholash).

Huquqiy ongni tartibga solish funktsiyasi huquqiy munosabat va qiymat va huquqiy yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi.

Sub'ektlarga ko'ra huquqiy ong individual, guruhli va jamoatchilikka bo'linadi: individual adolat tuyg'usi, ma'lum bir kishining qonun va jamoat hayotidagi huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi g'oya va tuyg'ular majmuasi sifatida namoyon bo'ladi; guruhiy huquqiy ong - bu huquq va huquqiy

hodisalarni (ijtimoiy guruhlar, sinflar, qatlamlar, professional va boshqa birlashmalar) jamoaviy xabardorligi bilan bog'liq g'oyalar va hissiyotlar majmuini anglatadi; jamoat adolat tuyg'usi makrokollektivlar (mamlakat, millat aholisi va boshqalar) munosabatini ifodalovchi g'oya va tuyg'ular majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

Huquqiy madaniyat darajasiga yoki huquqiy voqelikning aks etish chuqurligi nuqtai nazaridan, huquqiy ongning odatda uchta darajasi odatiy (empirik), ilmiy (nazariy) va kasbiy darajalarga bo'linadi. Oddiy adolat tuyg'usi eng chuqur: unda psixologik (hissiy) elementlar ustunlik qiladi. Ushbu darajadagi huquqiy bilimlar shaxsiy tajriba va kundalik munosabat bilan cheklangan, tarqoq, tizimsiz va ko'pincha yuzaki. Odatda, qonunga bo'lgan munosabat qarama-qarshi bo'lib, o'zgaruvchan kayfiyat va kundalik hissiyotlarga bog'liq. Ushbu daraja shaxsiy hayot tajribasi ta'sirida shakllanadi.

Huquqiy nazariya - bu huquqiy ong mavjudligining kontseptual shakli, huquqiy aks ettirish ob'ektini aniqlashning eng chuqur usuli. Mafkuraviy darajadagi bunday ifoda darajasi nazariy huquqiy ongga mos keladi. Bir tomondan, huquqiy ongning rivojlanishi ma'lum darajada amaldagi qonun bilan shartlangan; boshqa tomondan, qonunning o'zi ham qonun ijodkorligi darajasida (qonun hujjatlari qabul qilinayotganda qonun chiqaruvchi aholining huquqiy ongi darajasini hisobga olishi kerak) va qonunni amalga oshirish darajasida ham huquqiy ongga bog'liq (huquqiy ong qonun normalariga ixtiyoriy ravishda rioya qilinishini ta'minlaydi va huquqni muhofaza qilishga yordam beradi, qonunlarni maqbul talqin qilish va bo'shliqlarni bartaraf etishga yordam beradi o'ng).

Shunday qilib, huquqiy ong huquqiy tartibga solishning butun mexanizmini qamrab oladi, huquqiy normalar nashr etilishidan oldin keladi va ularning amal qilish muddati davomida normalarni amalga oshiradi. Ijtimoiy ongning turli shakllari mavjud bo'lib, ular orqali odamlar ijtimoiy munosabatlarga kirishadilar, atrofdagi olamni idrok etadilar (aks ettiradilar) va unga nisbatan ma'lum bir munosabatni shakllantiradilar. Bu siyosiy, diniy, estetik, milliy, axloqiy ong.

Huquqiy ong jamiyatning, ijtimoiy guruhning, shaxsning amaldagi yoki istalgan qonunga, shuningdek boshqa davlat-huquqiy hodisalarga munosabatini ifoda etadigan o'zaro bog'liq g'oyalar, nazariyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar yo'nalishlari, huquqiy munosabat, tuyg'ular to'plamidir.

Huquqiy ong jamiyatning huquqiy hayotini rivojlantirish va takomillashtirishda ulkan rol o'ynaydi, chunki huquqiy normalarning sifati, ularning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga muvofiqligi, shuningdek ularning ko'rsatmalarining aniq va to'liq bajarilishi fuqarolarning huquqiy ongi darajasiga bog'liq.

Huquqiy ongning belgilari:

1) huquqiy ong - bu siyosiy ong, siyosiy, axloqiy, diniy, milliy va boshqa shakllar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan mustaqil ong shaklidir;

2) huquqiy ong faqat huquqiy voqelik hodisalarini aks ettiradi va huquqiy normalarni yaratish, ularning talablarini jamoat hayotida amalga oshirish jarayonini qamrab oladi;

3) huquqiy ong huquqning o’tmishi, buguni va kelajagi haqidagi g’oyalarni o’z ichiga oladi;

4) huquqiy hodisalar to’g’risida xabardorlik maxsus huquqiy tushunchalar va toifalar (huquqiy munosabatlar, yuridik javobgarlik, qonuniylik va boshqalar) orqali amalga oshiriladi;

5) huquqiy ong huquqning manbai;

6) huquqiy ong huquqiy faoliyatning manbai va huquqiy xatti-harakatlarning ichki regulyatori yoki uni amalga oshirish mexanizmi bo’lib xizmat qiladi.

**Huquqiy ongning tuzilishi.** Huquqiy ong - bu ikki asosiy elementdan tashkil topgan murakkab hodisa: huquqiy psixologiya va huquqiy mafkura. Huquqiy psixologiya - bu shaxsga, o’ziga xos ijtimoiy guruhga yoki umuman jamiyatga xos bo’lgan va mavjud huquqiy normalar va ularni amalga oshirish amaliyoti asosida vujudga keladigan his-tuyg’ular, tajribalar, kayfiyat, istaklar, odatlar, stereotiplar majmui.

Huquqiy mafkura - Bu nazariy shaklda ijtimoiy hayotning qonuniy hodisalarini aks ettiradigan qarashlar va g’oyalar tizimi. Huquqiy mafkura ijtimoiy murosaga erishish orqali turli xil jamoat manfaatlarini nazariy xabardorligini aniqlash, muvofiqlashtirish va yarashtirishni aniqlash jarayoni sifatida shakllanadi. U mavjud va paydo bo’layotgan huquqiy munosabatlarni, qonuniylikni va huquqiy tartibni asoslaydi va baholaydi. Huquqshunoslar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar huquq mafkurasini ishlab chiqishda jamiyat hayotining o’ziga xos tarixiy sharoitlarini, jamoat ongining darajasi, ijtimoiy psixologiya va jamoat manfaatlarini hisobga olgan holda qatnashadilar. Huquqiy ongning nazariy darajasi mafkura ko’rinishida namoyon bo’ladi.

Huquqiy mafkura bu huquqiy haqiqatni aks ettiruvchi va baholovchi huquqiy g’oyalar, nazariyalar, tamoyillar, e’tiqodlar tizimidir. Huquqiy mafkurani ishlab chiqishda huquqshunoslar, iqtisodchilar, siyosatshunoslar, bilimlarning boshqa sohalari vakillari ishtirok etadilar, ular jamiyatning o’ziga xos tarixiy sharoitlarini, siyosiy kuchlarning birlashishini, jamoat ongining darajasini, turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va irodasini va boshqa omillarni hisobga olishga majburdirlar.

Huquqiy mafkura ma’lum sinflar, ijtimoiy qatlamlarning manfaatlari bilan bog’liq bo’lib, ularning eng mukammal qonun (tabiiy-huquqiy, iste’molchi, marksistik davlat va huquq kontseptsiyasi, huquqiy davlat to’g’risidagi ta’limot va boshqa zamonaviy mafkuralar) haqidagi g’oyalarini aks ettiradi. Huquqiy mafkuraning asosiy tarkibiy qismi huquqni bilishdir.

Huquqiy psixologiya - turli xil ijtimoiy guruhlar, kasbiy guruhlar, ayrim shaxslarning huquqqa, jamiyatda mavjud bo’lgan huquqiy hodisalar tizimiga munosabatini ifodalovchi tuyg’ular, odatlar, kayfiyat, urf-odatlar majmui. Huquqiy psixologiya - bu millat, aholining turli guruhlari va qatlamlarini tashkil etuvchi jamiyat a’zolarining hayotiy munosabatlarining eng to’g’ridan-to’g’ri aksidir. Yuridik psixologiya orqali huquqiy madaniyatga xos urf-odatlar va urf-odatlar, shaxsning o’zini o’zi qadrlashi amalga oshiriladi, ya’ni. ularning xulq-atvorini qonun nuqtai nazaridan tanqidiy baholash qobiliyati. Uning his-tuyg’ulari va hissiyotlarini boshqarish qobiliyati shaxsning tayyorgarlik darajasiga bog’liq

bo'lib, bu huquqiy ongning tarkibiy elementlari sifatida huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. "Jamiyat ongi individual fuqarolarning ruhiyatiga kirib borguncha, u ijtimoiy guruhlarning kollektiv ongiga aylanadi".

Huquqiy psixologiya - bu huquqni anglashning eng keng tarqalgan shakli, chunki u odamlarning muomalasi va o'zaro ta'siri jarayonida kundalik hayot asosida rivojlanadi va insonning turli xil davlat va huquqiy hodisalarga individual psixologik reaktsiyalari shaklida namoyon bo'ladi. Huquqiy psixologiya huquq tajribasini va uning ko'rsatmalariga rioya qilishni yoki ulardan chetga chiqishni nazarda tutadi.

Huquqiy ongning mazmunini tashkil etuvchi huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ularning vositalari bilan huquqiy ong vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Asosiy funktsiyalar huquqiy ong kognitiv, baholovchi, tartibga soluvchi va bashorat qiluvchi bo'lib, ular ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadigan yo'nalishlardir.

**2. Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning huquqiy tarbiyasini rivojlantirish, qonunga itoatkorlik ruhini shakllantirish.** Huquqiy madaniyat: tushuncha, turlari va tuzilishi Huquqiy madaniyat umuminsoniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning tarixan shakllangan tizimi sifatida jamiyat madaniyatining muhim qismidir, shu asosda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish amalga oshiriladi. Zamonaviy mahalliy huquqiy adabiyotlarda huquqiy madaniyat ta'rifiga yagona yondashuv mavjud emas.

Keng ma'noda huquqiy madaniyat bu insoniyat tomonidan huquqiy sohada yaratilgan barcha narsalardir: a) qonun, uning normalari; b) huquq manbalari; v) huquqiy ong; d) yuridik fan; e) yuridik amaliyot.

Tor ma'no huquqiy madaniyat - bu huquqiy normalarni bilish, huquqiy qadriyatlarga hurmat, bular orasida doimiy bo'lib konstitutsiya, sud hokimiyati va boshqalar bor.

Huquqiy madaniyat - bu murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa, yilda tuzilishi ulardan uchta o'zaro ta'sir qiluvchi elementlar bloki mavjud: 1) kognitiv (epistemologik); 2) qiymatga yo'naltirilgan; 3) faoliyat (xulq-atvor).

Huquqiy madaniyatning xulq-atvor jihatining namoyishi huquqiy faoliyat bo'lib, u nizolarni hal qilishda noqonuniy kuch vositalaridan foydalanishni istisno qiladigan, faqat qonuniy majburiyatlarga rioya qilish va bajarishdan tashqari, huquqiy sohadagi faoliyatning yuqori darajasi va intensivligini nazarda tutadi. Huquqiy madaniyatning barcha ko'rib chiqilayotgan tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil, lekin shu bilan birga o'zaro bog'liq va maxsus tizimni shakllantirish.

Huquqiy madaniyatning funktsiyalari: kognitiv, tartibga soluvchi, huquqiy sotsializatsiya, baholovchi, kommunikativ, bashorat qiluvchi.

1. Kognitiv funktsiya shaxslarda, ijtimoiy guruhlarda davlat-huquqiy hodisalarni idrok etish va anglash orqali zarur huquqiy bilimlar, g'oyalar shakllanib, shu asosda ular o'zlarining vazifalarini bajarish uchun huquqiy munosabatlarga kirishishlarida yotadi.

2. Tartibga solish funktsiyasi huquqiy tizimning barcha elementlarining va shu sababli butun jamiyatning barqaror, dinamik ishlashini ta'minlaydi. Bunga

odamlarning ongida ideal madaniyat, qadriyatlar, tamoyillar, an'analar va huquqiy madaniyatga xos ijtimoiy foydali, yuridik ahamiyatga ega xatti-harakatlarning namunalarini shakllantirish va mustahkamlash orqali erishiladi.

3. Huquqiy sotsializatsiya funktsiyasi huquqiy madaniyatning to'plangan tajriba, ma'lum huquqiy bilimlar, qadriyatlar, printsiplar, huquqiy hayot normalarining avloddan avlodga - vertikal va sub'ektlar o'rtasida gorizontal ravishda uzatilishini ta'minlash qobiliyatidan iborat. Shunday qilib, bu sub'ektlar tomonidan ularning huquqlaridan yanada samarali foydalanishga va qonuniy majburiyatlarni bajarishga, shuningdek, ham shaxsni, ham butun jamiyatni doimiy ravishda boyitishga yordam beradi.

4. Bashoratli funktsiya huquqiy madaniyat huquqni, qonuniylikni, qonuniylikni, huquqiy munosabatlarni va boshqa huquqiy hodisalarni ularni tegishli huquqiy qadriyatlar bilan taqqoslash yo'li bilan o'lchash, baholashga va shaxslarning, ijtimoiy jamoalarning ushbu hodisalarga zarur munosabatini rivojlantirishga qaratilgan.

5. Kommunikativ funktsiya huquqiy sohada ham fuqarolar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani, ham biz shaxsan tanish bo'lmagan zamondoshlarimiz bilan, hatto o'tgan avlod vakillari bilan bilvosita aloqani o'rnatishga imkon beradi. Bunday aloqa to'g'ridan-to'g'ri jamiyatda huquqiy ishlarning mavjudligiga, ommaviy axborot vositalarining rivojlanish darajasiga va, albatta, huquqiy madaniyatning boshqa xalqlarning huquqiy madaniyatlarining barcha turlarining yutuqlarini to'plash qobiliyatiga bog'liq. Bashoratli funktsiya huquqiy madaniyatning mumkin bo'lgan rivojlanish yo'nalishlarini oldindan ko'rish, qonun ijodkorligi va huquqni muhofaza qilish faoliyati oqibatlarini bashorat qilish, belgilangan maqsadlarga erishish uchun eng samarali vositalarni aniqlash, yangi huquqiy qadriyatlarning paydo bo'lishini bashorat qilish va ularning zarurligini tushuntirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Turli xil huquqiy madaniyat turlariquyidagi mezonlar asosida tasniflanishi mumkin: 1) huquqiy madaniyatni tashuvchisiga qarab shaxs, guruh va jamiyatning huquqiy madaniyatini ta'kidlash; 2) huquqiy hodisalarni bilish darajasi bo'yicha va ulardan huquqiy faoliyatda foydalanish huquqiy madaniyatning oddiy, professional va nazariy darajasini ajratib turadi.

Huquqiy madaniyat- bu shunchaki u yoki bu munosabat emas, balki avvalo uning me'yorlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Huquqiy madaniyat insonning tashqi dunyo va odamlar bilan munosabatlarini "normallashtirish" xususiyatiga asoslangan. Tor ma'noda Bu odamlar yoki ularning tashkilotlari o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida shakllangan, davlat tomonidan majburiy va himoyalangan qat'iy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar tizimi. Keng ma'noda- bu shaxsning mehnat, muloqot, xulq -atvori, shuningdek, jamiyatning moddiy va ma'naviy qadriyatlariga munosabati jarayonida amalga oshiriladigan huquqiy bilimlari, e'tiqodi va munosabatlari majmui.

Huquqiy madaniyatning ixtisoslashgan darajasi qonun, huquqshunoslik, jamoat tartibini himoya qilish tizimi va huquqiy munosabatlarni tartibga solish tizimi, oddiy, axloqiy insonning jamiyatda yashashi uchun zarurdir. Ular, siyosat

singari, davlat, ijtimoiy guruhlar va shaxslar o’rtasidagi munosabatlarni tartibga soladilar, shuning uchun ularning ta’siri jamiyat hayotining barcha muhim sohalariga tarqaladi.

Huquq madaniyati shular jumlasidan elementlar qonun sifatida, huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, qonuniylik va tartib, qonun chiqaruvchi, huquqni muhofaza qilish va jamiyatda huquqning ishlashi sohasidagi boshqa faoliyat sifatida va ijtimoiy institutlarning keng tizimiga ega - qonun chiqaruvchi organlar, sudlar, prokurorlar, politsiya, jazoni ijro etish muassasalari.

Qonun odatdan kelib chiqadi, axloq va din bilan chambarchas bog’liq. Turli davrlarda huquqiy madaniyatning har xil shakllari bo’lgan. Zamonaviy huquqiy madaniyat tenglik, erkinlik va adolat tamoyillariga asoslanadi. Shunday qilib, barcha odamlarni bitta ijtimoiy o’lchov bilan o’lchash, ularning huquq va majburiyatlarini muvozanatli birlashtirish talablari paydo bo’ladi. Shu bilan birga, o’zboshimchalik va qasddan istisno qilinadi, garchi har bir kishi o’z xohish - irodasini erkin ifoda etish va o’z xulq -atvorini izlash huquqiga ega. Bu sizning erkinligingizni boshqa odamlar erkinligini tan olish bilan bog’laganingizda mumkin.

**Huquqiy madaniyatning o’ziga xosligi.** Har qanday narsa, birinchi navbatda, madaniyatli turmush tarzi, shaxs, ijtimoiy guruhlar va umuman jamiyatning intellektual, ma’naviy, psixologik va xulq -atvor qadriyatlari tizimi. O’ziga xoslik huquqiy madaniyat Umumiy madaniyatning alohida sohasi sifatida davlat va barcha davlat xizmatchilarining, shuningdek, barcha huquq sub’ektlarining hayotining alohida shakli yotadi. Boshqacha qilib aytganda, bu jamiyatning umumiy madaniyatining bir qismi bo’lib, u huquqiy tizim bilan bog’liq va huquqiy jarayonni boshqaradi. Huquq tizimi huquqiy madaniyatsiz ishlamaydi. Davlat va huquqning jamiyat hayotidagi rolini bilish va chuqur tushunish, bu bilimlarga amal qilishga tayyorlik, kundalik xulq-atvorining amaldagi qonunlarga muvofiqligi, to’plangan huquqiy qadriyatlarga hurmat-bularning barchasi spetsifikatsiyalar ya’ni huquqiy madaniyat.

Har qanday, har qanday, har qanday odamlar jamoasi o’z huquqiy madaniyatiga ega. Huquqiy madaniyat, bir tomondan, ilgari mavjud bo’lgan va shu davrda mavjud bo’lgan, davlatning davlat haqiqati va huquqiy haqiqatini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, bu haqiqatga ta’sir qiladi. Agar u haqiqiy madaniyat bo’lsa, unda u siyosiy va huquqiy sohada ilgari surilgan, qimmatli, ijtimoiy jihatdan oqlangan hamma narsani o’zida mujassam etgan, davlatning tashkil etilishi va faoliyatini takomillashtirishga, amaldagi qonunlarning sifati va samaradorligini oshirishga hissa qo’shadi. intizom, qonuniylik va qonuniylikni mustahkamlash, har bir insonning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan himoyalangan manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish.

Huquqiy madaniyat jamiyatda mavjud bo’lgan baho va g’oyalarni ifodalovchi va huquqiy sohaga nisbatan ma’lum umid va istaklarni shakllantiruvchi tanqidni ifoda etuvchi, ular bilan chambarchas bog’liq va doimiy aloqada bo’ladi. Huquqiy madaniyat huquqiy ong kabi huquqiy ongga ham asoslanadi - huquqiy madaniyat.

Huquqiy ongda bo'lgani kabi, huquqiy madaniyatda ham uning tashuvchilarini hisobga olgan holda, kichik turlarni ajratish mumkin. Eng keng tarqalgan hodisa jamiyatning huquqiy madaniyati. Muayyan xarakterli xususiyat va xususiyatlarga ega odamlarning huquqiy madaniyati milliy huquqiy ongning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, shuningdek ijtimoiy guruhlarning huquqiy madaniyati mamlakat aholisi, masalan, keksa fuqarolar, shaharlar, qishloqlar aholisi, ta'lim, kasbiy xususiyatlari bilan aniqlangan guruhlar. Yoqilgan individual huquqiy madaniyat shaxsning olgan ma'lumoti, kasbiy mansubligi, dinga bo'lgan munosabati, yosh ayol yoki qishloqda yashash, yashash muhiti, shu jumladan ozodlikdan mahrum qilish joylarida jinoyat uchun jazo o'tagan lindenslar bilan muloqot. ta'sir. Shunday qilib, ommaviy va guruhli, individual huquqiy madaniyatlar zamonaviy jamiyatning haqiqatidir.

Shaxsning ongli ijtimoiy-huquqiy faoliyati, ya'ni qonun ustuvorligini va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida uning huquqiy bilimlardan foydalanishi ommaviy madaniyat madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan huquqiy madaniyatning eng yuqori ifodasidir. Shaxsning tabiiy va boshqa huquq va erkinliklarining kengligi va haqiqiy kafolati huquqiy madaniyatning o'ziga xos birinchi va muhim belgilaridan biridir.

Huquqiy madaniyatning shakllanishi

Huquqiy madaniyatning to'rtta asosiy darajasi (shtatlari) mavjud:

• mafkuraviy (huquqiy g'oyalar);

• normativ (huquqiy normalar);

• xatti -harakatlar (qonuniy harakatlar);

• ob'ektivlashtirilgan (yuridik faoliyat natijalarini mustahkamlaydigan yuridik institutlar).

Bu pozitsiyalardan jamiyatning huquqiy madaniyati o'ziga xos ijtimoiy madaniyat sifatida namoyon bo'ladi, u ma'lum darajadagi huquqiy onglilik, qonuniylik, qonunchilik va huquqiy amaliyotning mukammalligini aks ettiradi va odamlar huquq sohasida yaratgan barcha qadriyatlarni qamrab oladi.

Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining tarkibiy qismi va unga bog'liq bo'lgan qadriyat bo'lib, u yoki bu tarzda shaxsning qonuniy faolligini ta'minlaydigan uning progressiv rivojlanish darajasi va xususiyatini aks ettiradi. Bu shaxsning bilimi bilan bog'liq va uning huquqiy ongiga bog'liq.

Rivojlangan ommaviy huquqiy ong, alohida fuqarolarning etuk huquqiy faoliyati - tsivilizatsiyalashgan jamiyatda qonun ustuvorligining asosi, qonun ustuvorligining asosi. Shu sababli, fuqarolarning huquqiy ongini tarbiyalash huquqbuzarliklarning oldini olish, zamonaviy sharoitda jinoyatchilikka qarshi kurashishning zaruriy qismidir.

Huquqiy ta'lim jamiyat a'zolarining ongi va xulq -atvor madaniyatiga maqsadli va tizimli ta'sir bo'lib, ularda qonunni hurmat qilish tuyg'usini va shaxsiy ishonch asosida qonunlarga rioya qilish odatlarini rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday holda, eng samarali natijaga shaxsning huquqning asosiy qoidalarini ongli ravishda o'zlashtirishi orqali erishiladi.

Huquqiy ta'lim Bu huquq, bilim va tamoyillar, normalarni uzatish, to'plash va o'zlashtirish, shuningdek huquq va unga amal qilish amaliyotiga munosib

munosabatni shakllantirish, o’z huquqlaridan foydalanish, taqiqlarga rioya qilish va majburiyatlarni bajarish qobiliyatidir.

Albatta, tarbiyaning bu shakli har bir shaxs uchun maqbul bo’lavermaydi. Har bir fuqarodan advokat yasashga urinish utopik bo’lardi, lekin huquqiy savodsizlik va huquqiy nigilizmni yengish huquqiy madaniyatni rivojlantirish shartlaridan biridir. Buning uchun jamoat-davlatning doimiy harakatlari zarur tashviqot, ta’lim darajasi. Bunday ishlarning shakllari quyidagilar: aholi o’rtasida ma’ruzalar, ommaviy axborot vositalarida targ’ibot va tarbiya, huquqiy bilimlar bo’yicha ma’ruzalar; umumiy ta’lim muassasalari, kollejlar va yuridik bo’lmagan universitetlarda yurisprudensiya asoslarini o’qitishda maxsus ma’ruza kurslari; malaka oshirish tizimidagi darslar. Ularning barchasi muayyan huquqiy g’oyalar va qadriyatlarni tarqatishga, vizual ravishda huquqiy me’yorlarga rioya qilishga chaqirishga, qonunlarning mazmunini tushuntirishga qaratilgan.

## 10-Mavzu: Huquqiy tarbiya amaliyoti

**Reja:**

1. Huquq fanlarini o‘qitishda huquqiy tarbiyani olib borish.
2. Sinfdan tashqari huquqiy tarbiyani olib borish.
3. Huquqiy tarbiyada zamonaviy texnologiyalarni qo’llash.
4. Huquqiy tarbiyada huquqiy adabiyotlardan foydalanish.
5. Ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy tarbiyani olib borish.

Yoshlar huquqiy tarbiyasining samaradorligi ko‘p jihatdan uning qanchalik o‘z vaqgida boshlanishi bilan bog‘liq. 9-sinfgacha huquq bo‘yicha maxsus darslar o‘tkazilishi nazarda tutilmagan, lekin huquqiy ta’lim o‘quvchilarni tarbiyalash dasturining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi hamda boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinflarning barcha o‘qituvchilari huquqiy-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishi va o‘tkazishi shart. Odatda, bunday maqsad uchun sinfdagi soat, sinfdagi va sinfdan tashqari o‘qish darslari imkoniyatlaridan foydalaniladi.

Sinfdagi tarbiyaviy soat (sinf rahbari soati) - bu ma’naviy tarbiya darsidir. U anjuman, ma’ruza, axborot, suhbat, munozara shaklida o‘tkazilishi mumkin.

Bizning nazarimizda, suhbat (barcha sinflar o‘quvchilari uchun) va munozara (yuqori sinf o‘quvchilari uchun) maktab o‘quvchilarining huquqiy ta’limida eng samarali usuldir.

Amaldagi uslubiy tavsilar va to‘plangan tajribaga amal qilgan holda o‘quvchilarning I-IV, V-IX, X-XI sinflardagi huquqiy ta’lim jarayonining asosiy qoidalarini bayon qilamiz.

Suhbat va munozaralarni o‘tkazish sinf rahbarlariga yuklanadi, ular muayyan vazifalardan kelib chiqib, maktabdagi huquq o‘qituvchilari, adliya, voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo‘yicha inspeksiyalar, DAN xodimlari, ko‘ngilli xalq drujinalari a’zolarini, jamoatchi tarbiyachilarni, ustozlar, ota-onalarni bunday suhbat va munozaralarda ishtirok etish uchun jalb qilishi mumkin. Shubhasiz, sinf soatlarida bolalar bilan ishlash yuzasidan tajribaga ega huquqshunoslarning ishtirok etishi katga samara beradi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘quvchilari “O‘rta umumiy ta’lim maktabi nizomi”, voyaga yetaaganlarning jamoat joylaridagi xulq- atvor qoidalari, “Ko‘cha

harakati qoidalari"ni o'rganishda huquq haqidagi ilk tasavvurlarga ega bo'ladilar. O'quvchilar "O'rta umumiy ta'lim maktabi nizomi" bilan tanishishda o'zlarining "tirishqoqlik bilan o'qishi, o'zini namunali tutishi, maktab ijtimoiy turmushida va ijgimoiy foydali mehnatda faol qatnashishi, o'quvchilar uchun qoidalarga amal qilishi" shartligini anglab oladilar.

Boshlang'ich sinflarning o'quvchilari uchun suhbatlar, odatda, "Sening huquqlaring va majburiyatlaring" mavzuidan boshlanadi.

O'quvchilar uchun qoidalar, quyidagi axloqiy-huquqiy mavzularda suhbatlar o'tkazish imkoniyatini beradi. I-V sinflar uchun: "Xalq boyligini ehtiyot qiling, buyumlarni avaylang, tabiatni muhofaza eting, tozalikka rioya qiling", "O'zingni namunali tut" va h.k.

X-XP sinflar o'quvchilari uchun: "Xalq mulkini, ona tabiat boyliklarini saqlash va ko'paytirish haqida g'amxo'rlik qil", "O'zingdan kichiklarga xulq-atvor madaniyati bo'yicha munosib namuna ko'rsat", "Axloqqa zid va jamiyatga qarshi xatti-harakatlarga nisbatan toqatsiz munosabatda bo'l" va hokazo.

Bolalar jamoat joylaridagi xulq-atvor qoidalarini o'rganish chog'ida hovlilar, ko'chalar, hiyobonlar, bog'lar, teatrlar, kinoteatrlar va shu kabilarda o'zini tutish qoidalari haqida bilimlar oladilar, o'zidan kattalarga hurmat-ehtirom bilan muomala qilish, mulkka avaylab munosabatda bo'lish, o'z o'rtoqlarini maktab o'quvchisi degan nomga dog' tushiradigan qiliqlarni qilishdan tutib turish zarurligini anglab yetishadi, shuningdek, ko'chalarda kattalarsiz yurish mumkin bo'lgan vaqt to'g'risida (o'quv yili davomida soat 21 gacha, ta'tillar paytida - soat 22 gacha) bilib olishadi.

Maktablarda bunday mavzularni o'rganish yuzasidan katta tajriba to'plangan. Masalan, birinchi sinf o'qituvchisi yomon qiliqdarning oldini olish maqsadida shunday suhbatlarni o'tkazadi: "Jamoat joylarida o'zingni yaxshi tut", "Yaxshi va yomon ishlar", "Ishonchni yo'qotish oson, uni qozonish qiyin", "Haqiqatga tik qarashga o'rgan" va h.k. Birinchi sinf o'quvchilari shunday kinolentalarni tomosha qiladilar va muhokamadan o'tkazadilar: "Qahramonning ukasi" va boshqalar. Bu sinfda bolalar gazetalari va jurnallaridagi hikoyalarni muntazam o'qib boradilar va o'quvchilarning o'zlari u yoki boshqa ijobiy yoki salbiy qilmishga baho beradilar.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni tabiatning muhofaza qilinishi bilan tanishtiradigan mashg'ulotlar qiziqarli o'tadi.

**Davlat** - ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyatning harakatlanishida muhim rol o'ynovchi alohida bir tashkilotdir. U har qanday jamiyat siyosiy tizimining bir qismi (elementa), hokimiyatni amalga oshiruvchi vositadir. Uning faoliyati jamiyatning hamma sohasiga ta'sir qiladi. U vakolatni xalqdan oladi va o'ziga tegishli vakolatni o'zining maxsus tuzilmalari - davlat organlari orqali amalga oshiradi. Davlat xalq manfaatini ko'zlasa, unga ijtimoiy hayotda, davlat ishlarida, xo'jalik yuritishda erkinlik bersa, tinchlik siyosati yurgizsa, davlat demokratik hisoblanadi va taraqqiyotga sabab bo'ladi. Aksincha, xalqning erkinligini cheklasa, taraqqiyotga to'sqinliq qilsa, zo'ravonlik bilan ish olib borsa - reaksion davlat hisoblanadi. "Davlat" so'zi ko'pincha "mamlakat" so'zi o'rnida ham ishlatiladi. Masalan, ayrim hollarda "mamlakatimiz" degan so'z o'rnida "davlatimiz" degan

so'zlarni uchratishimiz mumkin. Davlatning ko'rsatmasi jamiyatning hamma a'zolari - fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet el fuqarolari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari uchun majburiydir. Davlat qonun yaratadi va o'zi ham qonunlarga bo'ysunadi.

**Davlat apparati** - keng ma'noda, davlat funksiyasi va davlat hokimiyatini amalga oshiradigan organlar tizimi. Tizim - hamma davlat organlarining yig'indisi. Tor ma'noda, ijro hokimiyati organlari yig'indisi.

**Davlatning boshqaruv shakli** - hokimiyatni tashkil qilish oliy organlarning vakolatlari, ular o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq bo'ladi. Davlatning boshqaruv shaklini aniklashda eng muhim belgi-davlat boshlig'ining huquqiy maqomi qandayligi, u davlat boshiga qanday yo'l bilan kelishi hisoblanadi. Dunyodagi barcha mamlakatlar boshqaruv shakliga qarab ikkiga: respublika va monarxiyaga bo'linadi. Respublika shaklidagi davlatlarda davlat boshlig'i saylanish yo'li bilan hokimiyat tepasiga keladi. Ular ma'lum muddatga saylanadi, ya'ni o'zgarib turadi va ko'p mamlakatlarda - Prezident deb nomlanadi. Davlatning monarxiya shaklida esa davlat boshlig'i nasldan - naslga o'tadi, ya'ni davlat boshlig'i - monarx hisoblanadi. Ular turli nomlar bilan ataladi, masalan Saudiya Arabistonida - podshoh, Yaponiyada - imperator, Angliyada - qirol. O'zbekiston Respublikasida davlatning boshkaruv shakli - respublika hisoblanadi va davlat boshlig'i Prezidentdir.

**Davlatning vazifasi** - mamlakatning normal rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Bu fuqarolarning huquq, erkinliklari va xavfsizligini ta'minlash, iqtisodni tashkil qilish natijasida farovon hayotni yaratish demakdir. Mamlakatning xavfsizligini ta'minlash xam davlatning vazifasidir. Davlat o'z vazifasini bajarish jarayonida chet mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatadi va o'z fuqarolarining manfaatini chet mamlakatlarda ham himoya qiladi.

**Davlat hokimiyati** - xalq hokimiyatining maxsus tuzilma - davlat orqali amalga oshirilishi. Davlat o'zining organlari orqali siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi. Hokimiyat davlat ko'lida to'plangandagina u malakali va samarali amalga oshirilishi mumkin. Davlat o'ziga tegishli hokimiyat yordamida majburlov va ta'sir choralarini qo'llaydi. Davlat hokimiyati qonuniydir, ya'ni davlatning, uning organlarining vakolatlari qonun bilan belgilab qo'yiladi.

**Davlat huquqi** - "Konstitutsiyaviy huquq" atamasining o'xshashi. Ayrim mamlakatlarda xukuqning aloxida va yetakchi tarmog'i bo'lib, mamlakatning sotsial-iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy tuzilishi asoslarini, fuqarolarning asosiy xukuq, erkinlik va burchlarini, davlat organlari tizimini o'rnatuvchi hukuqiy normalar yig'indisidan iborat bo'ladi.

**Demokratik davlat** - bunday davlatda davlat organlarini tashkil qilishda, ularning faoliyatida mamlakat fuqarolari turli-tuman yo'llar orqali keng ishtirok etadilar. Fuqarolarning davlat organlarini tashkil qilishdagi ishtiroki qonun yo'li bilan kafolatlanadi va ularning ishtirokiga keng imkoniyatlar yaratiladi. Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmati, hayoti, sog'lig'i har narsadan yuqori turadi. Davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash choralarini doimiy ravishda ko'rib boradi. Davlat fuqarolar nazoratida va ularga turli vositalar orqali hisob beradi. Demokratik davlat o'zini o'zi boshqarish, ko'ppartiyalilik

ommaviy axborot vositalarining erkin bo'lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi.

**Yozishmalarning sir saqlanishi** - insonning konstitutsiyaviy xuqukdaridan biri bo'lib, u barcha turdagi pochta, telegraf jo'natmalari (xat, telegramma, posilka, radiogramma va b.), telefon so'zlashuvlari va boshqa xabarlarning daxlsizligini o'z ichiga qamrab oladi. Hech kimning shaxe irodasiga zid holatda uning yozishmalari, telefon so'zlashuvlari, telegraf ma'lumotlari bilan tanishishga haqqi yo'q. Bunday holda albatga prokurorning sanksiyasi yoki sudning ajrimi bo'lishi shart.

**Ijod erkinligi** - Har kim ilm, texnika, adabiyot, san'at va madaniyat sohalarida erkin ijod qilish xukuqiga ega. Bu huquqdan foydalanish natijasida ilm-fan, texnika rivojlanadi. Bundan davlat ham, ijodkor ham manfaatdor bo'ladi. (Konstitutsiyaning 42-moddasi).

**Ijtimoiy davlat** - bunday davlatda fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning asosiy vazifasi qilib belgilanadi. Bunda davlat kishilar o'rtasida ijtimoiy tafovutlarni yo'qotish uchun harakat qiladi. Mamlakatda kam ta'minlangan fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini ko'radi. Garchi ayrim davlatlardagi singari Konstitutsiyamizda, O'zbekiston ijtimoiy davlat deb ko'rsatilmagan bo'lsa-da, ijtimoiy ta'minot sohasida O'zbekistonning o'tkazayotgan siyosati uning ijtimoiy davlatga xos xususiyatini ko'rsatadi.

**Inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari** - Konstitutsiya normalari bilan o'rnatilgan burchlar. Bunda ayrim harakatlarni qilish taqiqlanishi yoki, aksincha, albatta qilish, bajarish zarurligi belgilab qo'yiladi. (Konstitutsiyaning XI bobi, 47-52-moddalar).

**Insonning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi** - Insonning Konstitutsiya bilan kafolatlangan huquq, erkinliklari va o'rnatilgan burchlari yig'indisi. Uning konstitutsiyaviy-xuquqiy maqomining asosiy prinsiplari - inson huquqlarining daxlsizligi va ulardan sud qarorisiz maxrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kimning haqli emasligi, huquq va erkinliklarining samarali kafolatlari mavjudligi; qonun oldida teng huquqlilik; huquq va burchlar o'rtasida o'zaro aloqaning mavjudligi hisoblanadi.

**Inson huquqlari** - Insonga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy sohada faoliyat ko'rsatishi uchun zarur qoida va boshqa hujjatlarda belgilab qo'yilgan imkoniyatlar. Huquqlar hamma vaqt davlat tomonidan qabul qilingan hujjatlarda (Konstitutsiya, qonun, farmon va boshqalarda) o'z aksini topadi. Ayrim huquqlar - bular shaxsiy yoki tabiiy huquqlar deyiladi, bular albatta bo'lishi kerak bo'lgan huquqlar, davlat uni ta'minlashi, hech qachon cheklamasligi kerak (masalan, yashash huquqi, qiynoqqa solinmasligi va hokazo), ayrim huquqlarni davlat o'z imkoniyatidan kelib chiqib belgilaydi. Ular sharoit va imkoniyatga qarab chegaralanishi, to'xtatilishi mumkin (masalan, siyosiy partiyalar tuzish, namoyish, miting o'tkazish, ta'minot olish va boshqalar). Inson huquqlari faqat o'rnatilmay, davlat tomonidan ta'minlanadi.

**Inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolati** - asosiy huquqlarning Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilishi. Asosiy huquq va erkinliklarni

chegaralash, undan mahrum qilish hollari ham Konstitutsiyada belgilangan. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ko’plab mamlakatlarning konstitutsiyalardan farq qilib, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning kafolatlarini alohida bobda mustahkamlab qo’ygan (Konstitutsiyaning X bobi, 43-46-moddalar).

**Insonning huquqiy holati** - insonlarning qonun yo’li bilan davlat tomonidan e’tirof etilgan va kafolatlangan huquq, erkinlik va burchlari hamda manfaatlarining tizimi (yig’indisi). Huquq va erkinlik - insonning davlat tomonidan e’tirof etilgan va ta’minlanadigan imkoniyatlari. Burchlar davlat tomonidan o’rnatilgan, ko’pchilik manfaatiga mos tushuvchi ayrim harakatni sodir etishdan tiyilish, ayrim harakatlarni albatta sodir etishdir.

**Yig’ilish o’tkazish erkinligi** - bu fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy faolliklarini, biron-bir voqeaga o’zlarining munosabatini bildirish maqsadida yig’ilishlar o’tkazish huquqidir. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridan yig’ilish o’tkazishni to’xtatishi yoki taqiklashi mumkin. (Konstitutsiyaning 33- moddasi).

**Kompetensiya (vakolat)** - davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning davlat organlari tizimida aniq o’rnini ko’rsatuvchi) huquqiy jihatdan belgilangan huquq va burchlarining yig’indisi. Kompetensiya (vakolat) faqat huquq emas, burchdan ham iborat bo’ladi.

**Ko’ppartiyaviylik** - mamlakatda ikki va undan ortiq partiyalarning bo’lishi. Bu demokratik davlatni xarakterlovchi xususiyat. Mamlakatda bir necha partiyalarning bo’lishi, fikrlar xilma-xilligini ta’minlaydi. Ko’ppartiyaviylikka konstitutsiya asos solgan. Partiyalarni tashkil etish, ro’yxatdan o’tkazish, faoliyatini to’xtatish, tugatish maxsus qonunlar bil an tartibga solinadi. Partiyalar safiga kirish, chiqish ixtiyoriy. Faqat partiyalar qonunsiz tashkil qilinishi, harakat qilishi mumkin emas. Konstitutsiyaviy tuzumga, inson huquq va erkinliklariga qarshi kurashishni maqsad qilib qo’ygan partiya tuzish taqiqlanadi. (Konstitutsiyaning 57-moddasi).

**Majoritar saylov tizimi** - ko’pchilik mamlakatlarda, jumladan, O’zbekistonda qo’llaniladi. Ovoz berishda aniq bir nomzodga ovoz beriladi. Saylovchilarning yarmidan ko’pining ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Majoritar saylov tizimining aksi bo’lgan proporsional saylov tizimida partiya ro’yxatiga (biror-bir siyosiy partiya uchun) ovoz beriladi. Olingan ovozlarga qarab deputatlar o’rni taqsimlanadi.

**Mahalliy o’zini o’zi boshqaruv** - fuqarolarning joylarda davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini ta’minlovchi, joylarda davlatning ayrim funksiyalarini amalga oshirish vositasi-hokimiyatning bir turi. Ko’pchilik mamlakatlarda mahalliy miqyosda davlat hokimiyati organlari tashkil etilmay, u yerda faqat mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlari tashkil etiladi (Rossiyada). O’zbekistonda joylarda mahalliy davlat hokimiyati organlari ham, mahalliy o’zini o’zi boshqaruv organlari ham mavjud. O’zbekistondagi fuqarolarning o’zini o’zi boshqaruv organi - fuqarolar yig’inidir.

**Mehnat huquqi** - ikki ma’noda ishlatiladi. Birinchisi, ma’lum munosabatlarni (mehnat munosabatlarini) tartibga soluvchi huquqiy normalar

yig'indisi bo'lib, bunda u huquqning alohida bir tarmog'i hisoblanadi. Ikkinchi ma'nosi mehnat huquqi deganda shaxsning mehnat qilish huquqini bildiradi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 37-moddasida mehnat qilish huquqi shaxsning asosiy huquqlari sifatida belgilangan. Unga asosan, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash hukuqiga ega. Davlat mehnat huquqini kafolatlab, har bir shaxsga yaxshi, adolatli mehnat sharoitlarini yaratib berish, ishsizlikdan himoya qilish majburiyatini oladi. Mehnatga yarasha haq to'lash qonun bilan belgilanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari hech kim majburiy mehnatga jalb qilinishi mumkin emas. Voyaga yetmaganlarning mehnat huquqi alohida himoya qilinadi. Ular uchun kam ish kuni va soati o'rnatiladi, og'ir va zararli ishlarga jalb qilish taqikdanadi.

**Milliy teng huquqlilik** - Shaxsning huquqiy holati prinsiplaridan. Barcha fuqarolar millatidan qat'i nazar qonun oldida, davlatni boshqarishda va barcha huquqlardan foydalanishda tengdir. Bu masalalarda biror-bir millatga imtiyozlar ham berilmaydi, kamsitilmaydi ham. Kamchilikni tashkil etuvchi millatlarning madaniyati, tili, urf-odatlari xurmat qilinadi va ularning rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi.

**Muqobil saylov** - ovoz berishda tanlash uchun imkoniyat yaratadi. Saylov byulletenlariga ikki va undan ortiq nomzod kiritilib, saylovchi ixtiyoriy ulardan biriga ovoz beradi; belgilangan mikdordagi ovozni olgan nomzod saylangan hisoblanadi.

**Ovoz berish** - referendum va saylovda ishtirokchilarning istak-xohishini amalga oshirish shakli. Ovoz berish yashirin yoki ochiq bo'lishi mumkin. Ovoz berish demokratik o'tishi, ovoz beruvchiga tashki ta'sir bo'lmasligi uchun yashirin ovoz berish tartibi o'rnatiladi. Referendumda biror-bir masalaga ovoz berilsa, saylovda shaxsga nisbatan ovoz beriladi. Ovoz berish faqat umumiy saylovlarda emas, vakillik organlarining faoliyatida ham qo'llaniladi. Har bir masala u yerda ovozga ko'yilib hal qilinadi. Qanday masalalar ochiq ovoz bilan, qanday masalalar yashirin ovoz berish yo'li bilan hal qilinishi qonun va boshqa hujjatlarda belgilab qo'yiladi.

**Oila** - jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Oila jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Oilada er-xotinlik, ota-onalik, farzandlarning o'zaro shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlari bilan bog'liq munosabatlar mujassamlashgandir.

**Parlament** - bu so'zning asl ma'nosi "munozara joyi", fransuzcha "parla"-gap-so'z bahs, "ment"-joy, o'rni demakdir. Demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomidir. Parlament birinchi marta XIII asrda Angliyada tashkil qilingan. Oliy vakillik organlari bir necha mamlakatlarda jumladan, Angliya, Fransiya, Italiya, Kanada, Belgiyada to'g'ridan-to'g'ri parlament deb ataladi. AQSh va ba'zi Lotin Amerikasi mamlakatlarida Kongress, Rossiyada Federal Majlis, Litva, Latviya, Polshada Seym deb ataladi. O'zbekistonda esa u Oliy Majlisdir. Parlamentni tashkil qilish tartibi, vakolat muddati, vakolat doirasi turli mamlakatlarda turlicha bo'lib, ular Konstitutsiya hamda qonunlarda belgilab qo'yiladi.

**Passiv saylov huquqi (saylanish huquqi)** - ma'lum yoshga yetgan, muomalaga layoqatli fuqarolarga taalluqli. Mahalliy Kengash deputatligiga 21 yoshga, Oliy Majlis deputatligiga 25 yoshga, Respublika Prezidentligiga 35 yoshga yetgan fuqarolar saylanish huquqiga egadirlar. Saylanish hukuqiga ega bo'lish uchun yana boshqa shartlar ham qo'yiladi. Masalan: Prezident bo'lib saylanish uchun O'zbekistonda kamida oxirgi 10 yil ichida doimiy yashagan bo'lishi va davlat tilini yaxshi bilishi kerak. Oliy Majlis deputatligiga saylanish uchun kamida so'nggi besh yilda O'zbekistonda doimiy yashagan, qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun avval sudlanmagan bo'lishi kerak. Saylanish huquqiga ega bo'lish uchun boshqa shartlar ham qo'yilishi mumkin.

**So'z erkinligi** - insonning shaxsiy va fuqaroning siyosiy huquqlaridan biri bo'lib, "ommaviy axborot erkinligi" deb nomlangan umumiy huquqning tarkibiy qismidir. O'zining fikrlarini, xohishini ommaviy tarzda og'zaki, yozma, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda bayon etilishida ifodalanadi.

**Fuqaro majburiyati** - davlatning o'z xududida bo'lgan har qanday shaxs yoki o'sha davlat fuqarosiga, u qaerda bo'lishidan qat'i nazar konstitutsiyaviy - huquqiy me'yorlar asosida qo'yadigan talabidir. Uzbekistan Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekistan fuqarolari Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga (48-modda); O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga (49- modda); atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga (50-modda); qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga (51-modda), shuningdek, qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar (52-modda).

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari** - fuqarolarning xalq hokimiyatini amalga oshirishining, davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishining vositalaridan biridir. O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarning (aholining) yig'inlari hisoblanadi. O'zini o'zi boshqarish organlari shaharcha, qishloq, ovullarda, ularning tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda tashkil qilinadi. Shu yerdagi aholi o'z yig'inlarida ikki yarim yil muddatga Kengash va Raisni (oqsoqolni) saylaydi. Ular doimiy ishlovchi o'zini o'zi boshqarish organlaridir. Fuqarolar yig'ini yoki ularning vakillari yig'ilishida shu yerda istiqomat qiluvchi 18 yoshga yetgan barcha fuqarolar ishtirok etishi mumkin. O'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish tartibi, vazifasi, vakolatlari dastlab 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunda belgilab qo'yilgan edi.

**Fuqarolik jamiyati** - ma'lum ijtimoiy tizim bo'lib, unda shaxsga iqtisodiy va siyosiy turmushini o'z ixtiyori asosida qurishga to'la erkinlik kafolatlanadi. Fuqarolik jamiyatida umuminsoniy huquqlar ta'minlanadi va siyosiy turli fikrlilik o'rnatiladi. Fuqarolik jamiyatida davlat faoliyati yuzasidan fuqarolarning to'la nazorati o'rnatiladi, davlatning ko'pgina vazifalari mahalliy joylarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, jamoat birlashmalariga, nodavlat tashkilotlariga o'tadi. Hozir O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

**Qonun** - mamlakat miqyosida oliy yuridik kuchga ega hujjat. Qonun mamlakatning oliy vakillik organi-O'zbekistonda Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi. Qonunlar umumxalq ovozi - referendum yo'li bilan ham qabul qilinishi mumkin. Qonunlar muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun qabul qilinadi. Qonunlar - konstitutsiyaviy qonunlar va oddiy qonunlar shaklida qabul qilinishi mumkin. Qonun qabul qilishning aniq jarayon va tartiblari belgilangan.

**Qonuniylik** - Konstitutsiya va barcha qonunlarga hamda ular asosida va ularni amalga oshirish uchun chiqarilgan, ularga zid bo'lmagan hujjatlarga hamma davlat va jamoat organlarining, mansabdor shaxslarning, fuqarolarning og'ishmay amal qilishidir. Qonuniylik demokratik va huquqiy davlatning ajralmas belgisi, elementidir.

**Huquq** - ushbu so'zning bir necha ma'nosi bo'lib, birinchidan, u davlat tomonidan bajarilishi majburiyligi o'rnatilgan yurish-turish qoidalari, xatti-harakatlardir. Ikkinchidan, huquq tushunchasi fuqarolarga nisbatan olinsa, u ularga berilgan imkoniyat. Xukuq konstitutsiyaviy yoki oddiy huquqlarga bo'linadi. Konstitutsiyaviy huquqlar konstitutsiyaviy normalar bilan, oddiy huquqlar oddiy qonunlar bilan belgilanadi. Uchinchidan, huquq, o'z navbatida, tarmoqlarga bo'linadi: konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi va boshqalar; ular alohida hujjatlarda mustahkamlab qo'yiladi.

**Huquqiy madaniyat** - fuqarolarning yetukliligi va ongliligini ko'rsatuvchi mezon. Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi tushunchasi, qonunlarning ahvoli, huquqni amalga oshirish ishlarini tashkil etish darajasi, huquqning obro'yi singari elementlardan tashkil topadi. Huquqiy madaniyatga huquq fanining rivojlanish darajasi, huquqni tashviqot qilishning qanday yo'lga qo'yilganligi, madaniyatning umumiy darajasi ta'sir qiladi. Huquqiy madaniyat huquqiy ongning amaliyoti, ya'ni huquqni qo'llash, amaliyotga tatbiq etishdir. Shaxs qanchalik huquqiy bilimga ega bo'lmasin, qonun va boshqa qoidalarga amal qilmasa, u jamiyat uchun katta zarardir. Bu huquqiy madaniyatsizlikdir.

**Huquqiy munosabatlar** - huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar. Mehnat, mulkiy, pul-kredit munosabatlari huquqiy munosabatlarga kiradi.

**Huquqiy ong** - kishilarning huquqqa, qonunga, odil sudlovga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlar yig'indisi. Huquqqa hurmatda bo'lish yoki huquqni mensimaslikka ta'sir qiladi. Kishining huquqiy ongi qanchalik kuchli bo'lsa, huquq normalarining ixtiyoriy bajarilishiga olib keladi. Huquqiy ong huquqiy bilimlar asosida shakllanadi va huquqiy madaniyat orqali amal qiladi.

# Ilovalar

**Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fani bo'yicha test savollari.**

| T.r | Test topshirig'i | To'g'ri javob | Muqobil javob | Muqobil javob | Muqobil javob |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Mamlakatimizda baynalmilal madaniyat markazi qachon tashkil topgan? | 13 yanvar, 1992 | 25 dekabr, 1992 | 16 aprel, 1992 | 18 sentyabr. 1993 |
| 2 | Qaysi xalqaro tashkilot va qachon "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi" qilgan? | YUNESKO1995 | Evropa kengashi (EK), 1990 | Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), 2000 | Yevropa Xavfsizlik va Hamkor-lik Tashkiloti (EXXT) 1998 |
| 3 | "Bagrikenglik" tushunchasining ma'nosini aniqlang. | hamma javoblar to'g'ri | Chidamlilik | bag'ri-kenglik | Sabr |
| 4 | Hozirgi kunda O'zbekistanda qancha millat va elat vakillari istiqomat qiladi? | 137 | 150 | 126 | 140 |
| 5 | O'zbekistonda matbuot nashrlari nechta tilda chop etiladi? | 5 | 7 | 8 | 14 |
| 6 | BMT qaysi yilni "Bag'rikenglik yili» deb e'lon qilgan edi? | 1995 | 2000 | 1999 | 2001 |
| 7 | Bugungi kunda mamlakatimizda nechta diniy konfessiya vakillari istiqomat qiladi. | 15 | 16 | 17 | 21 |
| 8 | Yuridik xizmatning shartnomaviy munosabatlar huquqiy jixatdan ta'minlashni tashkil etish sohasidagi vazifa va huquqlarini tartibga soluvchi xujjatni tanlang | "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnoma viy-huquqiy bazasi to'g'risidagi qonun | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Davlat boshqaruvi organlari va maxalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmati to'g'risida»gi | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Xo'jalik boshqaruvi organlar-korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan tashkillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | qarori | xizmati to'g'ri sida»gi qarori | gi qarori |
| 9 | O'zbekistan Respublikasi Prezidentining «Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-2733-son Qarorida yuridik xizmatua qanday imtiyozlar berildi? | davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlarinin g mazkur mutaxassislik yillik stajiga ega bulgan xodimlari, litsenziya olish uchun advokat makomiga ega bulishga ta; sifatida malaka imtixonida tegishli stajirovka utmasdan ishtirok etish huquqiga ega | yuridik xizmat xodimi sifatidagi mexnat staji xodim бошка davlat organlari, igu huquqni muxofaza kiluvchi va nazorat organlariga ishga utganda martaba darajalari va kuya xizmat ustamalarini tulash uchun muljallangan mexnat staji hisobga olinadigan bo'ldi | yuridik xizmat xodimlari xar chorakda sudgacha va sud tartibida davlat organi va foydasiga xal kilingan nizolar yuzasidan undirilgan pulning 5 foizi, birok eng kam xakining 50 barobaridan kup bulmagan mikdorda mukofotlanadi gan bo'ldi. | barcha javoblar to'g'ri |
| 10 | Nikohdan ajralishni qayd etish qaysi organlarga taalluqli? | faqat FXDYO organida amalga oshiriladi | faqat sud tartibida amalga oshiriladi qonun xujjatlarida belgilangan xollarda | FXDYO organida xamda sud tartibida rilishi mumkin | diniy rasm-rusumlar asosida amalga oshiriladi |
| 11 | Nikohni qayd etish vakolatiga ega bo'lgan organni tanlang. | FXDYO organida amalga oshiriladi | faqat sud orqali qayd qilinadi qonun xujjatlarida belgilangan | FXDYO organida xamda sud tomonidan qayd etilishi mumkin | diniy rasm-rusumlar asosida amalga oshiriladi |
| 12 | Harakatlar strategiyasida advokatura institutini takomillashtirishga qaratilgan yurdik-tadbirlar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan? | advokatlarga xakamlik sudlarida xakam sifatida ishtirok etish huquqi beriladi, advokat ishni ko'rib chiqish tartibi va | advokatga litsenziya berish va uni lntizomiy javobgarlikka tortish masalasida davlat organlarining roli kamaytiriladi, advokatlik | «Advokatura to'g'ri sida»gi qonun yangi taxrirda ishlab chikiladi advokatlarga bir vaktning uzida sudya sifatida ishtirok etish huquqi beriladi | xalqaro-huquqiy, fuqarolik-huquqiy va xujalik-huquqiy masalalar bo'yicha yuridik yordam kursatish |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | muddatlari aniqlashtirila di, advokatlar va advokatlik tuzilmalari daromadlarin i soliqqa tortish tizimini maqbullashtir ish | litsenziyasi faoliyatini to’xtatish, tugatishning sud tartibi bosqichma-bosqich joriy etiladi va advokatlik tuzilmalarining yangi tashkiliy-huquqiy shakllari joriy etiladi, xalqaro-huquqiy, fuqarolik-huquqiy va xo’jalik-huquqiy masalalar bo’yicha yuridik yordam kursatish maksadida xorijiy fuqarolarga advokatlik litsenziyalarini berish tartibi joriy etiladi | | maksadida xorijiy fuqarolarga advokatlik litsenziyalar ini berish tartibi joriy etiladi |
| 13 | 2017-2021 yillarda O’zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Xarakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturiga ko’ra notarial idoralar faoliyatini tako-millashtirish bo’yicha kanday chora-tadbirlar amalga oshirish rejalashtirilgan? | notarial idoralar faoliyatini avtomatlashti rish | barcha notarial bitimlar xisobini markazlashgan xolda yuritish | idoralararo elektron xamkorlikni xisobga olgan xolda, axoli va tadbirkorlarga notariat soxasida interaktiv davlat xizmatlari kursatishni yo’lga qo’yish | barcha javoblar to’g’ri |
| 14 | Notarial idoralarga elektron murojaat qilish tartibi kelajakda qanday muammolarning oldini oladi? | fuqarolarga kam vaqt va mablag sarflash | uzundan-uzun navbatlarda turmaslik | ortiqcha qog’ozbozlikni ng oldini olish | barcha javoblar to’g’ri |
| 15 | Huquqni muxofaza | tezkor- | surishtiruvni, | tezkor-kidiruv | mansabdor |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish deganda nima tushuniladi? | qidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar faoliyatini kelishuvchilik asosida olib borish | dastlabki tergovni, tezkor-qidiruv faoliyatni amalga oshiradigan organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiklashtirish | faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar faoliyatini hamkorlik asosida olib borish | shaxslarning huquqni kullash bilan boglik faoliyatini xamkorlik asosida muvofiqlashtirish |
| 16 | Afrika, O’rta Sharq va Markaziy Osiyodagi nechta diniy ekstremistik va terrorchil tashkilotlari ISHIDning xatti-xarakatlarini qo’llab-quvvatlab, ularga yordam berib kelmoqda? | o’n beshdan ortiq | yigirma beshdan ortiq | o’ndan ortiq | yuzdan ortiq |
| 17 | O’zbekistonda diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi qurashish borasida qanday qonunlar qabul qilingan? | Terrorizmga qarshi kurash to’g’risidagi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to’g’risidagi, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va uni oldini olish to’g’ri sidagi qonunlar | Terrorizmga qarshi kurash to’g’ri sidagi qonun | Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to’g’risidagi qonun | B va V javoblar to’g’ri |
| 18 | 2017-2021 yillar mobaynida qaysi mutasaddi idoralar ishtirokida diniy ekstremizm terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish amaliyotini | O’zbekistan Respublikasining IIV, Mudofaa vazirligi, DXX, DBQ, Bosh prokuratur, OO’MTV, | Axborot texnologiyalari vazirligi, Mexnat vazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, vazirlik va idoralar | Qoraqalpogiston Respublikasi Juqorgi Kengesi, viloyatlar va Toshkent shaxar xokimliklari. Ijtimoiy | Mexrat vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Adliya vazirligi, Kasaba |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | o'rganish nazarda tutilgan? | Xalq ta'limi vazirligi, MTRK, «Maxalla» jamgarmasi | | tadqiqotlar institutlar, DBA, SMTI, FJSHMKMI, «Ijtimoiy fikr» markazi | uyushmalari Federatsiyasi |
| 19 | O'zbekistan Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qachon qo'shilgan? | 2017 | 2001 | 2003 | 2008 |
| 20 | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar xamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qanday tuzilma tashkil etildi? | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi | Korrupsiyani oldini olish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi | Bosh prokuratura xuzurida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha departament | Barcha javoblar to'g'ri |
| 21 | Huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muxim mezonlaridan birini ko'rsating. | Jamiyatda axoli huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi | Axolining isloxotlardan xabardor ekanligi | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunning mavjudligi | Axolining huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi |
| 22 | 2017-2021 yillarda kabul qilingan qonun xujjatlarini axoli va ijrochilarga o'z vaqtida yetkazishning samarali tizimini yaratish maqsadida qanday huquqiy xujjat loyixasini ishlab chiqish nazarda tutilgan? | Jurnalistning kasbiy faoliyatini ximoya qilish to'g'ri sidagi qonun | Jamoatchilik nazorati to'g'ri sidagi qonun | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonun | Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonun |
| 23. | 2017-2021 yillarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari xamda axolining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularga qabul qilingan yangi qonun xujjatlarining mazmun-moxiyatini tushuntirish maqsadida maxallalarda qanday ishlar amalga oshirish | Xaftada uch marta «Jinoyatdan saqlaning!» uquv mashg'ulotini joriy etish va doimiy o'tkazib borish | Xaftada bir marta «Huquqiy bilimlar» o'quv mashg'ulotini joriy etish va doimiy o'tkazib borish | Xaftada ikki marta «Diniy ekstremizm va terrorizm - yoshlar kelajagiga taxdid» mavzularida uchrashuv va davra suxbatlarini tashkil etish | Xaftada bir marta «Maxallamiz jinoyatchilikka qarshi turadi» aksiyalarini o'gkazish |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | ko'zda tutilgan? | | | | |
| 24 | O'zbekistan Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida jamotchilik nazorati keltirib o'tilgan? | 48 | 51 | 32 | 18 |
| 25 | Jamoatchilik nazorati bu - … | davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining o'zlariga qonunchilik bilan yuklatilgan majburiyatlarni ijro etishi bilan bog'liq faoliyatidir. | davlat organlari faoliyatining qonuniligini ta'minlash, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan O'zbekistan Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlovchi qonun xujjatlariga rioya qilmaslik xolatlarini aniqdashga qaratilgan faoliyatdir. | davlat va uning nomidan maxsus vakolatli organlarning qonun bilan belgilangan tartibda huquqiy ta'sir chorasini kullash orkali qonuniylikni, huquqiy tartibotni ta'minlash, jamiyat, davlat va boshka fuqarolik birlashmalarining huquq va qonuniy manfaatlarini muxofaza kilish, fuqarolarni huquq va erkinliklarini ximoya kilish, jinoyatchilik va boshka huquqbuzarliklarga qarshi kurashish soxasidagi faoliyatdir, deyish mumkin. | to'g'ri javob yo'q |
| 26 | O'zbekistan Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida O'zbekistan | 110-modda | 115-modda | 118-modda | to'g'ri javob yo'q |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Respublikasi xududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekistan Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysinuvchi prokurorlar amalga oshiradi deb ko'rsatilgan? | | | | |
| 27 | Huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari -... | huquqbuzarlarning umumiy va maxsus profilaktikasi | huquqbuzarlarning yakka tartibdagi profilaktikasi | huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi | barcha javoblar to'g'ri |
| 28 | Insonparvarlik prinsipiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping. | xech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas | shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi | qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan xar bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart | jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi |
| 29 | O'zbekistan Respublikasi Jinoyat kodeksiga yarashuv instituti qachon kiritildi? | 2000 yil 21 avgust | 2001 yil 29 avgust | 2002 yil 30 avgust | 2003 yil 24 avgust |
| 30 | O'zbekistan Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, voyaga yetmagan shaxslar uchun qanday jazo choralari tayinlanishi mumkin? 1. jarima; 2. muayyan huquqdan mahrum qilish; 3. axloq tuzatish ishlari; 4. xizmat bo'yicha cheklash; 5. qamoq; 6. ozodlikni cheklash; 7. intizomiy kolloniyaga junatish; 8. ozodlikdan maxrum qilish; 9. umrbod ozodlikdan maxrum qilish. | 1,2, 5, 7, 9. | 2, 4, 5, 7, 8. | 4, 6, 7, 8, 9. | 1,3, 5, 6, 8. |

**“Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari ” fanidan talabalar bilimini baholash mezoni**

Ushbu talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug’i hamda shu buyruqqa asosan ishlab chiqilgan, Namangan davlat universitetining 2018 yil 10-oktyabrdagi 3-sonli Kengashida muhokama qilingan va ma’qullangan Namangan davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi bo’yicha YO’RIQNOMA asosida ishlab chiqildi.

Fan o’qituvchisi tomonidan birinchi mashg’ulotda Yo’riqnoma talablari hamda nazorat turlari, soni, shakli va talabalar bilimini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.

**Nazorat turlari:**

Talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o’tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo’limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko’nikmalarini baholash maqsadida o’quv mashg’ulotlari davomida hamda mashg’ulotlardan keyin o’tkaziladi.

Talabalar mashg’ulotlardagi faolligi fan o’qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Seminar mashg’ulotlarida talabalar ishchi fan dasturida belgilangan mavzularning kamida 50 foizini o’zlashtirishlari va baholanishlari shart. Talabalarning mashg’ulotlarda olgan baholari barchasi qo’shiladi va olinishi shart bo’lgan baholar soniga bo’lgan holda o’rtacha baho keltirib chiqariladi.

Mashg’ulotlar jarayonida talabalar mustaqil ta’limiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda talaba belgilangan TBBM asosida baholab boriladi.

**Oraliq nazorat** fan o’qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan test shaklida semestr davomida bir marta o’tkaziladi. Test TBBM asosida baholanadi.

Talabani yakuniy nazoratga kiritilishi o’quv mashg’ulotlari (seminar mashg’ulotlari, mustaqil ta’lim, ma’ruza mashg’ulotlari yakunida olinadigan oraliq nazoratning test shakli)da olgan ballari asosida amalga oshiriladi. Bunda talabaning olgan barcha baholari umumlashtiriladi va o’rtacha baho keltirib chiqariladi.

Talabaning yakuniy nazorat turigacha bo’lgan o’rtacha bahosi quyidagicha aniqlanadi:

$$\textbf{O'B} = \frac{\text{MO‘B} + \text{MTB} + \text{ONB}}{\textbf{3}}$$

bu yerda: O’B- semestrda talabalarning olgan o’rtacha bahosi;
MO’B – mashg’ulotlarda to’plagan o’rtacha bahosi;
MTB – mustaqil ta’limdan olgan bahosi;
ONB – oraliq nazorat turining test shaklida olgan bahosi.

3 – mashg’ulotlar, mustaqil ta’lim va oraliq nazorat shakllari

Agar talabaning o’rtacha bahosi 3 bahoga yetmasa yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida talabaning nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarini o’zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o’tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o’tkazish shakli Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi tomonidan belgilanadi va ishlab chiqish uchun fakul’tet dekaniga taqdim etiladi.

Nazorat turlari bo’yicha materiallar 6 oy mobaynida saqlanadi.

**Talabalar bilimini baholash mezoni (TBBM):**

| **Baho** | **Talabalarning bilim darajasi** |
|---|---|
| 5 – “A’lo” | Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilgandayu |
| 4 – “Yaxshi” | Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda. |
| 3 – “Qoniqarli” | Talaba olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda. |
| 2 – “Qoniqarsiz” | Talaba fan dasturini o’zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega emas deb topilganda. |

**Talabala bilimini baholash:**

Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi. Bunda 5, 4 va 3 baholar nazorat turlariga kirish yoki talabalaga stipendiya tayinlash va kursdan-kursga ko’chirish uchun asos bo’lsa, 0, 1 va 2 baholar nazorat turlariga kirish uchun yetarli bo’lmaydi va belgilangan muddatlarda talaba fandan qayta topshira olmasa akademik qarzdor hisoblanadi.

Oraliq nazorat turini o’tkazish va mazkur nazorat turi bo’yicha talabaning bilimini baholash tegishli fan bo’yicha o’quv mashg’ulotlarini olib borgan professor-o’qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Oraliq nazorat ballari yakuniy nazorat o’tkaziladigan muddatdan kamida bir hafta muddatda umumlashtirilishi va talabalarga fan o’qituvchisi tomonidan yetkazilishi shart.

Yakuniy nazorat turini o’tkazish va mazkur nazorat turi bo’yicha talabaning bilimini baholash o’quv mashg’ulotlarini olib bormagan professor-o’qituvchi tomonidan yoki markazlashgan holda axborot kommunikasiya texnologiyalarini qo’llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Kafedra mudiri yillik yuklamadagi fanlar bo’yicha yukuniy nazoratlarni o’tkazadigan professor-o’qituvchilar ro’yxatini shakllantiradi va ro’yxatni fakultet dekaniga tasdiqlatadi. Agar belgilangan fan bo’yicha mashg’ulot o’tgan professor-o’qituvchi(lar)dan boshqa

fan bo'yicha mutaxassis bo'lmagan hollarda, tegishli kafedra mudiri o'quv yilining boshida fakultet dekaniga mutaxassis bilan ta'minlash yuzasidan yozma murojaat qiladi. Ushbu holatlarda fakultet dekani mutaxassis yetishmaydigan fan(lar) bo'yicha mutaxassis topish uchun bevosita mas'ul hisoblanadi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etmaydi.

Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2 martadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan takdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasidan norozi bo'lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyasiya komissiyasiga apellyasiya berish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to'rt nafar a'zo kiritiladi.

Talaba baholash natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyasiya Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmagani ko'rsatiladi. Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.

**Baholash natijalarini qayd etish:**

Talabalar bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida qayd etib boriladi.

Professor-o’qituvchi qo’shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Nazorat turi bo’yicha talabaning bilimi “3” (qoniqarli) yoki “4” (yaxshi) yoxud “5” (a’lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo’l qo’yilmaydi.

Talaba nazorat turi o’tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga “0” belgisi yozib qo’yiladi. Agar talaba sababsiz yoki uzrli sabab bilan mashg’ulotlarga qatnashmasa, unga yo’q (y yoki nb) qo’yiladi. Uzrli sabablarga kasallik, uylanish va turmushga chiqish, yaqinlarini olamdan o’tishi, boshqa joylarga rejalashtirilgan safar va shunga o’xshash omillar kiritiladi.
Yakuniy nazorat turi bo’yicha talabaning bilimi “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga “0” belgisi yozib qo’yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabaning baholash daftariga yozilmaydi.